H.Berdiyev, Z.Ashurova

O‘ZBEK TILI

O‘QUV QO‘LLANMA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

Husan Berdiyev, Zulxumor Ashurova

O‘ZBEK TILI

O‘QUV QO‘LLANMA

Samarqand – 2020

UO'K 811.512.133
KBK 81.2 Ўзб
Б 55

Husan Berdiyev, Zulxumor Ashurova. O'zbek tili. O'quv qo'llanma. – Samarqand: SamCHTI nashri. 2020. – 186 bet.

Mazkur o'quv qo'llanma Oliy va o'rta maxsus ta'lim vairligi qoshidagi Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan nofilologik oliy ta'lim muassasalarining rus guruhlari talabalari uchun tavsiya qilingan. O'quv qo'llanmada rus guruhlari talabalarining umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida o'zbek tilidan olgan bilim va malakalarni mustahkamlash, ularning o'zbek tilidagi og'zaki va yozma bog'lanishli nutqini va turli uslublarida matn tuza olish malakalarini takomillashtirish, ularning yetuk darajadagi kadrlar bo'lib yetishishida ko'nikma va bilimlarini shakllantirish nazarda tutilgan.

Mas'ul muharrir: **Saidov Yoqub Siddiqovich**, BuxDU professori, filologiya fanlari doktori

Taqrizchilar: **Rajabov D.Z.** – BuxDU professori, filologiya fanlari doktori,

Ahmedov A. – BuxDU O'zbek tilishunosligi kafedrasi mudiri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent,

Adilova S. – SamISI katta o'qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi

© Husan Berdiyev, Zulxumor Ashurova, 2020
© Samarqand davlat chet tillar instituti, 2020

SO‘ZBOSHI

O‘zbek tili O‘zbekiston Respublikasining davlat tilidir. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili haqida”gi, “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi qonunlarida o‘zbek tilini o‘qitishni tubdan isloh qilish, yangi o‘quv dasturlari, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari yaratish, o‘zbek tili ta’limining yangi samarali usullarini ishlab chiqish va ta’lim jarayoniga tadbiq etish vazifalari qo‘yilgan.

Ushbu o‘quv qo‘llanma rus guruhi talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ularning nutqiy savodxonligini oshirish, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish, O‘zbekistonda istiqomat qiladigan boshqa millat vakillarining davlat tilini puxta egallashiga, milliy, madaniy qadriyatlarni o‘rganishiga va ularga hurmat bilan munosabatda bo‘lishiga, barcha sohalarda erkin fikr almashishiga hamda mutaxassislik doirasida muloqotga kirishishiga zamin yaratadi. Qo‘llanma materiallari davlat tilida og‘zaki va yozma muloqot yuritish, tilning orfoepik va imlo qoidalari, sohaviy terminologiya, mutaxassislik tili, monologik va diologik matn tuzish, nutq uslublari, sohaviy hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish masalalarini qamrab oladi.

O‘quv qo‘llanma fan dasturida belgilanganlarga muvofiq talabalar o‘zbek tilidan egallashlari shart bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malakalarning zaruriy me’yoriga asoslanadi.

Didaktik va grammatik materiallar, notanish so‘zlar lug’ati, adabiy-badiiy parchalar singari materiallar orqali talabani fikrlashga undash qo‘llanmani tayyorlashda asosiy maqsad qilib olindi.

Mazkur o‘quv qo‘llanma X.Muhiddinova, X.Po‘latova tomonidan tayyorlangan “O‘zbek tili” (Toshkent: O‘qituvchi, 2012), Sh.Normatova, M.Abdurahmonovalarning “O‘zbek tili” (Toshkent: JIDU, 2014) darsliklari, shuningdek Sh.Fayzullayeva, H.Azimova, G.Usmonova (“O‘zbek tili”. Oliy o‘quv yurtlarining iqtisodiy ta’lim yo‘nalishlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. –

SAMARQAND IQTISODIYOT
VA SERVIS INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
№ 61143

Toshkent: Iqtisodiyot, 2012), Sh.Yuldasheva, D.Kabulova, M.Sobirova ("O'zbek tili". O'quv qo'llanma. – Nukus: Bilim, 2013), N.Husanov, R.Xo'jaqulova, N.Dilmurodova ("O'zbek tili". O'quv qo'llanma. –Toshkent: TMI, 2017), U.Lafasov ("O'zbek tili". O'quv qo'llanma. – Toshkent: ToshDSHI, 2016) kabi olmlarning "O'zbek tili" o'quv qo'llanmalari asosida tayyorlandi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT RAMZLARI

Vatanimiz madhiyasi, bayrog‘i, gerbi mustaqil O‘zbekiston davlatining ramzlari hisoblanadi. Ularda mamlakatning timsollari, uning milliy va iqtisodiy ko‘rsatkichlari, siyosiy-ijtimoiy tuzumi va hayoti xalqimizning azaliy orzu –istaklari, ezgu intilishlari o‘z ifodasini topgan.

Ular O‘zbekiston xalqlarining shon-sharaf, g‘ururi hisoblanadi. O‘zbek davlati va uning ramzlarini e’zozlash, hurmat qilish, qadrlash har bir fuqaroning burchidir. Vatanning qadriga yetgan har bir kishi davlatimiz ramzlari mohiyatini to‘la anglash, kezi kelganda, ulardagi tariximiz, ma’naviyatimizni, yuraklarga joylab, zavq va shavq bilan tushuntira olish kerak. Bu vatan timsollariga bo‘lgan hurmat va madaniyat. Bu mana shu aziz Vatan farzandi bo‘lgan har bir insonning muqaddas burchidir.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MADHIYASI

Abdulla Oripov so‘zi
Mutal Burxonov musiqasi

Serquyosh, hur o‘lkam, elga baxt najot,
Sen o‘zing do‘stlarga yo‘ldosh mehribon!
Yashnagay to abad ilmu fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

NAQORAT
Oltin bu vodiylar – jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag‘ri keng o‘zbekning o‘chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo‘r qanot!
Istiqlol mash’ali, tinchlik posboni,
Haqsevar, ona yurt mangu bo‘l obod!

NAQORAT

Oltin bu vodiylar – jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon
Olamni mahliyo aylagan diyor!

BAYROQ

O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i mustaqil mamlakatimiz ramzlaridan biri hisoblanadi. Davlat bayrog'i o'zining milliyligi, mustaqilligi, bilan mamlakatimiz tabiati, tarixi, qudrati va eng yaxshi an'analarini jahonga namoyon qiladi. Davlat bayrog'i O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari o'tkazilgan 7-sessiyasida 1991-yil 18-noyabr kuni tasdiqlangan.

Davlat bayrog'i va uning ramzi bugungi O'zbekiston sarhadida qadimda mavjud bo'lgan davlatlar bilan tarixan milliy bog'liqligini anglatadi hamda respublikaning milliy-madaniy an'analarini o'zaro mujassamlashtiradi.

GERB

O'zbekiston Respublikasining davlat gerbi O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 10-sessiyasida 1992-yil 3-iyul kuni tasdiqlangan.

Davlat gerbi davlatning asosiy ramzlaridan biri hisoblanadi. Uning tasviri bayroqlarda, qog'oz, pul va tangalarda, muhrlarda, rasmiy hujjatlarda aks ettiriladi. Gerbning mazmuni, ta'rifi rasmiy tarzda qo'llanish tartibi ham qonun bilan belgilanadi.

Mamlakatimiz tarixida chuqur iz qoldirgan saltanatlar va davlatlarning o'z gerbi bo'lgan. Xususan, 2500 yil muqaddam Erondan to Oltoyga qadar yastangan turk hoqonligining o'z davlat "tamg'a"si mavjud edi. Bu tamg'a–gerb hukmdoriga ota-bobolaridan meros bo'lib o'tgan, davlat va mulkka ega bo'lganlikning ramziy belgisi sanalgan. Tarixda har bir davlat,

shahar, urug', qabilaning o'z gerbi bo'lgan. Masalan, qadimgi Rim davlati gerbida –burgut, Venetsiya shahri gerbida –qanotli sher, London shahri gerbida–but va qilich rasmi tushurilgan.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI

Konstitutsiya lotincha so'z bo'lib, "o'rnataman", "belgilab qo'yaman" degan mazmunni ifoda etadi. O'zbek tilida "asosiy qonun", ya'ni, davlatni boshqarish, uning ichki va tashqi hududlarini idora qilish kabi ma'nolarni anglatadi. Bu qomusiy hujjatlarimizning xalqchilligi shundaki, unda milliy urf-odatlarimiz, an'analarimiz, e'tiqodimiz, umuman milliy qadriyatlarimiz himoyasi va ravnaqi aniq belgilab qo'yilgandir.

Shuning uchun ham biz mustaqillik bayrog'ini baland ko'tarib, istiqlolni mustahkamlash uchun butun kuch-g'ayratimizni safarbar etmoqdamiz. Mamlakatimizda davlatchilik tizimlari tez shakllantirildi. Ulardan biri mustaqil davlatimiz Konstitutsiyasidir. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, eng avvalo Vatanimiz ozodligining shahodati sifatida qadrlidir.

BIRINCHI DARS

Oila kichik Vatan, oila tinch bo'lsa,
baxtli bo'lsa, vatan tinch bo'ladi.
Sh.Mirziyoyev

O'ZBEKISTON – YAGONA VATAN

Tayanch so'z va iboralar: chegaradosh, davlat hududi, tog'lar, o'rmonlar, mamlakat, ajdodlar.

O'zbekiston Respublikasi – Markaziy Osiyoning markaziy qismida joylashgan davlat. Janubi sharqda qirg'iziston, shimolda va shimoli-g'arbda –Qozog'iston, janubi–g'arbda Turkmaniston. janubi–sharqda –Tojikiston, janubda Afg'oniston bilan chegaradosh.

Uning yerosti boyliklari behisob. Mamlakatimizda zavod va fabrikalar, ko'rkam binolar, bog'lar ko'p. Ularning hammasi xalq uchun xizmat qiladi.

Biz o'zimiz yashab turgan mamlakatni ona-Vatan deb ataymiz. Buning sababi nimada? Bu yerda qadimdan bizning ota-bobolarimiz yashaganlar. Biz ham shu yerda tug'ildik. Shu yerda o'smoqdamiz.

Vatanimiz bizni onamiz kabi o'zining issiq bag'rida mehr bilan erkalaydi. Sevib, ardoqlaydi. Voyaga yetkazadi. Kamol toptiradi. Shu sababli ham biz Vatanimizni onamiz kabi sevamiz, qadrlaymiz. Uning nomini ona-Vatan deb ataymiz.

Dunyoda mamlakatlar, shaharlar ko'p. Lekin inson uchun tug'ilib o'sgan joyi ona – Vatani hammasidan ham yaxshidir.

Vatan o'zi nima? Vatan – onaning allasi taralgan, beshigingning izlari chizilgan zamin. Ajdodlaring ko'milgan qabriston, ota-onangning izlari qolgan ko'chalar, sening lahjangda so'zlashadigan, qosh-u ko'zi xuddi sening kabilar yashaydigan muqaddas zamin Vatandir. Ilk bor bahorni tanigan, birinchi marta varrak uchirgan, ilk bor hayitlik olgan joying,

birinchi o'qituvchi, birinchi muhabbatingni tanitgan muqaddas makon Vatandir. O'z jonidan yaratgani uchun ham ona yaxshi-yu yomon bolasini tishida tishlab o'tadi. Vatan ham shunday: qadamlaringni ko'ksiga qo'yib, suyab yashaydi seni. Osmoni ko'rpang, maysasi dimog'ingni bosib yotadigan muqaddas bolishingdir. Vatan mung'aygan tandirli, pastakkina tomli kulbangdan boshlanadi. Unga bo'lgan muhabbating ham shu ostonada tug'iladi.

O'zbekiston xalqi tinch va osuda hayot kechirmoqda. Buni kimdir Vatan chegaralarining daxlsizligidan bilsa, kimdir uning mustahkam ma'naviy qo'rg'oni bilan izohlaydi. Bu ikki omil uyg'unligi tufayli jannatmakon yurtimizda totuvlik, osoyishtalik hukm surmoqda. Shu muqaddas Vatan himoyachisi ekanidan qalbida iftixor va g'urur tuyg'usi uyg'ongan har bir askar tug'ilgan yeri, ota-onasi, sevikli yori, do'st va qarindoshlari, mahalladoshini qo'msaydi. Shu tuyg'u zamirida, Vatan sog'inchi mujassamdir.

Bugungi kunda xalqimizning ozod va erkin hayot barpo etish, dunyodagi taraqqiy topgan mamlakatlar qatoridan munosib o'rin egallash yo'lidagi ulkan intilish va harakatlarning mustahkam manbayi Vatan ozodligini eng ulug' ne'mat deb bilish hissi buyuk tuyg'ulardan biri hisoblanadi.

Vatan bittadir, shuning uchun ham u muqaddas. Yagona bo'lgan narsalarning barchasi e'zozda — Vatan, Ona, Zamin, Osmon, Quyosh... Bittadan oshdimi, muqaddaslik qolmaydi. Ha, Vatan ona kabi yagonadir!

Bepoyon Vatanimizning ba'zi go'shalarida "Vatan" so'zi uy, xona ma'nosini ham bildiradi. Aytishadi: "O'g'lim uchun bir vatan qurdiray..." Yoxud kishi omadsizlikdan uyidan mahrum bo'lsa "bevatan bo'lib qolibdi", deyishadi afsus bilan. Vatan — bu biz yashab turgan uyimiz!

Vatan dunyodagi eng buyuk, eng muqaddas ne'mat bo'lgani uchun uning mustaqilligi ham shunchalik qadrlidir.
Mustaqillik el-yurtimizni zulm va kishanlardan ozod qildi, uning qonuniy huquqlari, sha'n-u g'ururi, tarixi, tili, va dini, milliy qadriyatlarini tikladi.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Siz qayerni ona-Vatan deb ataysiz?
2. Nima uchun Vataningizni sevasiz, qadrlaysiz?
3. Yurtimiz yoshlari, jumladan qizlarimizning o'qishda, ilm-fan, madaniyat, sport sohalaridagi yutuqlari haqida nimalarni bilasiz?
4. O'zingiz qaysi sohaga qiziqasiz?
5. Nima uchun kishilar o'z Vatanini sevadilar?
6. O'zbekistonning aholisi qancha?
7. O'zbekistonning iqlimi qanday?
8. O'zbekistonda qanday daryolar bor?
9. O'zbekistonda qaysi millat vakillari yashaydi?:
10. O'zbekiston Respublikasida qanday viloyatlar bor?

Mavzu: O'zbekiston-yagona Vatan
Bolam deding yuraklari adolarni
Jonim ichra jonimdirsan,O'zbekiston.



Adabiy o‘qish
Vatanni suymak

Har bir kishining tug‘ilib o‘sgan shahar va mamlakati shu kishining Vatanidir. Har kim tug‘ilgan, o‘sgan yerini jonidan ortiq sevadi. Hatto, bu Vatan his-tuyg‘usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o‘z Vatanidan – uyuridan ayrilsa, o‘z yeridagi kabi rohatda yashamas. Har vaqt dilining bir go‘shasida o‘z Vatanining muhabbati turar.

Biz turkistonliklar, o‘z Vatanimizni jonimizdan ortiq sevamiz. Biz singari arablar ham Arabistonlarini, qumlik, issiq cho‘llarini, sovuq, qor, muzlik yerlarni boshqa yerlardan ziyoda ko‘radilar. Agar sevmasalar edi, o‘z Vatanlarini tashlab ketar edilar.

Bobolarimiz: “Kishi yurtida sulton bo‘lguncha, o‘z yurtingda gado bo‘l”, – deydilar.

Abdulla Avloniy

MEN NECHUN SEVAMAN O‘ZBEKISTONNI?

Men nechun sevaman O‘zbekistonni,
Tuprog‘in ko‘zimga aylab to‘tiyo.
Nechun vatan, deya yeru osmonin,
Muqaddas atayman, atayman tanho.

Aslida dunyoda tanho nima bor?
Paxta o‘smaydimi o‘zga elda yo?
Yoki quyoshimi sevgimga sabab?
Axir, quyoshli-ku, butun Osiyo.

Men nechun sevaman O‘zbekistonni,
Bog‘larin jannat , deb ko‘z-ko‘z etaman.
Nechun ardoqlarkan tuprog‘ini men,
O‘paman, tuprog‘ing, bebaho Vatan!

Aslida tuproqni odil tabiat,
Taqsim aylagan-ku, yer yuziga teng
Nechun bu tuproq, deb yig'ladi Furqat,
O, Qashqar tuprog'i, qashshoqmiding sen?

Men nechun sevaman O'zbekistonni?
Sababini aytgin, desalar menga .
Shoirona, go'zal so'zlardan oldin,
Men ta'zim qilaman ona xalqimga:

Xalqim, tarix hukmi seni agarda,
Mangu muzliklarga eltgan bo'lsaydi,
Qorliklarni makon etgan bo'lsayding,
Mehrim bermasmidim o'sha muzlarga ?

Vatanlar, Vatanlar, mayli gullasin,
Bog' unsin mangulik muzd ham, ammo,
Yurtim, seni faqat boyliklaring chun
Sevgan farzand bo'lsa, kechirma aslo!

Abdulla Oripov

Mavzu mazmunini tushunish bo'yicha topshiriqlar

1-topshiriq. A.Oripovning "Men nechun sevaman O'zbekistonni?" nomli she'rini ifodali o'qing. She'rni yod oling.

2-topshiriq. O'gitlarni o'qing va ta'lim tilingizga tarjima qiling.

Modal so'zlar

Bilib oling: Modal so'zlar so'zlovchining o'z nutqiga bo'lgan munosabatini ifodalash uchun xizmat qiladi. Gap bilan grammatik jihatdan bog'lanmaydi va undan vergul bilan ajratiladi. O'zbek tilida quyidagi so'zlar modal so'zlar hisoblanib, ular gapda kirish

bo'lak vazifasida gapda kirish so'z, ba'zan gap bo'lagi yoki butun bir gap vazifasida qo'llanilib, biror modal ma'no ifodalaydigan so'zlar modal so'zlar deyiladi.

Albatta, shubhasiz, haqiqatan, tabiiy, darhaqiqat kabi fikrga aniqlik ma'nosini; *zarur, darkor kabilar, maqsad talab shart* ma'nolarini; *bor, mayli, xo'p kabi turlari mavjudlik yoki tasdiq* ma'nolarini; yo'q inkor mavjud emaslik ma'nosini; *durust, bo'pti, demak, xullas, modomiki, ma'qullash, ta'kidlash, yakunlash* ma'nolarini; *darvoqe, aytganday, aytmoqchi, afsus, esiz, attang kabilar esa eslatish, achinish* kabi ma'nolarni bildiradi.

Grammatik mavzu bo'yicha mashqlar

1-mashq. Quyida berilgan gaplardan modal so'zlarni aniqlang va ularni ta'lim tilingizga tarjima qiling.

1. Haqiqatan, Alisher barcha haqiqatlarni anglab yetdi. 2. Shak-shuhasiz, biz yoshlar barkamol avlod vakillarimiz. 3.Menimcha, barcha ezgu ishlarni amalga oshirmoq kerak. 4.Yurtimizda obodonlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. 5.Demak, biz albatta hech kimdan kam bo'lmaymiz va kam bo'lmagaymiz.

2-mashq. Quyidagi yozilishida imlo xatolarga yo'l qo'yilgan so'zlarni to'g'ri yozing va tarjima qiling: *tuprog'i, zar, xosil, gavhar, odamlari, saxiy, tejamkor, ajoyib, maftunkor, chitamli, savob, durust, darhaqiqad, andisha, davomli.*

3-mashq. Matnni o'qing. Modal so'zlarni toping va rus tiliga tarjima qiling. Hojar ko'zini yo'ldan uzmay so'radi: - Qayerda u kishi? - Qayerda, qayerda detdomda! Bildingmi? - tag'in zulm qildi. - Xursanddirsan? Xotin tag'in miq etmadi. - He, qayerda... - O'sar gapini davom ettirmadi. So'ng: - Nodonsan,- dedi. - Siz aqlli. - Yo'q, axir... - Bo'pti. - O'rkachdan oshgach, O'sar gazni bosdi-ya! Bosdi. Shaloq "arava" bamisoli yelib ketdi. - Nihoyat, juft tutlar ko'rindi. Asta-sekin kattalasha boshladi. Keyin O'sar og'zini ochib, yalay boshladi: yutinadi, goh xotiniga yalt etib qarab qo'yadi (Sh.Xolmirzayev).

4-mashq. O'qing. Modal so'zlarni aniqlang va ma'nolarini tushuntiring. 1. Mayli, yillarning shafqatsiz shamoli sochlarimni erinmay bo'yasa, bo'yayversin. 2.Balki, endi so'rashimning hojati qolmagandir. 3. Ehtimol, yigitlarimiz, qaysidir ma'noda haqdirlar. 4. Darvoqe, biz kun sayin emas, daqiqalar sayin o'zgarishlar sodir bo'layotgan asrda yashayapmiz. 5. Boyagi gaplar bu qulog'ingdan kirib, u qulog'ingdan chiqib ketdi, shekilli. 6. Modomiki, darsga kelmasam, kasal bo'lib qoldi deyaver.

5-mashq. Berilgan so'zlarni to'g'ri joylashtirib gap tuzing.

a) mustaqillik, O'zbekiston, xalq, uchun, ahamiyat, ega, muhim, juda; b) shahar va qishloqlar, O'zbekiston, chiroy, ochmoq, kundan-kunga; s) O'zbekiston, bo'lmoq, a'zo, BMT, tan olmoq 180 dan ortiq davlat; d) O'zbekiston, yoshlar, O'z, yurt, asrab-avaylamoq, xalqini; e) mustaqillik maydoni, O'zbekistonliklar, mehmonlar, va, katta, bilan, bayram qilmoq, shodiyonalar.

Mavzu bo'yicha test savollari

1. Vatan so'zi qaysi tildan olingan?

A. Lotincha
B. Inglizcha
S. Arabcha
D. Barcha javoblar to'g'ri

2. Jahonda shoir va sarkarda nomini olgan buyuk shaxs nomini belgilang.

A. Alisher Navoiy
B. Mirzo Ulug'bek
S. Z.Bobur
D. A.Temur

3. Tib ilmining asoschisi kim?

A. Beruniy
B. Ibn Sino
S. Al-Xorazmiy
D. M.Ulug'bek

4. Okean ortidagi quruqlik borligini birinchi bo'lib kashf etgan kim?

A. Beruniy

B. A.Navoiy

S. Al-Xorazmiy

D. Ahmad Yassaviy

5. Ne-ne sarkardalar ololmagan joylarni qalam kuchi bilan zabt etgan kim?

A. Ahmad Yassaviy

B. A.Jomiy

S. Lutfiy

D. A. Navoiy

IKKINCHI DARS

O'ZBEK TILI – DAVLAT TILI



O'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki, ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili bu-millatning ruhidir.

I.Karimov

O'ZBEK TILI

Tayanch so'z va iboralar: Qadimgi turkiy adabiy til, eski o'zbek tili, o'zbek adabiy tili, imlo qoidalari, lotin yozuvi, o'zbek alifbosi.

Til har bir millat madaniyatining o'zagidir. Shu sababli ham tilning saqlanishi xalq taraqqiyoti va kelajagini belgilaydi. Til xalqni birlashtiradi, tarbiyalaydi, o'qitadi, urf-odat, an'analarini saqlaydi. 1989 yil 21 oktabrda O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni qabul qilindi. Bosh Qomusimizning

4-moddasida “O’zbekiston respublikasining davlat tili o’zbek tilidir”, deb belgilab qo’yilgan.

Hozirda o‘zbek tili respublikamizning davlat tili sanaladi. Shu bois ham, uni o‘rganishga alohida e’tibor berilmoqda. Istiqlolga erishgan O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidagi mavqeyi ortib borar ekan, o‘zbek tili ham tobora qadr topmoqda, uni chet ellik birodarlarimizning ham o‘zbek tilini o‘rganishga zo‘r ishtiyoq bilan kirishayotgani fikrimizning dalilidir.

1993-yil 2-sentabr “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g’risida”gi qonun qabul qilindi. 1995-yil 6-7-mayda mazkur qonunga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

1995-yil 24-avgustda “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari”ni tasdiqlash to‘g’risida Vazirlar Mahkamasining qarori e’lon qilindi.

Qonunga asosan eng muhim qadriyatlardan biri hisoblangan til qonun darajasida huquqiy asosga ega bo‘ldi. Bu qonun bilan o‘zbek millatining ma’naviyatini, ruhiyatini, qadrini ko‘rsatadigan muhim omil, ya’ni, tilning maqomi huquqiy mustahkamlandi. Mazkur huquqiy asos orqali yangi shakllanayotgan davlatning, hukumatning, uning yangi rahbarining elga, yurtga nisbatan e’tibori, ehtiromi namoyon etildi.

Til har bir millatning o‘lkan boyligi, benazir qadriyati va bebaho mulki hisoblanadi. Har bir xalq, har bir elat o‘zi hurmat va ehtirom qiladigan tilga ega. Tilda ana shu tilning ijodkori bo‘lgan xalq, elatning tarixi va madaniyati aks etadi. Ayni zamonda, til ijtimoiy taraqqiyotda ulug‘vor ahamiyat kasb etadi. Til – har bir millat o‘zligining ajralmas belgisidir.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar

1. O‘zbek tili til sifatida qachondan shakllangan?
2. Til rivojida A.Navoiyning qanday xizmatlari bor?
3. O‘zbek tiliga qachon davlat maqomi berilgan?
4. Matnda keltirib o‘tilgan muhim sanalar haqida to‘xtalib o‘ting.

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
№ 61143

5. O‘zbek adabiy tili va uning imkoniyatlari haqida to‘xtalib o‘ting.

6. Turkiy tilda ijod qilgan qanday buyuk ijodkorlarni bilasiz?

7. “O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili haqida”gi Qonuni qachon qabul qilingan?

ONA TILIM O‘LMAYDI

Notiq dedi:
“Taqdir shul,
Bu jahoniy iroda.
Tillar yo‘qolur butkul,
Bir til qolur dunyoda”.
“Ey voiz, pastga tushgin,
Bu gap chiqdi qayerdan!”
Navoiy bilan Pushkin
Turib keldi qabrdan.
Kim darg‘azab,
Kim hayron,
Chiqib keldilar qator:
Dante, Shiller va Bayron,
Firdavsiy, Balzak, Tagor.
“Va’zingni qo‘y, birodar,
Sen aytganing bo‘lmaydi”.
Barcha dedi barobar:
“Ona tilim o‘lmaydi”.
— Hey, bu qanday aqida! —
Qo‘lida tabarruk jom,
Go‘zal forsiy haqida
Ruboiy aytdi Xayyom.
Ehtirosli, otashdil
Beranje so‘rdi nolon:
— Nahotki, farangi til
Yo‘qolgusi bir zamon!

Neruda, Lorka turdi
Servantesning yoniga:
— Kim qasd etib tig‘ urdi
Ona tilim joniga!
Fuzuliy yondi:
— Ozar
Tili guldek so‘lmaydi.
Barcha dedi barobar:
“Ona tilim o‘lmaydi”.
Kamalakdek rango-rang
Bo‘lsin deb san’at, tillar,
Asrlarcha qildik jang,
Armon qildik ming yillar.
Beqadr bo‘lsa, nahot,
Tillardagi tarovat!
Yo‘qoldi bu kun, hayhot,
Qabrlarda halovat!
“Faust” yondi gurillab,
“Xamsa” o‘tga tutashdi.
Bir sado jahon bo‘ylab
Taraldi, tog‘lar oshdi.
Bu sado yangrar hamon,
Sira ado bo‘lmaydi.
Olam aytar:
Hech qachon
Ona tilim o‘lmaydi!

Erkin Vohidov

“So‘z – gul, ish – meva”

Al-Xorazmiy

“Ko‘ngil durji ichra guhar so‘z durur
Bashar gulshanida samar so‘z durur”.

Alisher Navoiy

1. “Har bir millatning borligini ko‘rsatadurg‘on oynai hayoti – bu til va adabiyotdir”.

Abdulla Avloniy.

2. “Til mustaqilligi – el mustaqilligi”.

Maqol

3. “Og‘izga kelganni demak nodonning ishi, oldiga kelganni yemak hayvonning ishi”.

Alisher Navoiy

4. “Til – aql tarozisi”.

Maqol

Mavzu mazmunini tushunish uchun topshiriqlar

1-topshiriq. E.Vohidovning “Ona tilim o‘lmaydi” nomli she’rini ifodali o‘qing. Tilga doir fikrlardan foydalanib, gaplar tuzing.

2-topshiriq. Til haqidagi fikr va maqollarni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

3-topshiriq. 1. Jahon tillariga qanday tillar kiradi?

Jahon tillariga tushunarli bo‘lgan, o‘zbek tilida ham ishlatiladigan so‘zlarni davom ettiring: *global, sport, foto, fokus, kompyuter, ofis, faks, kollej, internet, telefon.*

4-topshiriq. Matnni o‘qing. Matn tarkibidan tilga oid so‘z va iboralarni daftaringizga ko‘chiring.

Bilib oling: Qo‘shimchalar sinonimiyasi va antonimiyasi

Qo‘shimchalar

Qo‘shimchalar vazifasi va so‘zga qo‘shilib anglatadigan ma’nosiga ko‘ra 2 turga bo‘linadi:

1. So‘z yasovchi qo‘shimchalar
2. So‘z shaklini yasovchi qo‘shimchalar

Negiziga qo'shilib (o'zakka ham), shu negizning ma'nosi bilan bog'langan, ammo yangi ikkinchi ma'nodagi so'z hosil qilishda ishtirok etadigan qo'shimcha so'z yasovchi qo'shimcha deyiladi.

So'z yasovchi qo'shimchalar ko'pincha bir turkmdagi so'zdan yangi so'z yasaydi. Masalan, yoz, qish-ot, ammo, yozgi, qishki-sifat; ish, qon, arra-ot, ko'k, yaxshi-sifat, ammo, ishla, qona, arrala, ko'kar, ko'kla, yaxshila-fe'l; supur, o'r-fe'l, ammo, supurgi, o'roq-ot va boshqalar. Ba'zan so'z yasovchi qo'shimcha har bir turkumning o'ziga xos bo'lgan so'zni yasashi mumkin. Masalan: *ishchi, qumloq* kabi. So'z yasovchi qo'shimchalar nutqda qo'llanish darajasiga, faolligiga ko'ra unumli, kam unum va unumsiz qo'shimchalarga bo'linadi.

Ko'plab yangi so'zlar yasash uchun xizmat qiladigan qo'shimchalar unumli yasovchi qo'shimcha deyiladi. Masalan: *ishchi, xizmatchi, ovchi, a'lochi, sudratma, moslama, yasama, ko'rgazma, tinchlik, yaxshilik, kattalik, ko'rpalik, turtki, supurgi, qishki, ishla, arrala, oshla, boshla, yaxshila.*

So'z yasashda kam qatnashadigan qo'shimcha kam unum yasovchi qo'shimha deyiladi. Masalan: *o'r+oq, tara+oq=taroq, bosh+oq, mehnat+kash, zahmat+kash, suz+g'ich, qir+g'ich, purka+gich.*

Hozir yangi so'z yasamaydigan qo'shimcha unumsiz qo'shimcha deyiladi. Unumsiz qo'shimchalar odatda bir necha so'znigina hosil qiladi. Masalan: *qop+ag'on, bil+ag'on, sez+gir, kes+kin* kabilar.

So'zning nutqdagi boshqa so'zlarga munosabatiga aloqasini ifodalaydigan qo'shimcha so'z shaklini yasovchi qo'shimcha deyiladi. Ular gapda so'zlarni bir-biriga bog'laydigan qo'shimchalardir. Masalan: *kitobning, kitobni, kitobdan, o'qiganman* kabi. Bu qo'shimchalar uch turli bo'ladi.

1. Kelishik qo'shimchalari
2. Egalik qo'shimchalari
3. Shaxs-son qo'shimchalari.

So‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimchalar so‘zning o‘zgarib turadigan qismidir. Qo‘shimchalar tuzilishiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi:

1. Sodda qo‘shimchalar
2. Murakkab qo‘shimchalar

Sodda qo‘shimchalar boshqa qo‘shimchalarga ajralmaydi. Masalan: ishchi, aqlli, hayosiz. Murakkab qo‘shimchalar kamida ikkita qo‘shimchaning qo‘shilishidan hosil bo‘ladi. Masalan: *dehqonchilik, odamgarchilik, yordamlash*.

So‘zning leksik ma’nosini o‘zgartirmay, u anglatgan hodisaning yoki nutqning borliqqa munosabatini ifodalaydigan qo‘shimcha shakl yasovchi qo‘shimcha deyiladi. Masalan: kitoblar, kitobcha, kattaroq, kattagina, beshinchi, oltov, uchala, keldi, brogan, ishlamoqda, kuldir, ko‘rgaz, kelma. Shakl yasovchi qo‘shimchalar negizining grammatik xususiyatini o‘zgartiradi. Ba’zan negizning leksik ma’nosiga qo‘shimcha ma’no qo‘shadi.

Shaxs-son qo‘shimchalarining sinonimiyasi

1) Fe’lning 2-shaxs birlik qo‘shimchasi o‘rnida 2-shaxs ko‘plik qo‘shimchasi qo‘llanadi. Amaki ertaga kelasizmi?

2) Fe’lning 1-shaxs birlik qo‘shimchasi o‘rnida 2-shaxs birlik qo‘shimchasi ishlatiladi. Tabiatning ishlariga hayron qolasan kishi.

3) 2-shaxs ko‘plik o‘rnida 1-shaxs ko‘plik qo‘shimchasi qo‘llanadi: Bolalar bugun diktant yozamiz.

4) 2-shaxs ko‘plik o‘rnida 3-shaxs birlik qo‘shimchasi ishlatiladi: U norozi ohangda dedi: Shunaqa ish bilan hazillashib bo‘ladimi?

Zamon qo‘shimchalarining sinonimiyasi:

1) Hozirgi zamon davom fe’li o‘rnida hozirgi-kelasi zamon shakli qo‘llanadi. Butun qishloq ular haqida gaplashishadi (gaplashishayapti).

2) Kelasi zamon o‘rnida hozirgi zamon shakli qo‘llanadi: ertaga terimga tushyapmiz.

3) hozirgi zamon o‘rnida o‘tgan zamon shakli keladi.

3. Mayl qo‘shimchalari sinonimiyasi:

1) ijro maylidagi fe’l buyruq mayli o‘rnida keladi: Qani, ketdik, bolalar.

2) ijro mayli shart mayli o‘rnida keladi: Kelaman dedingmi, kelish kerak.

4. Nisbat qo‘shimchalari sinonimiyasi:

1) birgalik nisbati qo‘shimchasi ko‘plik qo‘shimchasiga sinonimdir. Ular kelishdi-Ular keldilar.

2) nisbat qo‘shimchalari ichida o‘zaro sinonimlikni hosil qiladiganlari ham bor: -l, il, in,-sh, -ish; -t,-tir,-dir, -ir,-giz;-kiz,-kaz, -qiz,-qaz.

5. Fe’l yasovchi qo‘shimchalar sinonimiyasi:

1) ba’zi yasama fe’llar iboralarga sinonim bo‘ladi: gulladi-gulga kirdi.

2) qo‘shimcha yordamida yasalgan fe’llar qo‘shma fe’llarga sinonim bo‘ladi: himoyaladi-himoya qildi.

3) fe’l yasovchilar o‘zaro sinonim bo‘ladi: sizlamoq-sizsiramoq, suvsamoq-suvsiramoq.

Morfologik sinonimiya.Yasovchi qo‘shimchalar sinonimiyasi.

Ot yasovchilar: -kor va chi, shunos va chi (paxtakor-paxtachi, tilshunos-tilchi) kabi.

Sifat yasovchilar: -li va ba (ma’nili-ba’mani), -siz va be (aqlsiz-beaql, pulsiz-bepul)-ser va li (serunum-unumli).

Grammatik mavzu bo'yicha mashqlar

1-topshiriq. Quyida berilgan matndan so'z yasovchi qo'shimchalarni toping.

"O'zbek tili" doimiy anjumani

Milliy til millatning birinchi belgisidir. Shuning uchun har bir millat Isiqlol uchun kurashsa, dastlab milliy tilning sofligi, uning qadr-qimmatini tiklash uchun kurashadi. O'zbekistonda ham xuddi shunday bo'ldi. Rus tili tazyiqi ostida o'zbek ziyolilarining kattagina qismi ona tilida so'zlashni unutayozdi. O'zbekcha matnlarda ruscha so'zlar miqdori juda ko'payib ketdi. Ona tili ta'limi e'tibordan chetda qoldi va hatto o'zbek tilining grammatik qurilishi ham rus tili me'yorlari bilan o'lchanadigan bo'ldi. O'zbek tili uchun mana shunday fojiaga yaqin bir davrda ona tili ta'limini takomillashtirishdan iboratdir. Anjuman har ikki yilda bir marta o'tkaziladi. Unda tilshunos olimlar, ona tili va adabiyoti fani o'qituvchilari, o'zbek tili ta'limi uchun javobgar davlat arboblari bevosita muloqotga kirishadilar. Ilmiy va amaliy masalalarni yechish yo'llari va usullari haqida fikralshib oladilar. Bu yig'inlarda mingdan ziyod mutaxassis ishtirok etadi. Har bir yig'inda o'zbek tili ta'limining dolzarb masalalari bo'yicha uch yuzga yaqin ma'ruza tinglanadi va muhokama etiladi.

2-topshiriq. Berilgan jadvalga so'z yasovchi, shakl yasovchi, so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarni yozing.

T/r	So'z yasovchi	Shakl yasovchi	So'z o'zgartiruvchi

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari

1. Qadimgi turkiy adabiy tili nechanchi asrni o'z ichiga oladi?

A. X -XII asrni
B. XIII-XV asrni
S. XII-XIII asrni
D. X-XI asr

2. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili to'g'risi"dagi Qonuni nechanchi yilda qabul qilindi?
A. 1991-yil 21-sentabrda
B. 1989-yil 21-oktabrda
S. 1992-yil 20-sentabrda
D.1993-yil 24-oktabrda

3. "Lotin yozuviga asoslagan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Qonun nechanchi yilda qabul qilindi?
A.1989- yil 20-oktabrda
B.1991- yil 19-avgust
S.1991- yil 30 -avgust
D.1993- yil 2 -sentabr

4. "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash to'g'risi"da nechanchi yilda Vazirlar Mahkamasi qarori e'lon qilindi?
A.1995- yil 24- avgustda
B. 1993- yil 5-sentabr
S. 1991- yil 4- avgust
D. 1993- yil 24-sentabr

5. Qo'shimchalar tuzilishiga ko'ra necha xil bo'ladi?
A. 3 xil B. 4 xil S.2 xil D. 6 xil

SUHBAT

- Siz o'zbek tilini bilasizmi yoki endi o'rganyapsizmi?
- Men o'zbek tilini endi o'rganyapman.
- Siz darsdan tashqari qanday ishlar bilan shug'ullanasiz?

- Matnda uchragan yangi so'zlar ishtirokida gaplar tuzaman va yozaman. Qoidani takrorlayman, berilgan mashqlarni bajaraman.

- Siz matnni qanday o'zlashtirasiz?

- Men avval notanish so'zlarni yozib olaman, ularni rus tiliga lug'at yordamida tarjima qilaman, so'ngra matnni tushunib o'qishga harakat qilaman. Matnga savollar tuzaman va kitob yordamida so'zlab ko'raman.

SUHBAT

- Siz darslikdagi matnlarni lug'atsiz o'qiy olasizmi?
- Ha, lug'atsiz o'qiy olaman.
- O'qigan matnlaringizning mazmunini to'la tushunasizmi?
- Ha, to'la tushunaman.
- O'zbekcha ro'znomalarni-chi?
- Ularni ham lug'atsiz o'qib mazmunini tushunishga harakat qilaman.
- Siz o'zbek yozuvchilarining o'zbek tilida yozilgan asarlarini ham o'qib tursangiz kerak?
- Ha, men o'zbek tilida yozilgan kitoblarni o'qib turaman, ammo lug'at yordamida.
- Men ham o'zbek yozuvchilarning asarlarini o'zbek tilida o'qishga juda qiziqaman. Ammo mazmunini to'la tushunmayman.
- Siz o'zbek tilini qayerda o'rgandingiz?
- Men o'zbek tilini o'rta maktabda o'rganganman.
- Biz Toshkentga yaqinda ko'chib kelganmiz, bu yerda o'zbek tilini sakkizinchi sinfdan boshlab o'rgandim.
- Yaxshi, men sizga o'zbek tilini o'rganishga yordam beraman.
- Rahmat, men ham o'zbek tilini sizga o'xshab bilib olishga harakat qilaman.

SUHBAT

Kitob do'konida

- Biz o'zbek tili darsligini sotib olmoqchi edik.
- Marhamat. Sizga qanday darslik kerak, oliy o'quv yurtlari uchunmi yoki maktablar uchunmi?
- Yo'q, biz "O'zbek tilini mustaqil o'rganuvchi" qo'llanmasini sotib olmoqchi edik.
- Omadingiz bor ekan. Hozir ana shu qo'llanma bor. Marhamat!
- Marhamat qilib, bizga ikkita kitob bering. Qancha turadi?
- Har bir kitob olti yuz so'm turadi.
- Ruscha-o'zbekcha va o'zbekcha-ruscha lug'atlar bormi?
- Ha, mana lug'atlar. Yana so'zlashgichlar ham bor. Bular juda foydali kitobchalar. Sotuvda kam bo'ladi.
- Yaxshi eslatdingiz. Biz ularni albatta olamiz.
- Marhamat, kassaga pul to'lang.
- Tashakkur.

UCHINCHI DARS

MILLIY QADRIYATLAR – MILLAT IFTIXORI



Tayanch so'z va iboralar: madaniyat, urf-odat, xalq, mehmondo'stlik, millat.

Kishilik jamiyatining rivojlanishi kelajak avlodning kim bo'lib yetishishi, eng avvalo, ularning bilim saviyasi, madaniyati va salomatligiga bog'liqdir. Shuning uchun yosh avlod tarbiyasi hamisha diqqat markazida turishi lozim.

Har bir jamiyatning millatning xalqning urf-odatlari axloq va odob me'yorlari mavjud. Jamiyat a'zolarining ota-onalarining muallimlarning xalq oldidagi eng muhim burchlaridan biri milliy urf-odatlarini axloq va odob qoidalarini yosh avlodga singdirish va shu yo'l bilan kelajak avlodga yetkazib berishdir.

O'zbek xalqining ota-bobolarimizdan bizga meros bo'lib qolgan kattalarga hurmat bilan, yoshlarga mehr-shafqat, mehmondo'stlik, keksalarga joy berish, qo'l yuvmoqchi bo'lgan kishining qo'liga suv quyish, g'am-g'ussa tushgan xonadonga borib hol-ahvol so'rash singari noyob milliy urf-odatlar bor.

Tavallud topgan bolaning qulog'iga ota-bobolarimiz birinchi navbatda bir mulla chaqirib azon ayttirganlar. Azon aytilganda bolaning qulog'i ochilgan. Odamlarni eshtish, tinglash qobiliyati

shakllana boshlagan. Ismi ilk bor chaqaloqning o‘z qulog‘iga singdirilgan. So‘ng uning chillasi kichik chilla va katta chilla o‘tkaziladi. Kichik chilla yigirma kungacha bolaning onasi enagasidan bo‘lak yoniga chillalik bo‘lgani uchun hech kim kiritilmaydi. Katta chillasi qirq kun o‘tganidan keyin bolani beshikka belash marosimi bo‘lib o‘tadi.

Beshik bor joyda bola bo‘ladi. Bola bor joyda alla aytilishi tabiiy. Onalar qadimdan o‘z bolalari beshigi tepasida kechasi bo‘lsin alla aytib kelishgan. Allalarda xalq turmushining juda ko‘p qirralari o‘z in’ikosini topgan. Alla o‘z ohangi bilan bolaga ona nafasini yetkaib turadi. Go‘dakni xotirjam qiladi, elitadi, orom olib uxlashiga imkon beradi.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Milliy qadriyat deganda nimani tushunasiz?
2. O‘zbek milliy urf-odatlari deganda nimani tushunasiz?
3. Qanday o‘zbek milliy urf-odatlarini bilasiz?
4. Oilangizda, mahallangizda Navro‘zni qanday nishonlaysiz?
5. Navro‘z necha ming yillik tarixga ega?
6. Milliy qadriyatlarimizga qachondan e’tibor berila boshlandi?
7. Sumalak qanday tayyorlanishini bilasizmi?
8. Mehmondo‘stlik nima?
9. Mehmondo‘stlik qanday axloqiy fazilatlarni o‘zida mujassamlashtiradi?

Adabiy o‘qish

Navro‘z

Navro‘z (forschada – “yangi kun” ma’nosini anglatadi) Turkiston, O‘rta va Yaqin Sharqda yashovchi o‘zbek, ozarbayjon, tojik, hind, fors va boshqa xalqlarning qadimiy va an’anaviy yangi

yil bayrami. Quyosh hisobida yilning birinchi kuni bo'lib, bahorgi tun va kunning tengligiga, ya'ni, 21-22 -martga to'g'ri keladi. Tarixiy manbalarga qaraganda, Navro'zni bayram qilib o'tkazish Ahmoniylar davri (miloddan avvalgi VI-V asrlar)dan boshlangan. Keyinchalik, Navro'zda islom dinining ayrim marosimlarini ham o'tkazish odat tusiga kiritilgan. Qadimda Navro'z bayrami 6 kun davom etgan, dalalarga ko'chatlar ekilgan, ko'chalar tozalanib, hasharlar uyushtirilgan, xullas, hammayoq pokiza etilgan. Navro'zga atab yoshlar yangi kiyimlar kiyganlar. Bayram kunlari har xil shirinliklar, sumalak, turli ko'katlardan somsa, chuchvara kabi taomlar pishirilgan.

Navro'z kunlarida turli ommaviy o'yinlar, poyga musobaqalari, bog'larda sayllar, maydonlar, konsert zallari va teatrlarda san'atkorlar, shoirlar, yozuvchilarning chiqishlari bo'ladi, ota-onalardan, qarindosh-urug'lardan xabar olinadi, yoru birodarlarinikiga mehmonga boriladi. Navro'z kunlari gina-qudratlar unutilib, kishilar yaxshilikka intiladilar, yetim-yesirlarga va nogironlarga yordam berib, marhumlar qabrlarini ziyorat qilib, tartibga soladilar.

O'zbekistonda 1989-yildan Navro'zni keng nishonlashga e'tibor berildi. 1990-yildan boshlab, O'zbekiston hukumatining qaroriga binoan, 21-mart – Navro'z milliy xalq bayrami sifatida belgilanib, dam olish kuni deb e'lon qilindi.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar

1-topshiriq:

a) matnni o'qing, rus tiliga tarjima qiling;
b) O'zbekiston Milliy bog'i bayramda qanday bo'lishini ta'riflab bering.
c) tasvir asosida xalq sayli mavzusida ixcham bayon yozing.
d) Navro'z bayrami dasturini yozing.

2-topshiriq. Quyidagi hadislarni tahlil qiling va eslab qoling.

1. Nonni e'zozlang. 2. Avvalo onangga, yana onangga va yana onangga, so'ng otangga yaxshilik qil. 3. Barcha balo tildandir. 4. Bir-birlaringiz bilan salomlashib yuringlar. 5. Shunda o'rtalaringda mehru muhabbat uyg'onur. 6. Ayollarga erkaklar o'z tug'ishgan opa-singillari kabi munosabatda bo'lishlari kerak. 7.Uyiga mehmon qo'nmaydiganlar yomon odamlardir. 8. Chaqirilgan joygagina boring. 9. Garchi Xitoyda bo'lsa ham ilmga intilinglar, chunki ilm olishga harakat qilish har bir mo'minga farzdir. 10. Aroqdan saqlaninglar, chunki u barcha yomonliklarning kalitidir. 11. Pora beruvchi ham, uni oluvchi ham do'zaxga mahkumdir.

O'zbek tilida so'z yasalishi

Bilib oling: O'zbek tili lug'at tarkibidagi (shuningdek, nutqimizda qo'llanadigan) so'zlar dastlab tub va yasama so'zlarga bo'linadi. Masalan: paxta-tub so'z, paxtakor esa yasama so'z; bug'doy, rang so'zlari alohida-alohida olinganda tub so'zlar, ammo bug'doy rang (rangning bir turi)-yasama so'z; tog'-tub so'z, ammo tog'ma-tog' yasama so'z; besh, o'n tub so'zlar, o'n besh yasama so'z; qo'l, so'zlari alohida-alohida tub so'zlar sanalsa, qo'l qo'ydi yaxlit holda yasama so'z hisoblanadi.So'z yasovchi affiksi bo'lmagan so'zlar tub so'z deyiladi. Ma'lum bir so'z negizida ma'no jihatidan (ba'zan ham ma'no, ham grammatik jihatdan) undan farqlaydigan yangi so'z (yangi leksik birlik) hosil qilish so'z yasash deyiladi, qiyoslang: ish-ishchan, jon-jonlandi, oq-oqla, g'alla-g'allazor. Hozirgi o'zbek tilida so'z yasashning asosan ikki usuli ajratiladi: 1) affiksatsiya (yoki morfologik) usuli; 2) kompozisiya (yoki sintaktik) usuli; O'zakka so'z yasovchi qo'shimcha qo'shish orqali yangi leksik birlik hosil qilish affiksasiya usuli bilan so'z yasashdir. Masalan: mevali daraxt, serhosil yer kabi birikmalardagi mevali, serhosil yasama so'zlar bo'lib, ular meva o'zagiga-li, hosil o'zagiga ser-affikslarini qo'shish orqali yasalgan so'zlardir. Ikki va undan ortiq so'z formalarining (ko'pincha mustaqil so'zlarning qo'shilib (yoki

tizilib) bir so'zga aylanishi kompozisiya usuli bilan so'z yasashdir. Masalan: belbog', oshqazon, mehmondo'st, so'z boshi, bir yuz o'n, ahd qilmoq, bir oz va boshqalar. Juftlik modeli (qolipi) da qo'llangan ayrim so'zlar ham yasama so'z sanaladi, masalan: yildan-yilga, zo'r-bazo'r, uyma-uy kabi. O'zbek tilida so'zlar tuzilish jihatdan ham turlarga ajratiladi, chunonchi: sodda so'z, qo'shma so'z, juft so'z (takroriy so'z), murakkab so'z. Sodda so'z bitta o'zak morfemasi bo'lgan so'zdir. Masalan: bola, bolalik, bolalar, bolalarimiz kabi. Kunboqar, gultojixo'roz, Oqqo'rg'on, sohibjamol kabi so'zlar qo'shma so'z deyiladi. Bu kabi so'zlar ikki va undan ortiq so'z yoki so'z formalaridan tashkil topib, bir urg'uga birlashadi va bir tushunchani ifodalaydi. Tarkibi alohida-alohida yoziladigan leksik va grammatik ma'nolari ayrim holda ham, bir butunlik hosil qilgan holda ham izohlanishi mumkin bo'lgan so'zlar murakkab so'z deyiladi. Masalan: to'q sariq, och jigar rang, yigirma besh ming, borib keldi, sotib yubordi kabi. Nutqimizda qo'llanadigan opa-singil, non-pon, tog'-tosh, onda-sonda, tez-tez, xirmon-xirmon, chala-chulpa, o'n-o'n besh, suv-puv kabi so'zlar juft so'z deb yuritiladi.

Qo'shimchalar

Qo'shimchalar vazifasi va so'zga qo'shilib anglatadigan ma'nosiga ko'ra 2 turga bo'linadi.

1. So'z yasovchi qo'shimchalar.
2. So'z shaklini yasovchi qo'shimchalar.

Negiziga qo'shilib, (o'zakka ham) shu negizning ma'nosi bilan bog'langan, ammo yangi ikkinchi ma'nodagi so'z hosil qilishda ishtirok etadigan qo'shimcha so'z yasovchi qo'shimcha deyiladi.

So'z yasovchi qo'shimchalar ko'pincha bir turkumdagi so'zdan boshqa bir turkumdagi so'zdan boshqa bir turkumga kiradigan yangi so'z yasaydi. Masalan, yoz, qish-ot, yozgi, qishki-sifat; ish, qon, arra-ot, ko'k, yaxshi-sifat va boshqalar.

• Qo'shimchalar vazifasi va so'zga qo'shilib anglatadigan ma'nosiga ko'ra 3 turga bo'linadi:

• So'z yasovchi qo'shimchalar;

• So'z o'zgartuvchi qo'shimchalar;

• So'z shaklini yasovchi qo'shimchalar.

• Negizga qo'shilib (o'zakka ham), shu negizning ma'nosi bilan bog'langan, ammo yangi ikkinchi ma'nodagi so'z hosil qilishda ishtirok etadigan qo'shimcha **so'z yasovchi qo'shimcha** deyiladi.

So'zning nutqdagi boshqa so'zlarga munosabatiga aloqasini ifodalaydigan qo'shimcha so'z shaklini yasovchi qo'shimcha deyiladi. Ular gapda so'zlarni bir biriga bog'laydigan qo'shimchalardir. Masalan, kitobing, kitobni, kitobdan, o'qiganman kabi. Bu qo'shimchalar 3 turli bo'ladi.

1. Kelishik qo'shimchalari
2. Egalik qo'shimchalari
3. Shaxs-son qo'shimchalari

So'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar so'zning o'zgarib turadigan qismidir. Qo'shimchalar tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. Sodda qo'shimchalar
2. Murakkab qo'shimchalar

Sodda qo'shimchalar boshqa qo'shimchalarga ajralmaydi. Masalan, ishchi, aqlli, hayosiz. Murakkab qo'shimchalar kamida ikkita qo'shimchaning qo'shilishidan hosil bo'ladi. Masalan: dehqonchilik, odamgarchilik.

So'zlar morfologik tarkibiga ko'ra tub va yasama bo'ladi. Boshqa ma`noli qismga bo'linmaydigan bo'lak asos deyiladi. Asos mustaqil holda ham ma`no bildiradi. Qo'shimcha esa asosning ma`nosiga turli ma`nolar qo'shadigan ko'makchi qismdir. M.: paxta + zor + lar + ni, kon + chi + lar + dan, o't + la + moq, bosh + la + gan + lar + ga kabi.

Qo'shimchalar ma`no va vazifalariga ko'ra so'z yasovchi, so'z o'zgartuvchi va shakl yasovchilarga bo'linadi:

1. So‘z yasovchi qo‘shimcha yangi so‘z yasash uchun xizmat qiladi. M.: paxta + kor, ter + im, traktorchi, terrorist, aravakash, dorboz, choyxona.

2. So‘z o‘zgartuvchi qo‘shimchalar so‘zlarning sintaktik munosabatini ko‘rsatish uchun xizmat qiladi.

So‘z o‘zgartiuvchilarga turlovchi (otlardagi kelishik, egalik qo‘shimchalari), tuslovchi (fe’llardagi shaxs-son qo‘shimchalari) kiradi. M.: Vatan – im, qalam – ing, mashq – ni, maktab-dan, ayt – di, bora – man.

3. Shakl yasovchi qo‘shimchalar so‘zning ma‘nosini o‘zgartirmay, unga har xil qo‘shimcha ma‘nolar qo‘shadi: kul – ib, yur –gan, katta – roq, qush – cha, uy – lar, besh – inchi, ko‘r –gaz.

Shakl yasovchilarga fe’lning ravishdosh, sifatdosh shakllarini yasovchi qo‘shimchalar; fe’l nisbatlarini hosil qiluvchi –l (-il), -n (-in), -tir (-dir), -sh (-ish) kabi qo‘shimchalar; otlardagi ko‘plik, kichraytish, erkalash ma`nosini ifodalovchilar; sonlarning ma`no turlarini ko‘rsatuvchi qo‘shimchalar kiradi.

Grammatik mavzu yuzasidan topshiriqlar

1-**topshiriq:** Quyidagi so‘zlarni qo‘shimchalariga qarab 3 guruhga ajrating. So‘z yasash, so‘z o‘zgartuvchi, shakl yasovchi.

Gulchi, sovchi, o‘quv, do‘kondor, o‘qituvchimiz, zinadan, Shahloga, bellash, uycha, shodlik, qizaloq, aqlli, so‘zladi.

So‘zlar tuzilish jihatdan 3 turga bo‘linadi: sodda so‘z, qo‘shma so‘z va juft so‘z.

Birgina asosdan tashkil topgan so‘zlar sodda so‘z deyiladi: bola, go‘zal, ishchi, bormoq.

Sodda so‘zlarning o‘zi tub yoki yasama bo‘ladi.

Tarkibida yasovchi qo‘shimchalar bo‘lmagan so‘zlar tub so‘z deyiladi: kitoblar, baxt, paxtadan, havas, oshpaz.

2-Topshiriq: Quyidagi sodda so‘zlardan juft so‘zlar yasang.

Ota, past, katta, yomon, oq, kichik, yaxshi, ona, ozg’in, bola, qora, chaqa.

3-**Topshiriq:** Quyidagi sodda so'zlardan qo'shma so'zlar hosil qiling.

Oybolta, beshik tebratar, qorqiz, uchburchak, Sirdaryo, kinofilm.

4-**Topshiriq:** Quyidagi so'zlarni asos va qo'shimchalarga ajrating.

Guldon, sardor, yigitcha, sholipoya, sholikor, elak, bosmaxona.

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari

1. Navro'z so'zi qaysi tildan olingan?

A. Forscha
B. Lotincha
S. Xitoy tilidan
D. Turk tilidan

2.Nechanchi yildan boshlab O'zbekiston hukumatining qaroriga binoan 21-mart Navro'z milliy xalq bayrami sifatida belgilangan?

A. 1989- yilda
B. 1990 -yilda
S. 1991 -yilda
D. 1992 -yilda

3.Qo'shimchalar ma'no va vazifalariga ko'ra necha turga bo'linadi?

A.2 turga
B. 3 turga
S. 4 turga
D. 5 turga

4.Bir –birlaringiz bilan .....yuringlar. Nuqtalar o'rniga mos so'zi qo'llang.

A. xabarlashib
B. salomlashib

S. xafalashmay
D. arazlashmay

5.O‘zbek tilida so‘zlar tuzilishi jihatdan qanday turlarga ajratiladi?

A.Sodda so‘z
B.Qo‘shma so‘z , juft so‘z
S.Takror so‘z
D.Barcha javoblar to‘g‘ri

TO‘RTINCHI DARS

TARIX VA ZAMONAMIZ



Tayanch so‘z va iboralar: mustaqillik, siyosat, iqtisod, madaniyat, ijtimoiy, davlat bayrog‘i.

Mustaqillik – buyuk ne’mat

1991-yil 1-sentabr O‘zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni deb e’lon qilindi. Xalqimiz har yili bu kunni bayram sifatida keng nishonlaydi. Mustaqillik sharofati bilan mamlakatimiz siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy hayotida chuqur o‘zgarishlar sodir bo‘ldi.

1991-yil 18-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘i tasdiqlandi. Undagi moviy rang mangu osmon va obi-hayot ramzi, oq rang tinchlik ramzi, yashil rang tabiatning yangilanishi, davlat bayrog‘i rang tabiatning yangilanishi, 12 ta

yulduz quyosh yilnomamizga aloqador, navqiron yarim oy esa mustaqilligimiz ramzidir.

O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi 1992- yil 2-iyulda tasdiqlangan. Gerbimiz xalqimizning tinchlik, yaxshilik, baxt-saodat, farovonlik yo'lidagi orzu-umidlarini ifodalaydi.

Shuningdek, biz o'z milliy valyutamiz, o'z madhiyamizga ham ega bo'ldik. O'zbek tiliga esa Davlat tili maqomi berildi. Baxtimiz qomusi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992- yil 8- dekabrda qabul qilindi.

Mustaqillik davrida "O'zbekiston Qahramoni", "Sog'lom avlod uchun", "Mustaqillik", "Do'stlik", "Amir Temur" ordeni kabi qator unvonlar joriy qilindi.

Shuningdek, biz o'z milliy valyutamiz, o'z madhiyamizga ham ega bo'ldik. O'zbek tiliga esa Davlat tili maqomi berildi. Baxtimiz qomusi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992- yil 8- dekabrda qabul qilindi.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Yurtimizda Mustaqillik bayrami qachon nishonlanadi?
2. Mustaqillik yillarida yurtimizda qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat ramzlariga nimalar kiradi?
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i qachon tasdiqlangan?
5. O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbidagi Humo qushi haqida nimalarni bilasiz?
6. O'zbekiston Respublikasi Madhiyasining mualliflari kim?
7. Mustaqillik yillarida joriy qilingan qanday unvonlarni bilasiz?
8. O'zbekistonda qanday millat vakillari yashaydi?

Adabiy o‘qish

Mardlik va nomardlik haqida maqollar:

Adashganni yo‘lga solgan mard.

Aybiga iqror mard kishi,
Yashirmoq qo‘rqoq ishi.

Arslon bolasi arslon bo‘lur,
Sichqon bolasi –sichqon.

Arslon og‘zidan ov olinmas.

Asirlikdan o‘lim yaxshi.

Baxshining qadrini xalq bilar,
Xalqning qadrini mard bilar.

Do‘st kulfatda sinalar,
Mard kurashda.

Do‘stga zor qilma,
Nomardga-muhtoj.

Zolim ishi shafodir,
Mardning ishi vafodir.

Yigitga mardlik yarashar.

Mard bir yil och,
Nomard hamisha och.

Mard yiqilsa maydonda qolar.

Mard nomardga tiz cho'kmas.

Nomardga ishi tushmagan
Mardning qadrini bilmas.

Nomardga yalinma
Bir baloga chalinma.

Matn mavzusi bo'yicha topshiriqlar

1-topshiriq. Quyidagi so'z birikmalarini rus tiliga tarjima qiling.

Keng nishonlaydi, chuqur o'zgarishlar, tabiatning yangilanishi, navqiron yarim oy, mustaqillik ramzi, havo yo'llari, rivojlanish va taraqqiyot yo'li.

2-topshiriq. Quyidagi she'rlarni ifodali o'qing, yoqqanini yod oling.

O'zbekiston bayrog'i

Bayrog'ingdir moviy rang,
Samodan berar darak.
Oq rangida doimo,
Yaxshilikdir mushtarak.

Osmon to'la yulduzlar,
Bayrog'imizda belgi.
Oy istiqlol nishoni,
Mustaqilikka belgi.

Baxshida bo'lsin

Quyoshiston yurtimda yangra, mag'rur ovozim,
Yuksalaver istiqlol boshlab bergan parvozim.
Qadrimiz doston etdi baxtnomamiz kitobi,

Mustaqil aziz o'lkam, senga fido ixlosim.
Istiqbolning tonglari nurafshondir yo'limda,
O'z bayrog'im qo'limda, adlu iymon ustozim.
Ona yurt, farzandingman, buyur, farmoningdaman,
Zohidjon der, O'lkamga baxshida ehtirosim.

Z.Obidov.

Leksik qatlamlar, mutaxassislik atamalari

Bilib oling: Hozirgi o'zbek tilining lug'at tarkibi (so'z boyligi) o'zbek tilining butun tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan hodisadir. Undagi so'zlarning paydo bo'lish davri va kelib chiqish manbai ham har xildir. Umuman, har qanday til o'z lug'at tarkibi va grammatik qurilishiga ega bo'ladi. Lekin xalqlar o'rtasidagi uzoq tarixiy davrlar mobaynida davom etadigan iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalar bu xaqlarning tillariga ham shubhasiz, o'z ta'sirini ko'rsatadi. Natijada bir tilga xos fonetik, leksik va boshqa elementlar ikkinchi bir tilga o'tib o'zlashib ketadi. Bunday o'zaro ta'sir etish ayniqsa leksikada bo'ladi.

O'zbek xaqli ham o'z tarixining turli davrlarida boshqa xalqlar bilan iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqada bo'lgan va bu xalqlarning tili o'zbek tiliga ma'lum darajada o'z ta'sirini qoldirgan. Xususan, boshqa tillardan o'zbek tiliga ko'plab so'zlar o'zlashganini shu ta'sir bilan izohlash mumkin. Natijada o'zbek tili lug'at tarkibida shu tilning o'ziga xos leksik qatlam bilan birga o'zlashgan qatlam ham yuzaga kelgan.

O'z qatlamga o'zbek tilining o'ziniki bo'lgan, shuningdek, turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan so'zlar kiradi. O'zbek tili lug'at tarkibida turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan so'zlar kiradi. O'zbek tili lug'at tarkibida turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan so'zlar anchagina qismni tashkil etadi. Bunday so'zlar barcha so'z turkumida bor. Masalan: tosh, tog', yer, bosh, suv, til, kishi, bola, men, sen, biz, siz, bu, shu, qora, qizil, sariq, yaxshi, yomon, erta, indin, ilgari va boshqalar.

O‘zbek tilining bevosita o‘ziniki bo‘lgan asosiy leksik qismini shu tilning taraqqiyoti jarayonida uning ichki imkoniyatlari, o‘ziga xos qonun-qoidalari asosida hosil etilgan yasama so‘zlar tashkil etadi. Bunda uch holat kuzatiladi.

1) asli o‘zbekcha so‘zlardan shu tilga oid affikslar yordamida yasalgan so‘zlar: qatnashchi, terimchi, qotishma, qo‘llanma, turg‘un, bolalarcha kabi

2) o‘zlashma so‘zlardan o‘zbek tili vositalari yordamida hosil qilingan so‘zlar;

a) tojikcha so‘zlardan yasalgan so‘zlar: jangchi, mardlik, sabzavotchilik, do‘stlik, pulsiz, xastalanmoq; b) arabcha so‘zlardan yasalgan so‘zlar: rahbarlik, qimmatli, ovqatlanmoq; v) ruscha-baynalminal so‘zlardan yasalgan so‘zlar: sportchi, betonlamoq;

3)boshqa tillardan o‘tgan yasovchi vositalar yordamida o‘z va o‘zlashma so‘zlardan hosil qilingan so‘zlar: tilshunos, mehnatkash, kitobxon, vagonsoz, ilmiy.

O‘zlashgan qatlam

Forscha-tojikcha so‘zlar. Fors-tojik tilidan so‘zlar tovush o‘zgarishlarisiz olingan. So‘z o‘rtasi va oxirida qo‘sh undoshlar keladi, tarkibida no-,ba-,be-,ham kabi old qo‘shimchalari bo‘ladi. Masalan: andisha, barg, bahor, daraxt, farzand, daromad, ozoda, noma’lum, bedarvoza, hamkasb.

Arabcha so‘zlar. Arab tilidan o‘zlashgan so‘zlarning ko‘pchiligi fan va dinga oid bo‘lib, asosiy qismi fors tili orqali kirgan. Masalan: adabiyot, kitob, oila, davlat, mehnat, muqaddas, san’at, a’lo, mutolaa, doim, inshoot kabi.

Ruscha-boynalminal so‘zlar. Rus tili va u orqali g‘arb tillaridan o‘zlashgan so‘zlar fan-texnika, siyosiy-iqtisodiy sohalarga oid. Bu so‘zlar ikki usulda: aynan va kalkalab olish bilan o‘zlashgan. Bunday so‘zlar o‘rtasida undoshlar yonma-yon keladi, so‘z oxirida qo‘sh undoshlar, qorishiq tovushlar, old

qo'shimchalar ishlatiladi. Masalan: benzin, vokzal, stol, deputat, dialect, diagramma, budjet, sentabr, metal, interaktiv kabi.

3) Leksikologiya. Tilshunoslikning leksikologiya bo'limi **tilning lug'at tarkibini o'rganuvchi soha** hisoblanadi. Tilda mavjud bo'lgan barcha so'zlarning yig'indisi lug'at tarkibini tashkil etadi. Lug'at tarkibi shu tilda so'zlashuvchi xalqning ijtimoiy tarixi, moddiy va ma'naviy madaniyati tarixi bilan, qisqa qilib aytganda, lug'at tarkibi shu xalqning butun hayoti bilan to'la bog'langan bo'ladi.

So'z. So'z tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Tushunchalar esa so'zlar orqaligina moddiy xususiyat kasb etadi. So'z oddiy tushuncha nomini ifodalashdan tashqari, kishining anglatayotgan narsa yoki hodisaga nisbatan bo'lgan ijobiy yoxud salbiy munosabatini ham ifodalaydi. Bir tushunchani ifodalovchi bet, yuz, chehra, jamol, ruxsor, uzor, diydor, oraz, bashara, turq, aft, angor so'zlari o'zining ijobiy yoki salbiy ma'no qirralari bilan bir-biridan farqlanadi. Demak, so'z tovush yoki tovushlardan tashkil topib, biror ma'no bildiruvchi nutq birligidir.

Termin. Ilm-fan, adabiyot, san'at, texnika, qishloq xo'jaligi kabi sohalarga oid ma'lum tushunchani ifodalovchi so'z yoki so'z birikmasi termin deb yuritiladi. Terminlar asosan, bir tushuncha, bir ma'noni ifodalovchi so'z yoki so'z birikmasi termin deb yuritiladi.

Ibora. Ikki va undan ortiq so'zlardan tarkib topgan va umumiy bir ma'noni anglatadigan til birligiga ibora yoki frazeologizm deyiladi. Har bir tilning lug'at boyligini leksik birliklar so'zlar bilan bir qatorda iboralar ham tashkil etadi.

Grammatik mavzu bo'yicha topshiriqlar

1-topshiriq. Quyidagi so'z birikmalari bilan gap tuzing. **Muqaddas Vatan**, o'zga el, jannat bog'lar, tuprog'i bebaho, ta'zim qilaman, tarix hukmi, mangu muzliklar (Yuqorida berilgan matn va she'rlardan foydalanishingiz mumkin).

1- Topshiriq. Quyidagi tayanch so'z va iboralarning ma'nosini izohlang:

Zamin, mehr-muhabbat, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, urf-odatlar, el-yurt ravnaqi, shaxsiy manfaat, fidoyilik, madaniy meros, sadoqat, jasorat, xalq farovonligi, ilm-fan va madaniyat ravnaqi.

3-topshiriq. Tarixda o'z jasorati bilan nom qoldirgan qahramonlar haqida hikoya tuzing.

4-topshiriq. "Vatanparvarlik nima?" mavzusida esse yozing.

5-topshiriq. Davriy nashrlardagi maqolalar asosida fidoyiligi bilan tanilgan zamondoshlarimiz haqida ma'lumot tayyorlang.

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari

1. Nechanchi yilda O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i tasdiqlandi?

A.1991- yil 18-noyabr
B.1990 - yil 20-noyabr
S.1992- yil 2-iyul
D. 1993- yil 18- noyabr

2. O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi bechanchi yilda tasdiqlangan?

A.1991- yil 31- avgust
B.1995- yil 24- avgust
S.1996- yil 10- dekabr
D. 1992- yil 2-iyul

3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi nechanchi yilda qabul qilingan?

A.1992- yil 2- dekabr
B.1994- yil 10- dekabr
S.1992- yil 8- dekabr
D.1991- yil 5- dekabr

4. Ikki va undan ortiq so‘zlardan tarkib topgan va umumiy bir ma’noni anglatadigan til birligiga.....deyiladi.

A.Ibora

B. Tushuncha

S. So‘z

D.Maqol

5. Tarkibida ba-, be-, ham- kabi old qo‘shimchalar mavjud bo‘lgan so‘zlar qanday tildan o‘zlashgan hisoblanadi?

A.Ruscha-boynalminal

B.Arabcha

S.Fors-tojikcha

D.To‘g‘ri javob yo‘q

BESHINCHI DARS

ULUG‘ AJDODLARIMIZ





Tayanch so‘z va iboralar:
Yer xaritasi, quyosh soati, fan saroylari, diniy ilmlar

Matn: XORAZMIY

Abu Abdulla Muhammad Ibn Muso 780-yilda Xiva shahrida tug‘ilgan. U yoshligidan matematikaga juda berilgan va o‘zining bu qobiliyati bilan xalq o‘rtasida hurmatga sazovor bo‘lgan edi. U Sharqda mavjud bo‘lgan ilmiy asarlarni qunt bilan mutolaa qiladi. Matematika, astronomiya, geometriya, geografiya, meditsina va tarixni qunt bilan o‘rgandi. Xorazmiy arab, fors, hind va grek (yunon) tillarini ham o‘rganadi, bu tillarda yozilgan asarlarni mutolaa qilib, o‘z bilimini oshiradi.

Xorazmiy tomonidan bitilgan «Qisqargan Sindihind» kitobida astronomiya, matematikaga oid fikrlar bildirilgan.

Xorazmiy algebra fanining asoschisidir.

U birinchi bo'lib «Al-jabr va-l muqobala» degan asarini yozadi. Asar lotin va boshqa tillarga tarjima qilinib, butun dunyoga tanildi. Bu kitobning bir qismi hozirgi Aljabr (algebra)ga aylanib ketdi.

Muhammad Muso Xorazmiy butun dunyo olimlari tan olgan buyuk siymo edi. G'arbda al-Xorazmiyning lotinlashgan nomi «Al garitmus».

Xorazmiy Bog'dodga kelgandan so'ng, astronomik va geodezik kuzatishlarga rahbarlik qiladi. Bu yerda «Yangi astronomik tablitsalar» (Zij)ni yozadi. Asar 1126- yilda lotin tiliga tarjima qilingan.

Muhammad Muso Xorazmiy geografiya sohasida «Yer surati kitobi»ni yozadi.

Xorazmiy yerni 7 iqlimga bo'ladi, yer xaritasini chizadi. Olimning 4 tagina xaritasi bizgacha yetib kelgan (Yaqin va o'rta Sharq xalqlari, Azov dengizi va Nil daryosi xaritasi).

Xorazmiy sathlarni (yuza) o'lchash haqida astrolob (astrolabiya), quyosh soati to'g'risida va boshqa sohalarda ham ko'p asarlar yozgan. Lekin, olimning ko'p asarlarining arab tilida yozilgan asl nusxasi bizgacha yetib kelmagan. Uning asarlaridan faqat yevropa tillariga qilingan tarjimalarigina saqlanib qolgan.

Xorazmiy 847- yili vafot etgan.

Matn: IMOM AL-BUXORIY

Al-Buxoriy 810-yil 20-iyulda Buxoro shahrida tavallud topgan. Yoshligidayoq otasi vafot etib, onasining tarbiyasida qoladi. U o'n yoshidan boshlab o'z yurtidagi turli rivoyatchilardan eshitgan hadislarni, shuningdek, Abdulloh ibn al-Muborak va Vakiy kabi olimlarning hadis to'plamlarini mutolaa qilib yodlagan.

Imom al-Buxoriy hayotining ko'p qismi xorijiy ellarda, musofirchilikda o'tadi.

Imom al-Buxoriy avlodlarga boy va qimmatli ilmiy meros qoldirgan bo'lib, ularning soni 20 dan ortiq. Ularning ichida eng

mashhuri «Al jome' as-sahih». Uning yaratilganiga 1200 yil bo'ldi, o'shandan beri u islom ta'limotida Qur'ondan keyingi ikkinchi o'rinda turadi va muhim manba sifatida yuqori baholanib kelinmoqda.

Imom al-Buxoriy xorijdan qaytgach, o'z vatani Buxoroda ko'plab shogirdlariga hadis ilmidan saboq berish bilan mashg'ul bo'ladi. Lekin bir kuni Buxoro amiri Xolid ibn Ahmad az-Zuhaliy olimdan huzuriga kelib «Al-jome' as-sahih», «At-ta'vorix» kitoblarini o'qib berishini talab qiladi. Lekin al-Buxoriy bormaydi. Shunda amir shaharni tark etishini buyuradi. Shundan keyin al-Buxoriy Samarqandning Hartang qishlog'ida o'z shogirdlari va qarindosh -urug'larinikida yashaydi. Keyinchalik esa og'ir kasalga chalinib, 870- yil 1- sentabrda 60 yoshida vafot etadi va shu yerda dafn qilinadi.

ULUG'BEK

Muhammad Tarag'ay Ulug'bek 1394-yilning 22-martida tug'iladi. U yoshlik vaqtlaridayoq bobosi Amir Temur bilan juda ko'p yurishlarda qatnashadi, ko'p mamlakat va shaharlarni ko'radi, Temur vafotidan keyin hokimiyat Ulug'bekning otasi Shohruh qo'liga o'tadi. Shohruh Xurosonda o'zi hukmronlik qilib, Movarounnahrni o'g'li Ulug'bekka topshiradi. Bu vaqtda Ulug'bek 15 yoshda edi.

Ulug'bek 1417-1420 - yillar mobaynida ajoyib madrasa qurdiradi. Bu madrasa tarixda Ulug'bek nomi bilan yuritiladi. U keyinchalik Samarqandda rasadxona (observatoriya) ham qurdiradi.

O'rta asr fanining rivojida ulug' astronom Ulug'bekning xizmati katta. Ulug'bek yaratgan ilmiy ishlarning eng yirigi uning yulduz va sayyoralar harakatiga bag'ishlangan «Astronomik jadval»i hisoblanadi.

Ulug'bek yulduzlari haqidagi asari 1665- yili Oksfordda, 1853- yili Parijda, 1917- yili Amerikada, 1943- yili Londonda tarjima qilinadi va bosilib chiqadi.

Buyuk olim Ulug'bek 1449-yili qatl ettiriladi. Qora guruhlar tomonidan buyuk olim Ulug'bek o'ldirilsa-da, uning nomi, o'lmas ishlari butun dunyoda abadiy yashaydi.

ABU ALI IBN SINO

Sharqning buyuk allomasi Abu Ali Ibn Sino 980- yilda Buxoro yaqinidagi Afshona (hozirgi Vopkent tumaniga qarashli) qishlog'ida tug'ilgan.

Ibn Sino iste'dodli, xotirasi o'tkir bo'lgan. 10 yoshidayoq Qur'oni Karimni yod olgan. O'sha vaqtda diniy ilmlar keng targ'ib qilinib, dunyoviy ilmlar bilan shug'ullanish gunoh hisoblanar edi. Shunday vaziyatda ham ilm o'rganishdan tolmaydi. 10-13 yoshlaridan boshlab matematika, mantiq, falsafa ilmlarini mukammal egallay boshlagan.

18 yoshga kirganda esa tibbiyot sohasida yetuk mutaxassis tabib-haqim bo'lib tanildi. U samoniylarning amiri Nuh ibn Mansurni davolaydi. Evaziga saroy kutubxonasidagi noyob kitoblarni o'qish uchun ruxsat oladi. Natijada u mashhur ensiklopedist olim, huquqshunos, shoir, faylasuf va dunyoga taniqli hakim bo'lib yetishgan. U turli mavzularga oid bo'lgan 280 dan ortiq asar yaratdi. Shulardan 40 tasi tibbiyotga oid. "Tib qonunlari" kitobi hozirgacha tibbiyot xodimlari uchun katta manbadir.

Sharqda uni "Shayx-ul-rais", G'arbda esa Avitsena deyishadi.

Ibn Sino 1037- yil 18- iyunda Isfaxon shahrida 57 yoshida vafot etgan.

Xalqimiz hali-hanuz Ibn Sino qoldirgan tibbiyotga oid davolardan foydalanmoqda.

ALISHER NAVOIY

Alisher Navoiy 1441- yil 9- fevralda Hirot shahrida tug'ilgan. Uning otasi bilimli, ziyrak kishi edi. Shuning uchun o'g'lining yaxshi bilim olishiga alohida e'tibor berdi. Zehni o'tkir

Alisher 4-5 yoshidayoq o'qish, yozishni o'rgandi. Adabiyot va san'atga havas qo'ydi, husnixatni egalladi.

Kichkina Alisher mashhur fors, tojik shoirlarining asarlarini zavq bilan o'qib, ulardan g'oyat ta'sirlandi. Ko'p o'tmay, o'z she'rlari bilan ham tanila boshladi.

Alisherning maktabdoshi Husayn Boyqaro taxtga chiqqach, uni o'ziga vazir qilib oladi. Bu davrda soliqlarning og'irligi hamda feodal zulmi kuchayganligi sababli, zolimlarga qarshi xalq qo'zg'alonlari bo'lib turar edi. Bunday vaqtlarda Alisher Navoiy mazlumlar manfaatini himoya qildi. O'z asarlari esa odamlarni yaxshi fazilatli, adolatli bo'lishga undadi, jabr-jafo va zulmni qoraladi. Bu olijanob ishlari bilan Navoiy xalq o'rtasida katta hurmat va obro' qozondi.

Navoiy fors tilida ham yaxshi she'rlar yaratgan.

Shoirning eng yirik asarlari "Xazoyin ul-maoniy" deb atalgan. She'riy to'plami va beshta dostondan iborat "Xamsa" ("Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab'ayi sayyor", "Saddi Iskandariy") dir.

Ulug' Navoiyning boy ijodiy merosi haqiqiy xalq mulkiga aylandi. Uning asarlari bir qancha tillarga tarjima qilindi, ko'p nusxada nashr etildi.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Mustaqil O'zbekistonning Birinchi Prezidenti kim?
2. O'zbekiston Prezisenti Sh.Mirziyoyevning qanday asarlarini bilasiz?
3. Sh.Mirziyoyev asarlarining mazmun-mohiyati nimalardan iborat?
4. Jahon sivilizatsiyasiga munosib hissa qo'shgan o'zbek allomalaridan kimlarni bilasiz?
5. Jahonga mashhur taniqli iqtisodchilardan kimlarni bilasiz?
6. Algebra, tibbiyot, so'zlarining shakllanish tarixi haqida nimalar bilasiz?

7. Beruniyning qanday asarlarini bilasiz?

8. Beruniyning jahon madaniyatiga qo'shgan hissasi nimalardan iborat?

9. Beruniyning iqtisodiy ixtirosi haqida nimalar bilasiz?

10.Xorazmiyning yer xaritasini chizganligi bo'yicha nimalarni o'rgandingiz?

11.Xorazmiy asarlari bo'yicha nimani o'rgandingiz?

12.Imom al-Buxoriyning ilmiy merosi haqida nimalarni o'rgandingiz?

13.Ulug'bek astronom sifatida qanday ishlarni amalga oshirgan?

14.I.Sinoning turli mavzularga oid bo'lgan asarlari haqida fikr yuriting.

15.A.Navoiy qaysi tillarda ijod qilgan?

16.A.Navoiyning eng yirik asarlari haqida fikr yuriting.

Adabiy o'qish

Mirzo Ulug'bek

Samarqandda mutassil qirq yil hukmronlik qilgan Ulug'bek zamonida talaygina yangi binolar qad ko'tardi. Ammo bobosi asosan masjid, maqbaralar qurdirgan bo'lsa, Ulug'bek fan saroylarini qurdirish bilan shuhrat topdi. U harbiy shon-shavkat ketidan quvmadi. Ulug'bekni ko'proq matematika va astronomiya qiziqtirardi. Bu fanlar sohasida u beqiyos yuksaklikka ko'tarildi, osmon sayyoralari harakatini sharhladi va astronomik jadval yaratib, butun jahonga dong taratdi. O'zi kabi fanga sodiq do'stlari bilan birgalikda osmon sayyoralarini kuzatadigan asboblar yaratdi. Kishilarda ilm-u ma'rifatga muhabbat uyg'otishga intildi. Qo'l ostidagi shaharlarda maktab va madrasalar qurdirdi.

Topshiriq. Hikmatlarni o'qing va mazmunini tushuntiring.

Odamlar o'rgangan, odatlangan va ko'pchilikka ma'qul bo'lgan narsaga ko'r-ko'rona qarshilik ko'rsatma.

Tenglik hukm surgan joyda sotqin, aldamchi ehtiroslar, g'am-g'ussa bo'lmaydi.

Bilim - qaytarish va takrorlash mevasidir.

Bilmaganligimiz sababli bilgan narsalarimizni aytmay qo'yishimiz ham yaxshi emas.

Har bir insonning qadr-qiymati o'z ishini qoyil qilib bajarishida.

Yer dumaloq bo'lmaganda, odamlar yashaydigan joylar kengligi jug'rofiy mintaqalarga ajralmas edi, yozu qishda kecha bilan kunduz uzunligi o'zgarmas edi, yoritgichlarning ufqqa nisbatan vaziyatlari va sutkali yo'llari hozirgidek ko'rinishda bo'lmas edi.

Delfin - dengiz hayvoni bo'lib, damlangan teriga o'xshaydi. U odamni sevadi, kemalarni kuzatadi, g'arq bo'lganlarni o'lik-tirikligidan qat'i nazar qutqaradi.

Inson hayotidagi zarurat, ehtiyojlar ularning ilmlarga bo'lgan talablarini keltirib chiqaradi. Shu ehtiyojlarga ko'ra ilmlar har xil tarmoqlarga bo'lindi.

BOBUR VA KABUTARLAR

Qadimda Andijon degan mamlakatda Umarshayx degan podsho bo'lib, uning aql-farosatda yagona bo'lgan Bobur mirzo ismli o'g'li bor edi. Bir kun Umarshayx kitob o'qib o'tirgan edi, yasovulboshi qo'l-oyog'i bog'langan yigit va qizni sudrab olib kirdi. Podsho yasovulboshidan ularning gunohi nimaligini so'rabdi. Yasovulboshi: "Bu yaramaslar sizning kabutarlaringizni o'zlariga o'rgatib olmoqchi bo'ldilar, ularning gunohi - shu",- debdi. Kabutarlarning ashaddiy ishqibozi bo'lgan podsho boshini kitobdan ko'tarmasdan: "Unday bo'lsa ularning boshini olib ...",- deganda uni qattiq yutal tutib qolib, gapini tugata olmabdi. Podshoning oldida qo'l qovushtirib turgan vazir yasavulboshiga qarab, anavilarni yo'qot degandek ishora qilibdi. Yasavulboshi

yigit bilan qizni turtib-turtib tashqariga olib chiqib ketibdi. Bu paytda podshoning o'g'li Bobur bir chetda nimanidir yozib o'tirgan ekan. U jallod yigit-qizni boshini olish uchun olib ketayotganini sezib, yasavulboshining orqasidsan chiqibdi. Yigit bilan qiz: "Bizning hech bir gunohimiz yo'q. biz hazrati oliylarining kabutarlari osmonda uchrayotganini ko'rib, ularning o'yinini tomosha qildik, xolos. Nahotki kabutarlar o'yinini tomosha qilish gunoh bo'lsa?" –deya yalinib –yolvorishsa-da, jallodlar ularning boshini kundaga qo'yibdilar. Shunda ular bilan izma-iz kelayotgan Bobur Mirzo yasavulboshi va jallodlarga qarab: "To'xtanglar, bularni o'ldirmanglar, otam axir ularning boshini olinglar, demadilar-ku", -debdi. Yasavulboshi esa: "Xo'sh, unda otangiz nima demoqchi edilar, shahzodam?"-debdi. Bobur Mirzo esa : "Oliy hazrat ular boshlarini olib bu yurtdan chiqb ketishsin, demoqchi edilar, gaplarimga shubha qilsangiz, o'zlaridan so'rashingiz mumkin",-debdi.

Yasavulboshi podshoning azranda o'g'li bilan tortishib o'tiramanmi, debdi-da, podshoning oldiga kirib, bo'lgan voqeani so'zlabdi.

Podsho o'g'lini chaqirib, undan nima uchun gunohkorlarni himoya qilganligini so'rabdi. Bobur Mirzo shunday javob beribdi: "Men ularning birortasini ham tanimayman. Demak, ularni taniganim uchun himoya qilayotganim yo'q. Men olampanohning so'zlari, aksincha, bo'lishini hecham istamayman. Men faqat: "Padari buzrukvor kabutarlar o'yinini tomosha qilayotganlar bu yurtdan boshini olib chiqib ketsin demoqchi edilar, lekin yo'tallari tutib, gaplarini oxiriga yetkaza olmadilar, dedim xolos". -debdi.

Shunda Umarshayx o'zining o'rniga podsho bo'ladigan o'g'lini qo'llab-quvvatlash uchun: "Mirzo haq gapni aytibdi. Men haqiqatan ham, ularning boshini tanidan judo qilinglar demoqchi emas edim",-debdi.

Shunday qilib, yigit bilan qiz Bobur Mirzoning aql-farosati tufayli omon qolgan ekan.

Atamalar va ularning vujudga kelishi

Bilib oling: Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, ma'lum fan, ishlab chiqarish sohasidagina qo'llaniladigan va asosan o'sha soha kishilari tushunadigan maxsus so'zlar terminlar – atamalar sifatida qaraladi.

Atamalarning shakllanishi ham xalqning tarixi qadar qadimiydir. To'nyuquq, Kultegin, Bilga hoqon singari bitiktoshlarda xalqimiz mashg'ul bo'lgan hunarlarga oid atamalarni uchratamiz. Ular xalq tomonidan yaratilgan afsonalarda, qahramonlik qo'shiqlarida ham mavjud bo'lgan.

Ularni mujassam qilgan Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asari ularning bizgacha yetib kelishida katta tarixiy vazifani bajargan.

Atamalarning dastlab ikki katta guruhga ajratish to'g'ri bo'ladi:

1. Umumiylik xususiyatiga ega bo'lgan atamalar.
2. Hususiylik xususiyatiga ega bo'lgan atamalar.

Umumiy atamalar sirasiga bir terminologik tizimning barcha yo'nalishlari uchun tushunarli bo'lgan atamalar kiradi. Masalan, sportdagi *musobaqa, sovrin, sovrindor, yutuq, g'alaba, birinchilik, chempionat, ko'rik, trener, hakam* atamalarini sportning barcha turlarida bemalol qo'llash mumkin. Fizikaga oid *issiqlik, temperature, jism, elektr, magnit, gaz, harakat, energiya, maydon* singari atamalar haqida ham shu gaplarni aytish mumkin.

E'tirof etish kerakki, o'zbek tilida chetdan qabul qilingan ilmiy-texnikaviy atamalarning salmog'i katta. An'anaga ko'ra ularni quyidagi yo'nalishlarda o'rganamiz:

1. Arabcha: amaliyot, asar, asos, izoh, ilm, in'ikos, ilova, isloh, istiloh, islohot, maqola, misol, masala, maxraj, manfiy, musbat, mavzu, mazmun, mantiq, ma'naviy, ma'rifiy, muqaddima, mushohada, tajriba, taqriz, tahlil, uslub, fan, falsafa va hokazo.

2. Forscha-tojikcha: bastakor, duradgor, zabtkor, navosoz, navoxon, shogird, peshqadam, sovrin, sozanda, ustoz, chavandoz, yakkaxon, havaskor, hamshira kabi.

3. Ruscha-baynalmilal: abzats, agronomiya, agrotexnika, arxeologiya, gazeta, kodeks, lingvistika, matematika, nekrolog, plenum, realism, romantiam, sessiya, syezd, fizika, fonetika, fonologiya va hokazolar. Ularning ma'lum qismlari:

1. Lotincha: abbreviatsiya, abstrakt ot, agglyutinatsiya, adverbializatsiya, adyektivatsiya, aktualizatsiya, aksentologiya, alliteratsiya, areal, artikulyatsiya, assimilyatsiya, affiks, affiksoid, affrikata kabi.

2. Yunoncha: allegoriya, allomorph, allofon, alfavit, amorf tillar, analitik tillar, analogiya, anomaliya, antiteza, antonym, antroponim, apokopa, arxaizm, aforizm singari.

Atamalar bilan ishlash uchun grammatik mavzu bo'yicha topshiriqlar

O'QUV TOPSHIRIQLARI

1-topshiriq. Atamalar raqamini ularning ta'rifi bilan juftlang.

1	Kod	A	Aholi turli guruhlarining ijtimoiy va lisoniy aloqalari jarayonida shakllangan dialektlararo og'zaki muloqot vositasi hisoblanib, turli hududiy dialektlar xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan qurama til.
2	Ijtimoiy-kommunikativ tizim	B	Biron ijtimoiy guruh tomonidan boshqalar uchun atayin tushunarsiz qilib qo'llaniladigan u yoki bu darajadagi yashirin, yasama til.
3	Sotsiolekt	D	Biron ijtimoiy guruh vakillarining o'z nutqi bilan ko'pchilikdan ajralib turish maqsadida, o'zicha mazmun

			berib ishlatadigan so‘z va iboralari.
4	Koyne	E	Muayyan kasb egalari yoki ijtimoiy guruhlarning og‘zaki nutqida qo‘llaniladigan, emotsional-ekspressiv bo‘yoqqa ega bo‘lgan so‘z va iboralar. Jonli, harakatdagi til shakli bo‘lib, u mamlakat va jamiyat hayotidagi har qanday o‘zgarishdan ta’sirlanadi.
5	Jargon	F	Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan. Bir til yoki bir necha til yordamida kundalik hayotda bir-birlari va turli ijtimoiy institutlar bilan o‘zaro muloqotga kirishuvchi insonlar majmui.
6	Hududiy dialekt	H	Umumxalq tilining ishlangan, sayqal berilgan, grammatik qonun-qoidalarga rioya qilinadigan, ma’lum me’yorga solingan, umummajburiy va qonuniy to‘g‘ri qo‘llanadigan, xalqning turli madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi tildir.
7	Argo	G	Hududiy chegaralanganligi, qo‘llanish doirasining cheklanganligi, boshqa dialektlar va adabiy tilga qarshi qo‘yilishi bilan xarakterlanadigan til shakli. Har bir hududiy dialekt u yoki bu darajada o‘ziga xos fonetik, leksik, grammatik va so‘z yasovchi farqlarga ega bo‘lgan tizimli til shaklini namoyon qiladi.
8	Sleg	J	Umumiy ijtimoiy xususiyatlariga ko‘ra birlashgan ayrim guruhlarning lisoniy ehtiyojlarini qondirish uchun nutq amaliyotida ishlab chiqilgan til

			shakli.
9	Adabiy til (standart)	K	Muloqot vositasi bo'lib, u tabiiy tillar (O'zbek, rus, tojik, qirg'iz va boshqa) hamda sun'iy tillar: esperanto yoki zamonaviy mashina tillari, morze alifbosi, turli signallar va boshqalarni o'z ichiga oladi. Tilshunoslikda kod deganda lisoniy shakllar: til, hududiy yoki ijtimoiy dialekt, shahar koynesi tushuniladi.
10	Lisoniy hamjamiyat	L	Muayyan lisoniy hamjamiyatda qo'llaniladigan, funksional bir-birini to'ldiradigan, o'zaro aloqada bo'lgan kodlar yoki subkodlar majmui

Topshiriq javobi: 1–K; 2–L; 3–J; 4–A; 5–D; 6–G; 7–V; 8–E; 9–N; 10F

2-topshiriq. **Quyidagi tayanch so'z va iboralarning ma'nosini izohlang.**

Tavallud, ilmiy markaz, ilmiy ishlar, astronomiya, darslik, qo'llanma, dunyo, mashhur, risola, qo'lyozma, kutubxona, lotin tili, olim, noshir, jadval, munajjimlik.

3-topshiriq **Quyida berilgan so'zlarni tartib bilan joylashtiring.**

1. Buvimlarnikiga, kuzda, boraman, dadam bilan, har yili, qishloqqa, men. 2.Tushadi, mushuk, tomdan, oyog'i bilan, tashlasang ham.

3. Osmonda, chaqnay boshladi, yulduzlar, birin-ketin, qoramtir.

4. Kuni, shanbalik, yordam berdi, Anvar, kutubxonachisiga, fakultet.

5. Mablag', uchun, xomashyo, olinmadi sotib, yoqilg'i.
6. Tushgan, maysalar, shudring, bo'ldi, uchun, ho'l.

4-topshiriq. Algebra va meditsina so'zlarining kelib chiqish tarixi haqida kursdoshingiz bilan dialogga kirishing.

Suhbat

-Bugun nechanchi sana? - Bugun o'n sakkizinchi oktabr.
- Hozir soat nechi? - Hozir soat to'qqiz yarim
-Bugun dars soat nechada tugaydi? - Bugun dars soat ikkida tugaydi.
- O'yingohga qachon borasan? - O'yingohga soat to'rtda boraman.
-Musobaqa necha soat davom etadi? - Musobaqa bir yarim soat davom etadi.
- Uyga qachon qaytasan? - Uyga soat yettida qaytaman.

Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar

1-topshiriq. Jahon sivilizatsiyasiga katta hissa qo'shgan o'zbek allomalari haqida taqdimot tayyorlang.

2-topshiriq. Jahon iqtisodiyoti rivojlanishiga katta hissa qo'shgan taniqli iqtisodchilar haqida taqdimot tayyorlang.

3-topshiriq. "Iqtisodiyotimiz fidoyilari" mavzusida insho yozing.

4-topshiriq. Buyuk allomalarimizdan birining asarlari ro'yxatini tuzing.

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari

1. Ibn Sino turli mavzularga oid bo'lgan nechtadan ortiq asar yaratgan?

A. 260 ta
B. 280 ta
S. 240 ta
D. 250 ta

2. Ulug'bek yulduzlari haqidagi asari nechanchi yilda Amerikada tarjima qilinadi?
A.1917 -yilda
B.1920 -yilda
S. 1921- yilda
D. 1924 -yilda

3. Ibn Sino yaratgan asarlarning nechtasi tibbiyotga oid?
A. 20 tasi
B. 50 tasi
S. 40 tasi
D. 60 tasi

4. Imom al-Buxory Buxoriy qoldirgan ilmiy merosi soni qancha?
A.20 dan ortiq
B.40 dan ortiq
S.30 dan ortiq
D.50 dan ortiq

5. Buyuk olim Ulug'bek nechanchi yilda vafot etadi?
A.1446- yilda
B.1447- yilda
S.1448- yilda
D.1449- yilda

OLTINCHI DARS

VATAN VA VATANPARVARLIK



Tayanch so'z va iboralar: Vatan, mehr, farovonlik, davlat bayrog'i, o'zbek xalqi, muqaddas sajdagoh.

Vatanparvarlik haqida so'z yuritishdan avval Vatan tushunchasiga izoh berish maqsadga muvofiq. Vatan aslida arabcha so'z bo'lib, ona yurt ma'nosini anglatadi, shu ma'noda olib qaraydigan bo'lsak, O'zbekiston – o'zbek xalqining vatani, muqaddas sajdagohidir.

Vatan – bu inson va uning avlod-ajdodlari kindik qoni to'kilgan muqaddas dargohdir. Vatan – bu ajdodlar maskani, el-yurt, xalq voyaga yetgan, uning tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlari, qadriyatlari chinakamiga shakllanib, o'sib, kamol topib boradigan zamindir.

Vatan deganda, hamisha o'zimiz tug'ilib o'sgan, ko'z ochib ko'rgan, ta'lim-tarbiya olib voyaga yetgan, necha-necha avlodu

ajdodlarimiz yashab o'tgan, ularning aql-idroki, mehnati sarf qilingan yurt ko'z oldimizga keladi.

Vatan bu - xalqning o'tmishi, buguni va kelajagidir. Vatan – muqaddas qadriyat. Taraqqiyot vatandan boshlanadi. U insonning kindik qoni to'kilgan joy, insonni ijtimoiy yetimlikdan asrovchi manzil, ma'naviy kamolot va fuqarolik maydoni, hayot maktabi, farovonlik va baxt-saodat o'chog'idir.

Inson uchun vatan yagonadir. Vatanning katta-kichigi ham, boy-kambag'ali ham bo'lmaydi. Vatan tanlanmaydi. Vatan bizning molimiz emas. Shuning uchun ham u pulga sotilmaydi va sotib olinmaydi. Vatan in'om etilmaydi, qarzga berilmaydi.

Vatan mehrini, vatan sehrini, uning mo'tabarligi-yu ulug'vorligini so'z bilan ifodalash qiyin. Har bir barkamol inson vatan kamoloti va istiqboli, el-yurtining ozodligi va mustaqilligi uchun hamma narsani, hatto, shirin jonini ham ayamaydi. Bu haqda mavlono Fuzuliyning, mening bitta hayotim bor, bordiyu, mingta hayotga ega bo'lgan taqdirimda ham hammasini vatan uchun sarflagan bo'lur edim, deb aytgan so'zlari har birimiz uchun bebaho o'gitdir. Inson uchun na davlat va saltanat, na toju taxt, hech bir narsa Vatanga, el-yurt mehriga teng kelolmaydi. Vatandan judolik – inson uchun katta baxtsizlikdir. Inson istagan joyda bir parcha nonga qornini to'yg'azishi mumkin. Lekin Vatanning o'rnini hech narsa bosolmaydi. Mustaqillik tufayli biz o'zimizning haqiqiy vatanimizni topdik. Bu mustaqillikning bizga bergan eng oliy ne'matidir. Vatani mustaqil xalqning o'zi ham mustaqil bo'ladi. Yurti ozod va erkin odamning erki o'z qo'lida bo'ladi.

Vatanparvarlik haqida so'zlar ekanmiz, mustaqillik bizga in'om etgan vatanparvarlikning oliy ramzlari haqida so'zlamasdan iloj yo'q. Vatanparvarlikning oliy ramzlari xalqimiz, yoshlarimiz qalbidan mustahkam o'rin olayotganligi nihoyatda quvonchlidir. O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nyu-Yorkdagi qarorgohi oldida 180 tadan ortiq mustaqil davlatlar bayroqlari qatorida

mag'rur hilpirab turishini ko'rish va his etish naqadar katta baxt, insonni naqadar kuchli bir hissiyotga chulg'ab oladi.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Vatan tushunchasiga ta'rif bering.
2. Vatanparvarlik haqida fikr yuriting.
3. Vatanparvarlikning oliy ramzlari tushunchasiga ta'rif bering.

Adabiy o'qish

O'zbekiston – Vatanim manim

Har bir insonning Vatani bor. Mening Vatanim esa – go'zal O'zbekiston. O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlaridan biri bo'lib, O'rta Osiyoda joylashgan. Shaharlari betakror, dalalari bepoyon, ahli mehnatkash va inoq, tarixiy yodgorliklari, nodir merosi boy mamlakat o'z mustaqilligiga 1991- yil 1- sentabrda erishgan.

Ona diyorimizda yuzdan ortiq millat vakillari yashaydilar. O'zbekistonning asosiy milliy boyligi paxta. Xalqimiz uni oq oltin deyishadi.

O'zbekiston hududida joylashgan noyob Toshkent, ko'hna Buxoro, Samarqand, Xiva, Termiz kabi shaharlar o'ziga xos bo'lgan chiroy va betakrorligi bilan minglab mehmonlarni bu yerga tortadi. Shaharlar turistlar diqqatini hayratga solib, bu naqadar ajoyib Vatan ekanligini yanada isbotlaydi.

O'lkamiz obod qishloqlarida mehnatsevar xalq yashaydi. Mehnat va kuchini ayamay Vatanga o'z hissasini qo'shadi.

Vatanimizda turli zavodlar, fabrikalar, katta va kichik korxonalar, bolalar bog'chalari, o'yingohlar, maktablar, oliy o'quv yurtlar, savdo do'konlari, bog'lar ko'p.

O'zbekiston Respublikasi poytaxti – Toshkent shahri. Bu Vatanimizning buyuk ma'muriy, madaniy va moliyaviy markazidir.

Osmoni keng, beg'ubor O'zbekiston men uchun eng ulug' va muqaddas Vatan, chunki men bu yerda tug'ilib ulg'aydim. Chunki bu Vatanda tinchlik va totuvlik garovi bor va nihoyat, bu yerda bizdan keyin yayrab yuradigan avlodlarimiz yashaydi.

Iftixorimsan, g'ururimsan maskanim manim, O'zbekiston Vatanim manim!

VATAN

Agar do'stlar erur sodiq bir-birin qiyratib bo'lmas,
Agar qilg'il necha fitna alarni ayratib bo'lmas.
Demishlar: moru qushni bir qafasda asratib bo'lmas,
Vatandan ayri ko'ngilni bilingki, yayratib bo'lmas.
Baayni bandi bulbulni chamansiz sayratib bo'lmas.

Vatan deb men bayon qildim, ayo do'stlar, muxammasni,
Vatanni kim ulug' bildi, aziz bildim men ul kasni.
Vatan deb jo'sh urar ersa ko'targum boshima xasni,
Vatandan ayri ko'ngilni bilingki, yayratib bo'lmas.
Baayni bandi bulbulni chamansiz sayratib bo'lmas.

Nadomat birla boqg'ayman vatansizlarga har doim,
Egib boshini zor yig'lar, agarchi davlati qoyim,
Faqir bo'lsam-da bor yurtim - toju taxtim, borar joyim.
Vatandan ayri ko'ngilni bilingki, yayratib bo'lmas.
Baayni bandi bulbulni chamansiz sayratib bo'lmas.

Bobolar kechmishin hargiz faromush aylamang, do'stlar,
Haqiqat tongi otganda ani tush aylamang, do'stlar,
Agar kim e'tiqodsizdur, ani xush aylamang, do'stlar,
Vatandan ayri ko'ngilni bilingki, yayratib bo'lmas.
Baayni bandi bulbulni chamansiz sayratib bo'lmas.

Diyorim O'zbekistondur, ki andin iftixorim bor,
Demakkim, hur adolatlig', davlati barqarorim bor,

Onamdek mehribon, munis Vatan bor, g'amguzorim bor,
Vatandan ayri ko'ngilni bilingki, yayratib bo'lmas.
Baayni bandi bulbulni chamansiz sayratib bo'lmas.

Vatan, sen hur, yo'ling shonli, qadamni tashlagin shaxdam,
Faxr-la boqqay Abdullo, ko'zida shodligidan nam
Panohingni tilab Haqdin dilida iltijo har dam,
Vatandan ayri ko'ngilni bilingki, yayratib bo'lmas.
Baayni bandi bulbulni chamansiz sayratib bo'lmas.

Abdulla Oripov

1-topshiriq. Ushbu maqollardan gaplar tuzing.

Ayrilmagin elingdan,
Quvvat ketar belingdan

Badqavm bo'lsang bo'l,
Beqavm bo'lma.

Baliq suv bilan tirik,
Odam-el bilan.

Begona tuproq-devona tuproq.

Birovning yurtida bek bo'lguncha,
O'zingning yurtingda it bo'l.

Vatanga halokat-o'zingga halokat.

Vatani borning baxti bor,
Mehnati borning – taxti.

Vataning tinch – sen tinch.

Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar
1-topshiriq

1-keys. Respublikamizda oliy ta'lim muassasalarida talabalarni ilg'or xorijiy tajribalar bilan tanishtirib boriladi va bevosita ta'limga tadbiq etiladi. Texnologiyalardan muayyan muammolarga yechim topishga turtki vositasi sifatida foydalaniladi. Texnologiya muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirilsa-da, ba'zi talabalarda nutq va muloqot madaniyati past darajada, o'z fikrini bayon etish, fikrini asoslash ko'nikmalari, ijodiy va mustaqil fikr yuritish ko'nikmalari rivojlanmaganligi ma'lum bo'ladi.

Keys yuzasidan savollar:

1. Muammo nimadan iborat?
2. Mazkur muammoni hal etish uchun professor-o'qituvchilar qanday ishlar olib borishi lozim deb o'ylaysiz?
3. Siz bu muammoga qanday yechimlar taklif qilasiz?

Manba: Filologik ta'limda ilg'or xorijiy tajribalarga doir adabiyotlar.

Tinglovchilar uchun ko'rsatmalar:

1. Keys mohiyatini yetarlicha anglab oling.
2. Muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang.
3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq daxldor bo'lgan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq omil (yoki ikkita omil)ni ajrating.
4. Ana shu omillar asosida yechimni asoslashga harakat qiling.
5. O'z fikringizni bayon eting.

2-topshiriq. "Vatanparvarlik nima?" mavzusida esse yozing.

Bilib oling: O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi hamda mustaqillikka erishganligimiz munosabati bilan tilimizda qo'llanilib kelayotgan ruscha va rus tili orqali kirib kelgan terminlarning anchasi har ikkala tildagi mos muqobillari bilan almashtirila boshlandi. Masalan, o'zbek tilida qo'llanib kelgan terminlar quyidagicha almashtiriladi: Abstrakt – mavhum, avtograf – dastxat, adaptatsiya – moslashish, administratsiya – ma'muriyat, direktiva – ko'rsatma, krizis – tanglik va b.

Ijtimoiy-siyosiy terminlarning paydo bo'lish tarixini qadimdan boshlashimiz zarur. Umumturkiy meros bo'lmish O'rxun-Enasoy va boshqa yodnomalarda o'z ifodasini topgan qag'an, budun, baliq ("shahar" ma'nosida), sab ("kengash" ma'nosida), bitikchi ("kotib" ma'nosida), alp ("qahramon" ma'nosida) kabi terminlar buning yaqqol misolidir. Ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'zgarishlar, tabiiyki, o'zining leksik qatlamlarida ham o'z ifodasini topadi. Bu fikrimizni M.Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridagi quyidagi ijtimoiy-siyosiy terminlar misolida ham ko'rish mumkin: *budun* ("jamoa" ma'nosida), *bachėg'* ("ahd" ma'nosida) va hokazo 1. O'sha davr ijtimoiy-siyosiy terminologiyasining muhim xususiyatlaridan biri shundaki, ularning ba'zilari hozirgi kunda ham o'zbek va qoraqalpoq hamda boshqa turkiy tillarda faol qo'llanib kelinmoqda (el-el, boy-bay, ont-ant). H.Dadaboyevning dissertatsiya ishiga obyekt qilib olingan XI-XIV asrlar yozma yodgorliklari tilidagi qiyoslash uchun olingan ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminlardan bugungi kunda uyg'ur tilida-348, qozoq tilida-220, qirg'iz tilida-244, turk tilida-370, o'zbek tilida esa-390 tasi ishlatilar ekan.

O'zbek tilining ijtimoiy-siyosiy terminologiyasi, ayniqsa, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rus tilidan va yevropa tillaridan kirgan o'zlashmalar hisobiga boyiy boshladi. Ijtimoiy-siyosiy hayotdagi har qanday o'zgarish uning terminologiyasida ham o'z izini qoldiradi. Ijtimoiy-siyosiy terminologiya deganda

siyosiy tuzum, ijtimoiy va siyosiy guruhlar, partiyalar, oqimlar va ularning vakillari, hukumat yig'ilishlari va muassasalari, davlatni boshqarish va uning organlari, dunyoqarashlar, mulkiy munosabatlar, ichki va tashqi siyosat, ijtimoiy-siyosiy hujjatlar, axloq masalalari, xullas, ijtimoiy-siyosiy hayot bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklar majmuyi tushuniladi. O'zbek tilining ijtimoiy-siyosiy terminologik lug'ati 1976-yildayoq nashr etilgan edi.

Grammatik mavzu yuzasidan topshiriq

1- topshiriq. Matnni o'qing. Matndagi iqtisodiy terminlarni ajratib yozing:

Tadbirkorlik

Tadbirkorlik – keng ma'noda, shaxsiy va ijtimoiy manfaatni qondirishga asoslangan aqliy va jismoniy faoliyatni bildiradi. Tor ma'noda, tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy hayotning barcha sohalarini - uy xo'jaligini boshqarishdan tortib ishlab chiqarishgacha, tovarlar sotish va xizmat ko'rsatish turlarigacha qamrab oladi. Yangi mahsulot ishlab chiqarish, texnologiyani joriy qilish, bozorlarga kirib borish, iste'molchilarni jalb qilish, ishlab chiqarishga resurslarni moliyalashtirishning usullarini jalb qilish, kooperatsiya va xalqaro aloqalarni shakllantirish shular jumlasidandir. Tovar xo'jaligiga xos bo'lgan beqarorlik, xavf-xatarlilik tadbirkorlik faoliyatining muhim xususiyatidir.

Tadbirkorlikning tashkiliy shakllariga yangi korxonalarni tashkil yetish, bir-biri bilan bog'lanmagan korxonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va birlashtirish hamda korxona ichidagi tadbirkorlik ham kiradi. Tadbirkorlikning o'zi faqat individual darajada yemas, balki yirik tashkilotlarda ham amal qiladi. Firma ichidagi tadbirkorlik intra – tadbirkorlik deb ataladi.

Tadbirkorlik "qonuniy" va "g'ayriqonuniy" bo'ladi.

Faoliyat turiga bog'liq holda tadbirkorlik subyektlari bo'lib, ishlab chiqarishda korxonalar, tijoratda – savdo muassasalari va

birjalar, moliyaviy tadbirkorlikda - tijorat banklari, fond birjalari, investitsiya va boshqa fondlar hisoblanadi.

Tadbirkorlikda tashkiliy-huquqiy shakllarining quyidagi turlari mavjud: xususiy tadbirkorlik, yuridik shaxs bo'lmagan tadbirkorlar faoliyati; kichik biznes (kichik korxonalar); xo'jalik va ijtimoiy birlashmalar tadbirkorligi; fermer (dehqon) xo'jaligi asosidagi tadbirkorlik; ijara va jamoa xo'jaliklaridagi tadbirkorlik; chet yellik sheriklar bilan qo'shma tadbirkorlik.

2-topshiriq. Qo'shma gaplarni davom ettiring.

Shahrimiz kundan kunga shunday o'zgardiki... U shunday yaxshi ishlaydiki... Eshik yanayam katta ochildi, ... Aziza xonaga yugurib kirdi-yu, ... Institutga kirmaguncha, ... Kosmik raketalarning muvaffaqiyatli uchirilishi shuni ko'rsatdiki, ...

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari

1. O'zbek tilining ijtimoiy-siyosiy terminologiyasi nechanchi asrdan boshlab boyiy boshlaydi?

A. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab

B. XVI asrning ikkinchi yarmidan

C. XX asrning ikkinchi yarmidan

D. XI asrning oxirida

2. O'zbek tilining ijtimoiy-siyosiy terminologiyasi lug'ati nechanchi yilda nashr bo'lgan?

A. 1976- yilda

B. 1978- yilda

C. 1980- yilda

D. 1981- yilda

3. Ijtimoiy-siyosiy terminologiya deganda.....

A. Siyosiy tuzum, ijtimoiy va siyosiy qarashlar

B. Partiyalar, oqimlar va ularning oqimlari

C. Hukumat yig'ilishlari va muassasalarning leksik birlilari majmui

D. Barcha javoblar to'g'ri

4. Arabcha so'zlarni toping

A. Amaliyot, asar, asos
B. Bastakor, duradgor, zabtkor
C. Abzats, agronomiya, agrotexnika
D.Barcha javoblar to‘g‘ri

5. Forscha-tojikcha so‘zlarni toping
A. Agrotexnika, arxeologiya, gazeta
B. Bastakor, duradgor, zabtkor
C. sessiya, syezd, fizika
D.Barcha javoblar to‘g‘ri

Mustaqil ta’lim uchun mashg‘ulotlar

1- topshiriq.

Tarixda o‘z jasorati bilan nom qoldirgan qahramonlar haqida hikoya tuzing.

2-topshiriq.

Davriy nashrlardagi maqolalar asosida fidoyiligi bilan tanilgan zamondoshlarimiz haqida ma’lumot tayyorlang.

YETTINCHI DARS

MUZEYLAR – O'TMISH VA KELAJAK ORASIDAGI KO'PRIK



O'zbekiston muzeylari

Tayanch so'z va iboralar: muzey, xazina, san'at, yozma manbalar, tasvir.

Muzey – muzalarga bag'ishlangan joy – tarixiy, moddiy va ma'naviy yodgoriklarni to'plash, saqlash o'rganish va targ'ib qilish ishlarini amalga oshiruvchi ilmiy, ilmiy-ma'rifiy muasasa. Muzey xazinasida asosan moddiy va tasviriy narsalar, shuningdek san'at asarlari jamlanadi. Shu bilan birga, yozma manbalar saqlanadi.

Muzeylar... Bu madaniyat maskanlari yosh avlod uchun katta ahamiyatga ega. Chunki, muzeylarimizda bizning shonli va sharafli o'tmishimiz, tariximiz aks etgan. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov: "Tarixsiz – kelajak yo'q", – deganlaridek, tariximizni bilish, uni o'rganish

bizning oliy va sharafli burchimizdir. Bunday paytlarda, bizga tarixiy muzeylarimiz katta yordam beradi.

1996-yil 18-oktabr kuni Sohibqiron tavalludining 660-yilligi munosabati bilan Amir Temur xiyoboniga tutash hududda Temuriylar tarixi davlat muzeyi barpo etildi. Muzeyning balandligi 31, diametri 70 metr. Muzey gumbazini yoritib turgan "Zumrad" deb nomlangan muazzam qandilning og'irligi ikki tonnadan oshadi. Unga besh yuzta yoritgich jamlangan. Muzey uch qavatdan iborat. Birinchi qavatida xazinaxona, kutubxona, anjumanlar zali, ma'muriyat joylashgan. Ikkinchi qavatdagi devor markazidan davlatimiz rahbari Islom Karimov g'oyasi asosida miniatyurachi rassomlar S.Qoraboyev, G'.Kamolov, X.Nazirov, T.Boltaboyev tomonidan ishlangan "Buyuk Sohibqiron – buyuk bunyodkor" deb nomlangan panno joy olgan. Uchinchi qavatda Markaziy Osiyoning ilk Uyg'onish davridan to Sohibqiron davrigacha va temuriylar hayotidan hikoya qiluvchi eksponatlar, rang-barang osori- atiqalar o'rin olgan. Dastlab muzey fondidan 600 eksponat joy olgan bo'lsa, bugungi kunda ularning soni uch yarim mingdan oshadi.

Muzeyda turli mavzularda ko'rgazmalar tashkil etish yaxshi ana'anaga aylangan. "Noyob qo'lyozmalar xazinasidan", "Amir Temur – Klavixo – Samarqand", "Xorijdagi merosimiz", "Samarqand durdonalari", "Shohruhiya topilmalari" kabi ko'rgazmalar shular jumlasidandir. Muzey xodimlarining sa'y-harakati bilan "Temuriylar davri madaniy yodgorliklari", "Amir Temur va temuriylar davri: yangi tadqiqotlar" to'plamlari nashr qilindi. Ayni paytda, "Temuriylar davri madaniy yozma yodgorliklarining O'zbekistonda va xorijda o'rganilishi", "O'rta Osiyoda kitobat san'ati (temuriylar davrida yaratilgan asarlarning qo'lyozma va toshbosma nusxalari)" kabi mavzularda tadqiqotlar olib borilmoqda. O'tgan davr mobaynida muzey xalqimizning qutlug' qadamjolaridan biriga aylandi.

Temuriylar tarixi davlat muzeyi ilmiy-ma'rifiy maskanlardan biri bo'lib, bu yerga doim o'qituvchi va o'quvchilar muzeyni tomosha qilish, uni o'rganish va o'zlariga bir olam zavq,

taassurotlar olish uchun tashrif buyurishadi. Muzeyga kirar ekansiz, milliy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz, an'analarimiz aks etgan tarixiy buyumlarga, jihozlarga duch kelasiz.

Mamlakatimizga tashrif buyurgan oliy va yuqori martabali mehmonlar, rasmiy delegatsiyalar vakillari yurtimizning boshqa diqqatga sazovor joylari qatori Temuriylar tarixi davlat muzeyini ham katta qiziqish bilan tomosha qiladi. Muzeyga tashrif buyuruvchilar orasida davlat, hukumat va parlament delegatsiyalari, xalqaro tashkilotlar vakillari, ishbilarmonlar, fan va madaniyat namoyandalari, sayyohlarning ko'pligi tariximizga xorijda ham qiziqish tobora ortib borayotganidan dalolatdir.

TEMURIYLAR TARIXI DAVLAT MUZEYI

1996-yil 18-oktabr kuni Sohibqiron tavalludining 660-yilligi munosabati bilan Amir Temur xiyoboniga tutash hududda Temuriylar tarixi davlat muzeyi barpo etildi.

Muzeyning balandligi 31, diametri 70 metr. Muzey gumbazini yoritib turgan "Zumrad" deb nomlangan muazzam qandilning og'irligi ikki tonnadan oshadi. Unga besh yuzta yoritgich jamlangan. Muzey uch qavatdan iborat.



ALOQA TARIXI MUZEYI

O'zbekiston aloqa tarixi muzeyi moddiy ma'naviy meroslarni saqlab, asrab boyitib kelajak avlodga yetkazib berishdek muhim vazifani amalga oshirib kelmoqda. O'zbekiston Aloqa va axborotlashtirish agentligi rahbariyati hamda "Aloqa va axborotlashtirish sohasi tarixi va merosi" jamoat fondi tashabbusi bilan tashkil etilgan "Aloqa tarixi muzeyi" 2009-yildan buyon o'z faoliyatini aynan mazkur muhim davlat hujjatlariga muvofiq yoritib keladi.



Alisher Navoiy nomidagi ilmiy-amaliy muzey laboratoriyasi

1996 yil 9-fevral buyuk bobomiz ulug' o'zbek va boshqa turkiy xalqlarning shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi Alisher Navoiyning 555 yilligiga bag'ishlanib, Samarqandda Navoiy nomidagi muzey ochildi.

Muzey joylanishi va binosi haqida

Muzey Samarqand shahri universitet xiyobonida joylashgan. Muzey ekspozitsiyasi 400 kv.m maydonni egallagan bo'lib, 5 ta bo'limdan iborat. Ularda A.Navoiyning hayoti va ijodi, yurtimizda oliy ta'limning tarixi, shahrimizda oliy ta'lim

muassasalari, xususan, Samarqand davlat universiteti tarixi haqida ma'lumotlar mavjud. Unda turli muzey jihozlari, ular orasida shahrimiz va universitet tarixiga oid suratlar, kitoblar, arxeologik va etnografik predmetlar tasviriy va amaliy san'at namunalari namoyish etilgan.

Muzey vazifalari

Muzeyning vazifasi madaniy meros namunalari va muzey jihozlarini to'plash, saqlash ularni namoyish qilish, talabalarga muzey xodimlari va shu sohada faoliyat yuritayotgan mutaxassislarga ilmiy-uslubiy va amaliy yordam berishdir. Bu ishlarni amalga oshirish uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Jumladan, muzeyda turli ko'rgazmalar tashkil etildi. Talabalar va mehmonlar uchun zarur jihozlar bilan ta'minlangan kompyuter va o'quv zallari mavjud, muzeyga tegishli ma'lumotlar bazasi yaratilgan.

Muzey laboratoriyasida asosiy ekspozisiyadan tashqari universitet tasviriy san'at yo'nalishi o'qituvchi va talabalarning asarlari ko'rgazmasi va mustaqillik bayramiga bag'ishlangan Kamolot YoIH faoliyati haqida fotoko'rgazma tashkil etilgan.



O'zbekiston tarixi davlat muzeyi

O'zbekiston Fanlar akademiyasining yirik ilmiy tekshirish va madaniy-ma'rifiy muassasalaridan biri. 1876-yilda Toshkent muzeyi nomida tashkil etilgan. 1883-yil Turkiston ommaviy kutubxonasi bilan birlashtirildi. 1918-yil Turkiston o'lka xalq muzeyiga, 1922-yildan Turkiston bosh muzeyiga, 1925-yildan O'rta Osiyo bosh muzeyiga aylantirildi. 1943-yildan O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi deb nomlangan. 1969-92 yillar Oybek nomidagi O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi deb atalgan.1992-yil 21-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 203-sonli qaroriga muvofiq bir necha muzeylarni birlashtirish asosida hozirgi nomi bilan qayta tashkil etildi.



Toshkent shahrining markazida Amir Temur xiyobonida sharqona uslubda qurilgan go'zal bino qad rostlab turibdi. Bu muhtasham binoda Temuriylar tarixi Amir Temur va temuriylar davri tarixiy hujjatlari va ashyoviy dalillar asosida yoritilgan.

Yurtimizga kelgan mehmonlar va sayyohlar o'zbek xalqining tarixi va boy o'tmishi, madaniyati, ma'naviyati haqida

ana shunday muzeylarda bo'lib, to'liq ma'lumot olishi, boy tasavvur hosil qilishi mumkin. Muzey ilmiy-ma'rifiy muassasa bo'lib, tabiiy, moddiy ma'naviy madaniyat yodgorliklarini yig'ish, saqlash, o'rganish, targ'ib qilish bilan shug'ullanadi. "Muzey" yunoncha so'z bo'lib, muzalarga (muza-san'at, adabiyot, fan ma'budasi) bag'ishlangan joy ma'nosini bildiradi.

O'zbekistonda muzeylar tashkil etish 19-asrning 70-yillaridan boshlandi. O'rta Osiyoda birinchi muzeylardan hisoblangan O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi 1876-yilda tashkil topgan. Shuningdek, respublikada Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi, O'zbekiston Davlat san'ati muzeyi, O'zbekiston xalqlari madaniyati va san'ati muzeyi, O'zbekiston Tabiat muzeyi. O'zbekiston Respublikasi qurolli kuchlari" tarixi muzeyi va boshqa muzeylar bor.

Ko'pgina shaharlarda bir o'lka, viloyat, shahar tarixiga bag'ishlangan o'lkashunoslik muzeylari, muzey-qo'riqxonalar bor. Jumladan, Buxoro Davlat me'moriy badiiy muzey-qo'riqxonasi, Andijon viloyat o'lkashunoslik muzeyi kabilar.

Atoqli davlat arboblari, yozuvchilar, rassomlar, kompozitorlar, artistlarga bag'ishlangan muzeylar ham oz emas. Toshkentda Muxtor Ashrafiy, Oybek, Ural Tansiqboyev, G'afur G'ulom, Yunus Rajabiy, Mukarrama Turg'unboyeva va boshqalarning uy-muzeylari mavjud.

Hozirgi kunda yaratilayotgan san'at asarlari, xalqimiz tarixi, buguni va ertasi bilan bog'liq hujjatlar ertaga nodir ashyolarga aylanadi. Shuning uchun, ularni avaylab saqlash lozim.

Amaliy san'at muzeyi

Amaliy san'at muzeyi binosi xalq me'morchiligi va buyuk san'atining nodir namunasidir. Bino XIX asr oxirida qurilgan, ganch va yog'och o'ymakorligi usulida bezatilgan. Me'moriy bezaklar, o'yma va bo'yama naqshlar o'zbek xalq ustalari Usta Toshpo'lat Arslonqulov, Olimjon Qosimjonov, Usta Shirin

Murodov, Usta ota Polvonov tomonidan ishlangan.

1970-yilga kelib, qayta ta'mirlandi. Ko'rgazma fondida 18 mingdan ortiq eksponat bo'lib, O'zbekistonning amaliy va bezak san'ati (yog'och o'ymakorligi, kulolchilik, zargarlik, zardo'zlik, kashtado'zlik va boshqalar) tarixini ochib beradi.

Tabiat muzeyi

1876-yil Toshkent muzeyi sifatida tashkil qilingan. O'rta Osiyodagi hasharotlarning eng boy to'plami (330 ming), 10 mingdan ortiq gerbariy barglar, 5 mingdan ortiq zoologik kolleksiyadan iborat eksponatlar bor.

Ekspozitsiya yerda hayotning paydo bo'lishi va rivojlanishi, umumiy biologiya, O'zbekistonning tabiiy-geografik tavsifi, geologiya-minerologiya, tabiat landshaftlari, atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatni saqlash bo'limlaridan iborat. Muzeyda tabiatning o'ziga xosligini ko'rsatishga muhim o'rin ajratilgan. Qoraqum cho'li, Nurota tog'lari, G'arbiy Tyanshan tog'lari dashti, tog'-o'rmonlari kabi diagrammalar namoyish etiladi. 1991-yil muzey fondida 500 mingdan ortiq eksponat bor edi.

Suhbat uchun savollar

1. Toshkentda qanday muzeylar bor?
2. Qaysi muzeyda bo'lgansiz?
3. Amir Temur muzeyi qayerda joylashgan?
4. O'zbekistonda birinchi bo'lib qaysi muzey tashkil topgan?
5. Muzey haqida o'z taasurotingizni so'zlab bering.

Keltirilgan matnlar yuzasidan topshiriqlar

1-topshiriq. Matnni o'qing.

2-topshiriq. Matndagi notanish so'zlar ro'yxatini keltiring.

3-topshiriq. Siz istiqomat qilayotgan hududda joylashgan muzeylar haqida matn tuzing.

1-topshiriq: She'rni o'qing, mazmunini tushuntirib bering va yod oling.

Tarovatli Toshkentim

Bu kurrayi zaminda azaliysan, Toshkentim,
Shaharlarim sardori, go'zalisan Toshkentim.
Tobora fayzing ortar, nash'alisan Toshkentim,
Qadimdan tinch, totuvlik mash'alisan, Toshkentim
Tarovatli Toshkentim,
Saxovatli Toshkentim.

Istiqlol olgan yurtning poytaxtisan, baxtlisan,
Ishchi ahli himmatda, bunyodkorlar shahrisan
Anjumanlarga ma'no, ijod, ilhom nahrisan,
Sen ilmu fan peshvosi, o'zbek yurtim faxrisan,
Xosiyatli Toshkentim,
Xush niyatli Toshkentim.

Xiyobonlaring gulshan, favvoralar dur sochar,
Ming ko'zli tik binolar shu'lasidan tun qochar.
Yer ostida qasrlar navbat bilan ko'rk ochar,
Bag'ring ertakka monand, xush yoqib, hayrat oshar,
Malohatli Toshkentim,
Mahobatli Toshkentim.

Ming shukr, bayrog'ingdan ketdi endi qonli rang,
Jahonga dovruq soldi erking, avjing, ovozing,
Lol etdi keng olamni zamin to'la zahirang
Mag'rur poytaxtlar aro xushdir aziz jozibang,
Sharofatli Toshkentim,
Shafoatli Toshkentim.

Z.Obidov

TOSHKENT

Toshkent dunyodagi qadimiy shaharlardan biri. Toshkent katta sanoat markazidir. Shaharda juda ko'p zavod va fabrikalar, turli firma va qo'shma korxonalar mavjud.

Toshkent respublikaning ilm-fan va madaniyat markazidir. Bu yerda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi, Ilmiy-tadqiqot institutlari, juda ko'p oliy o'quv yurtlari, Alisher Navoiy nomli kutubxona, teatr, filarmoniya, sirk, kinoteatrlar, madaniyat saroylari bor.

1970-yildan boshlab shaharda metropoliten ishga tushdi. Toshkent shahrini "non shahri", "bog' shahri", "mehmondo'st shahar" va "do'stlik shahri" deb atashadi.

2-topshiriq. Toshkentning diqqatga sazovor joylari haqida matn tuzing.

3-topshiriq. She'rni yod oling.

Toshkent sha'niga

Goho oddiy maskanday tuyuladi, ochiq gap,
Har kuni yashayverib ko'nikib qolgan uying.
Toshkentim, ajib kentsan, muhtasham qo'rg'onsan zab,
Ming-minglab chaqirimdan ko'rinib turar bo'ying.
Necha-necha ellarda duch keldim turfa zotga,
"Toshkent" desa yugurar yuzlariga tabassum.
Toshkent so'zi uyqashdir tinchlik bilan hayotga,
Toshkent desa anglanur mehr bilan tarahhum.
Hamisha ustuvor bo'l, barqaror bo 'l hamisha,
Ey, ko'hna Sharqimizning hech so'nmas mash'alasi.
Noming kabi mustahkam, poydor bo'l hamisha,
Do'stlik, baxt, muruvvatning mangu boqiy qal'asi.

Abdulla Oripov

4-topshiriq. Toshkent metrosining har uchala yo'l bekatlarining nomini ayting.

5-topshiriq. Birorta metro bekatini tasvirlab bering.

Sohaviy terminlar va ularning qo'llanilishi

Tayanch so'z va iboralar: ta'rifi, atama, va termin, tarixiylik, atamalar shakllanishining xalq tarixi bilan bog'liqligi, "Devonu lugótit turk", sohaviylik, tor doira, jamiyat taraqqiyoti, atamalar va dunyo tillari, boyish yo'llari, o'zlashtirish, milliylashtirish, jadidlar, "Davlat tili haqida"gi Qonun qabul qilingandan keyingi o'zgarishlar.

Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, ma'lum fan, ishlab chiqarish, sohasidagina qo'llaniladigan va asosan, o'sha soha kishilari tushunadigan maxsus so'zlar terminlar-atamalar sifatida qaraladi.

"Hozirgacha termin tushunchasi tilshunoslikda turlicha talqin qilinmoqda"- deb qayd etishadi "O'zbek tili leksikologiyasi" asarining mualliflari. Ba'zi tilshunoslar terminga ilm va texnikaga oid so'z va iboralarnigina emas, barcha uy-ro'zg'or asboblari nomlarini, ishlab chiqarishning hozirgi darajasidagi qurollarnigina emas, balki o'tmishdagi ibtidoiy qurrollarning barcha nomalarini, shuningdek, kasb-hunarga oid so'zlarni ham kiritadilar.

Demak, atama so'zini termin tushunchasi ma'nosida qo'llaganimizda, uni umuman, narsa-predmetlar, voqea hodisalarning nomi sifatida emas, balki aniq bir ilmiy tushunchani ifodalaydigan va ma'lum bir fan sohasiga tegishli bo'lgan birliklarni anglashimiz lozim. Shu ma'noda, kasb-hunarga oid so'zlar atamalardan farqlanadi.

O'zbek tilshunosligida atamalarni o'rganishga doir ko'pgina ishlar amalga oshirilgan. Ko'plab ilmiy kitoblar, risolalar, lug'atlar, ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar yozilgan. Dissertatsiyalar himoya qilingan. Bu borada 200 dan ortiq lug'atlar nashr etilgan.

Grammatik mavzu bo'yicha topshiriqlar
"Gazeta asosida ishlash"

Bunda respublika va viloyat gazetalari sahifalaridagi dolzarb muammolar yoritilgan maqolalardagi hollar va to'ldiruvchilarni topib izohlash topshiriladi. Bu usul orqali o'quvchilarni doimiy ravishda matbuot yangiliklari bilan tanishib, ijtimoiy-siyosiy, madaniy dunyoqarashini boyitishga da'vat etiladi.

"OVOZLI SAYLANMA DIKTANT"
Kompyuterdan ovozli matnni eshitib, undagi hol va to'ldiruvchilarni saylab yozish topshiriladi (Matn o'qituvchining o'zi tomonidan diktofonga yozib olib eshittiriladi).

1. Barcha ishlar tuyaning dumi yerga tekkanda bajariladimi?
2. Har qanday bilimning joni va yuragi kitobni o'z vaqtida qadrlang.
3. Gilam sotsang qo'shningga sot, bir chetida o'zing o'tirasan.
4. Maktab va litseyga telefon olib kelma, o'quvchi!
5. Yaqin kunlarda buyuk adib Ch.Aytmatovning 90 yilligi jamoamizda keng nishonlanadi.
6. 2018-yilda viloyatimizda aholining o'rtacha umr ko'rishi erkaklarda 71 yoshni, ayollarda 76 yoshni tashkil qilar ekan.

Ixcham bayon

O'qituvchi tomonidan quyidagi matn o'qilib, uni sharhlash hamda matndagi hollarni topish vazifa qilib beriladi. Bu usul orqali o'quvchi tinglab, o'z fikrini mustaqil bayon etish ko'nikmasini hosil qiladi. **Esse yozish**

-Bir kuni buyuk fizik olim Eynshteyndan so'rabdilar:
-Muvaffaqiyatlaringiz siri nimada?

Eynshteyn o'ta kamgap edi, shuning uchun darhol bir taxtachani oldi-da yozdi:

M = I + D + K

(Muvaffaqiyatimning siri bu –izlanish, dam olish, kamtarlik)

Mavzu yuzasidan test savollari

1. Temuriylar tarixi davlat muzeyi nechanchi yilda barpo etilgan?

A.1997-yil 18-oktabr
B.1996-yil 18-oktabr
S.1999-yil 19-oktabr
D.2000-yil 20-oktabr

2. Alisher Navoiy nomidagi ilmiy-amaliy muzey qachon tashkil etilgan?

A.1996 yil 9-fevral
B.1998-yil 10-fevral
S.1999-yil 9-yanvar
D.2000-yil 10-yanvar

3. O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi nechanchi yilda tashkil topgan?

A.1976-yilda
B.1980-yilda
S.1982-yilda
D.1876-yilda

4. Toshkent shahri nechanchi yilda o'zining 2000 yilligini nishonladi?

A.1996-yilda
B.1988-yilda
S.1989-yilda
D.1990-yilda

5. Nechanchi yildan boshlab Toshkent shahrida metropolitan ishga tushgan?

A.1970-yilda
B.1980-yilda
S.1990-yilda
D.2000-yilda

Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar.

1-topshiriq.

Siz yashayotgan hududdagi muzey haqida esse yozing.

2-topshiriq. "Muzey – kelajak poydevori" mavzusida diolog tuzing.

SAKKIZINCHI DARS

KELAJAK – BILIMLI YOSHLAR QO‘LIDA



Tayanch so‘z va iboralar: burch, munosabat, jamiyat, fazilat, huquq.

Matn: BURCH

Burch – har bir kishining o‘z vazifalarini to‘liq bajarish, odamlarga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish kabi fazilatlarni ifoda etadi. Burch shaxsning jamiyatga bo‘lgan munosabatda namoyon bo‘ladi.

Burch – o‘z-o‘zidan shakllanmaydi, tarbiya jarayonida kamol topadi. Burchi va vijdonini pok tutish, o‘z qadr-qimmatini oshiradi. Burchga sodiq kishi birovlarni ranjitmaydi, diliga ozor yetkazmaydi, sabrli bo‘ladi.

Burch – muqaddas narsa. Burchga sodiqlik Vatanga sodiqlikdir. Bugungi O'zbekiston fuqarolarining asosiy burchi yaxshi jamiyat qurish va bilimli farzandlarni tarbiyalashdir. O'z burchiga sodiqlik har bir kishiga obro', shon-sharaf, o'zlikni unutmaslik har bir insonning o'z burchiga sodiqligi o'ziga, jamiyatga, Vatanga, mehnatga, oilaga, farzandlariga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining II bobida boshqa kishilarning huquqlarini, erkinliklarini, qadr-qimmatini hurmat qilish, ma'naviy merosni hurmat qilish aytib o'tilgan.

Matn bo'yicha savol va topshiriqlar

1. Bugungi yoshlar qanday xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirishi kerak?

2.Yurtimizda ta'lim sifatini oshirish maqsadida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

3.Yoshlarning burchi nimalarda aks etishi kerak?

4. Sharafli burch deganda nimani tushunasiz?

5.Yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida yurtimizda qanday ishlar amalga oshirilmoqda.

6. Siz o'z vataningizga hissa qo'shish uchun nimalarni amalga oshirgan bo'lar edingiz?

7. Iqtidorli yoshlar qaysi sohalarda yuqori pog'onalarga erishmoqdalar.

O'zbek tilida sinonimlar
BBB jadvali

№	*Mavzu savollari*	*Bilaman*	*Bilishni istayman*	*Bilib oldim*
1	**2**	**3**	**4**	**5**
1.	Sinonim so'zlar			
2.	Antonim so'zlar			
3.	Omonim so'zlar			
4.	Paronim so'zlar			
5.	Uyadosh so'zlar			

1-ilova

Yangi mavzu bayoni:

I. Sinonim guruhi chiqishi
II. Antonim guruhi chiqishi
III.Omonimlar guruhi
IV. Paronim guruhi chiqishi
V.Uyadoshlar guruhi

2-ilova

Yangi mavzu slaydlari



Ma’nodoshlik hodisasi

So’z - so’z (leksik//lug’aviy)

nom **ot** **ism**

Qo’shimcha – qo’shimcha (affiks//grammatik)

serhosil **hosildor**

Ibora – ibora (frazeologik)

Ilonning yog’ini yalagan **pixini yorgan**

Sinonimlarning paydo bo’lishi

1. Chetdan so’z olish:
   - *buyruq-farmon-amr*
2. Qo’shimchalar ma’nodoshligi:
   - *sergap - gapdon*
3. Eskirgan so’zlar:
   - *xalq, xaloyiq, el, ulus, mardum, raiyat, budun*
4. Ko’p ma’noli so’zlar:
   - *og’ir-zilday; qiyin; xavfli; nochor*

Antonim...mi?



Paronim?



Blits-so'rov

1. Shakl va ma'no munosabatiga ko'ra so'zlar necha xil bo'ladi?
2. Omonim nima?
3. Omonim so'zi qaysi tildan olingan?
4. Leksik omonim nima?
5. Affiks omonim-chi?
6. Omonimlardan o'rinli foydalanish kimlarning mahorati mezoni sanaladi?
7. Omonimlar badiiy adabiyotda qaysi janrga asos bo'lib xizmat qiladi?
8. Omonimlar asosida qaysi badiiy san'at yuzaga keladi?
9. Tuyuq janri uchun omonimning qaysi turi asos bo'ladi?
10. Askiya uchun-chi?
11. Qanday so'zlar uyadosh so'zlar sanaladi?
12. Uyadosh so'zlarning tildagi ahamiyati nimada?
13. Omonim so'zlar qo'shimcha qo'shilgandan keyin ham omonimligini saqlab qoladimi?
14. Omonimlarning ko'p ma'noli so'zlardan farqi nimada?
15. Olinma so'zlar hisobiga ham shakldoshlik hodisasi yuzaga chiqishi mumkunmi?

Sinonimlardan to'g'risini tanlab qo'ying!

1. Egilganga egilgin boshing yerga teggunchа, kekkayganga kekkaygin boshing ...ka yetguncha (osmon, ko'k, samo).
2. Do'st achitib gapiradi, ... kuldirib (yov, g'anim, dushman).
3. ... do'st ayrilmas (o'lchovli, sanoqli, hisobli).
4. ... sharofati bilan yurtimizda ko'plab bog'lar barpo qilindi (mustaqillik, ozodlik, hurlik) .
5. Uning dastxati ... (chiroyli, go'zal, suluv) ekan.
6. Shahrimizda birin-ketin... (buyuk, katta, azim) binolar qad ko'tarmoqda.

Ma'nodosh so'zlarni qo'llash bilan bog'liq xatolarni toping!

1. **Betiga yarashgan xoli inson aqlini shoshirib qo'yardi.**
2. **Ulug' Madhiyaning yangroq ohangini olib ketdi tungi sho'x bo'ron.**
3. **Keksalarning nuroniy aftidan xonadonlar yorishganday bo'ladi.**
4. **Gap bilan shoshma, mehnat bilan shosh.**
5. **Bizda doimo kattalar izzatda, kichiklar hurmatda.**
6. **Fazoda qushlar qanot qoqib uchadi.**

Paronimlari noto'g'ri qo'llangan o'rinlarni aniqlang!

1. Kampirning ko'z yoshlari yuzining burishlari ustidan simobdek yumalab tushardi.
2. Rajab bobo po'lat darvoza tepasidagi muruvvatini kuch bilan buray boshladi.
3. Ular savsar, rayhon, namozshomgul ekilgan yo'lak bo'ylab yurishdi.
4. Mehnat jamoamiz paxta kompaniyasini uyushqoqlik bilan o'tqazishdi.
5. Ustidan qum shuvoq qilasiz-u, oppoq bur bilan bo'yaysiz.
6. Umumlashtiruvchi so'z uyushiq bo'laklardan kiyin kelsa, undan oldin teri qo'yiladi.

Yashirin so'z. Qaysi shakldosh so'z ma'nolari berilgan?

1. Mustaqil, farishta, ... - hur
2. O't, qo'shiq – o'lan
3. Falaj, dag'al mato - shol
4. Oqqush, ayyor, haydash – quv
5. Mos, rost, shahar nomi – chin
6. Revmatizm, shamol – bod
7. Yemiruvchi modda, tok, qo'ng'iroq – zang
8. Tol chiviq, xohish - istak
9. Uchlik, ichimlik – musallas
10. Suv yo'li, qayish - kamar

Toifa. So'zlarning sinonimi, antonimi, paronimini toping:

	So'z	Ma'nodoshi	Zid ma'nolisi	Talaffuzdoshi
1	Ahil			
2	Adil			
3	Qur (qurmoq)			
4	Yoq (yoqmoq)			
5	Urush			

Konseptual jadval

Shakl va ma'no munosabatiga ko'ra	Shakli	Ma'nosi	Misol	Turlari	Nechta so'z doirasida yuzaga chiqishi	Uslubiy xususiyati (nutqdagi ahamiyati
Sinonim						
Antonim						
Omonim						
Paronim						
Uyadosh						

4-ilova

Mustaqil ish

- **Sinonim, antonim, omonim, paronimlar lug'ati bilan ishlash** (lug'at boyligini oshirish va 50 tadan misol yodlash).

Ekspert tekshirishi uchun nazorat varaqalari javobi:

1-mashq. Tezkor so'rov

Har bir o'quvchining to'g'ri javobi uchun bir ball beriladi: guruh 5 ta savolga jami besh ball oladi.

Og'zaki savollarga javob bergan va so'zlar sharhida qatnashgan o'quvchilarning ballari ham 1-mashq jadvalida aks etadi.

2-mashq. Slayd.

Taqdimot etgan guruh besh ballik tizimda baholanadi: slayd uchun **5 ball**+ izoh uchun **5 ball**= jami **10 ball**

3-mashq. "Uzukka ko'z" (sinonim).

Har bir to'g'ri javob uchun **1 ball**.

- **Sinonimlardan to'g'risini tanlab qo'ying!**

1. Egilganga egilgin boshing yerga tegguncha, kekkayganga kekkaygin boshing ...ka yetguncha (osmon, ko'k, samo).
2. Do'st achitib gapiradi, ... kuldirib (yov, g'anim, dushman).
3. ... do'st ayrilmas (o'lchovli, sanoqli, hisobli).
4. ... sharofati bilan yurtimizda ko'plab bog'lar barpo qilindi (mustaqillik, ozodlik, hurlik) .
5. Uning dastxati ... (chiroyli, go'zal, suluv) ekan.

4-mashq. "Men xatoman" (sinonim).

Har bir to'g'ri javob uchun **1 ball**.

- **Ma'nodosh so'zlarni qo'llash bilan bog'liq xatolarni toping!**

1. Betiga yarashgan xoli inson aqlini shoshirib qo'yardi.
2. Ulug' Madhiyaning yangroq ohangini olib ketdi tungi sho'x bo'ron.
3. Keksalarning nuroniy aftidan xonadonlar yorishganday bo'ladi.

4. Gap bilan shoshma, mehnat bilan shosh.
5. Bizda doimo kattalar izzatda, kichiklar hurmatda.

5-mashq. "Adashgan so'z" (paronim).

Har bir to'g'ri javob uchun **1 ball**.

- **Paronimlari noto'g'ri qo'llangan o'rinlarni aniqlang!**

1. Kampirning ko'z yoshlari yuzining burishlari ustidan simobdek yumalab tushardi.
2. Rajab bobo po'lat darvoza tepasidagi muruvvatini kuch bilan buray boshladi.
3. Mehnat jamoamiz paxta kompaniyasini uyushqoqlik bilan o'tqazishdi.
4. Ustidan qum shuvoq qilasiz-u, oppoq bur bilan bo'yaysiz.
5. Umumlashtiruvchi so'z uyushiq bo'laklardan keyin kelsa, undan oldin teri quyiladi.

6-mashq. Yashirin so'z. Qaysi shakldosh so'z ma'nolari berilgan?

Har bir to'g'ri javob uchun 1 ball

1. Mustaqil, farishta, ... – hur
2. O't, qo'shiq – o'lan
3. Falaj, dag'al mato – shol
4. Oqqush, ayyor, haydash – quv
5. Mos, rost, shahar nomi – chin
6. Revmatizm, shamol – bod
7. Yemiruvchi modda, tok, qo'ng'iroq – zang
8. Tol chiviq, xohish – istak
9. Uchlik, ichimlik – musallas
10. Suv yo'li, qayish – kamar

7-mashq. Toifa. So'zlarning sinonimi, antonimi, paronimini toping:

Har biri uchun 1 ball, bir so'z qatori uchun 3 ball, jami 15 ball

	So'z	Ma'nodoshi	Zid ma'nolisi	Talaffuzdoshi
1	Ahil	Inoq, totuv	Notinch, serjanjal	Ahl
2	Adil	Tik, to'g'ri, raso	Egri, egik	Adl
3	Qur (qurmoq)	Bunyod etmoq, solmoq	Buzmoq, vayron qilmoq	Qo'r
4	Azim	G'oyat katta, ulkan	Kichik, mayda	Azm
5	Urush	Jang, kurash	Tinchlik	Urish

TO‘QQIZINCHI DARS

ZAMONAVIY DUNYODA TA’LIM



Tayanch so‘z va iboralar: davlat dasturlari, ilm-fan, pedagogik faoliyat, ta’lim usullari, individual qobiliyat.

Istiqlol yillarida mamlakatimizda ta’lim tizimini tubdan isloh etilib, ertangi kunimizning munosib davomchilari bo‘lgan barkamol avlodni voyaga yetkazishga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov rahnamoligida qabul qilingan sohaga oid qonunlar, farmonlar, davlat dasturlariga binoan ko‘plab ta’lim muassasalari yangidan qurildi, ta’mirlandi. Eng zamonaviy o‘quv anjomlari bilan ta’minlandi. Bugungi kunga kelib Prezidentimiz S.M.Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoniga binoan ta’lim va ilm-fan

sohasini yanada rivojlantirish borasida kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Bunda xalq ta'limi tizimida keng islohotlarni amalga oshirish orqali ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, yangi maktab binolari barpo etish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv -laboratoriya uskunalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan to'liq ta'minlash kabi qator masalalar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

Umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirishda qator fanlar, jumladan, chet tillar, matematika, fizika, informatika, kimyo, biologiya fanlarini chuqurlashtirilgan tarzda o'qitishga alohida e'tibor qaratiladi. Darhaqiqat, mamlakatimizda zamon talabiga mos, yuksak intellektual salohiyatli, yangicha dunyoqarash va mustaqil fikrli mutaxassislar tayyorlash uchun ko'pgina imkoniyatlar yaratilmoqda. Bugungi tez o'zgaruvchan iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy hayot talaba yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda yangi pedagogik interfaol metodlardan keng foydalanishni taqozo qiladi. An'anaviy mashg'ulotlar olib borish asta-sekin o'z o'rnini intensiv va interfaol metodlarga, noan'anaviy dars o'tish usullariga bo'shatib bermoqda. Bugungi kunda o'qitishda innovatsion texnologiyalar va axborot texnologiyalarining qo'llanilishi ta'lim oluvchilarni o'quv jarayoniga faol jalb etish imkonini bermoqda.

Hozirda ta'lim muassasalari zamonaviy kompyuter, axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida jihozlanmoqda. Bu esa pedagoglardan o'z mehnat faoliyatlariga yangicha yondashishlarini talab etadi. Zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi o'quv jarayonida ta'lim vositalari asosida pedagog faoliyat doirasining cheklanishiga emas, balki uning vazifalari va rolining o'zgarishiga, pedagogik faoliyatning mukammallashuviga olib keladi. Endi pedagogdan:

- o'quv kurslari dizayneri-yaratuvchisi;
- o'qitish metodlari bo'yicha maslahatchi;
- kompyuter-o'quv kurslarini interaktiv taqdim etish bo'yicha mutaxassis;

- ta'lim natijalarini nazorat qilish usullari bo'yicha mutaxassis bo'lish talab etiladi.

Ma'lumotlarga ko'ra, o'quv materiallarining talabalar tomonidan qabul qilinishi va ularning xotirasida saqlanib qolish darajasi o'qitish usullariga bog'liq ekan. O'qituvchi o'qitish jarayoniga yangi ta'lim texnologiyalarini kiritib, noan'anaviy ta'lim usullaridan: "Konferensiya darsi", "Seminar darsi", "Aralash darslar", "O'yinchoqlar yordamida dars o'tish", "Kasbga bog'lab dars o'tish", "Badiiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish", "Evrika" (O'ylab top); ta'limning qiziqarli faol usullaridan: "Kichik va katta guruhlarda ishlash", "Rolli o'yinlar", "Sahna ko'rinishi", "Krossvordlar yechish", "Zakovat savollari", "Test-sinov" topshiriqlari, "Turli tarqatma materiallardan foydalanib dars o'tish", "Sinkveyn o'yinlari"; shuningdek, ta'limning innovatsion (yangi) usullari: "Modifikatsiyalashgan ta'lim", "Improvizatsiya", "Aqliy hujum", "Debat", "Tanqidiy tafakkurni rivojlantiruvchi usul", "Klaster usuli", "Muammoli vaziyat", "Muayyan holat, vaziyatni o'rganish, tahlil qilish", "Har kim har kimga o'rgatadi", "Nuqtayi nazaring bo'lsin", "Multimediya" va boshqalarni qo'llashi muhimdir".

Bu borada ta'lim jarayonida multimedia vositalaridan foydalanishning istiqbolli yo'nalishlarini keng joriy etish yo'lga qo'yilmoqda. Ta'limda multimedia vositalaridan foydalangan o'qituvchi nazariy bilimlarni zamoniviy texnika vositalari yordamida namoyish etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu yangilik va ta'bir joiz bo'lsa, ilg'or usul talabalarda qiziqish uyg'otadi, mavzularni puxta o'zlashtirishlariga xizmat qiladi, individual qobiliyatlarini rivojlantirishga, tafakkurini boyitishga, bilimlarini oshirishga yordam beradi. Multimedia resurslari yordamida talabalar u yoki bu mavzuni tezroq o'zlashtiradilar, o'quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadilar.

Og'zaki nutq:

Mavzuga oid matnni o'qib tushunish.

Matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlash.

Matnni reja asosida so'zlab berish.

Yozma nutq:

Turli mamlakatlarning ta'lim tizimlari haqida ma'lumot tayyorlash.

Chet ellik talabalar hayoti aks ettirilgan badiiy asar yoki film haqidagi taassurotlarni yozish.

Turli ta'lim muassasalari haqida polilog tuzish va uni insenirovka qilish.

Eslab qoling!

Komil inson g'oyasi – ham milliy, ham umumbashariy mohiyatga ega bo'lgan, odamzodga xos eng yuksak ma'naviy va jismoniy mukammallikni o'zida mujassam etgan, uni hamisha ezgulikka undaydigan olijanob g'oya. "Komil inson" g'oyasi nafaqat muayyan shaxslarni, balki butun-butun xalqlarni yuksak taraqqiyot sari yetaklagan, ularni ma'naviyat va ma'rifat sohasida tengsiz yutuqlarga ilhomlantirgan g'oyadir. Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodlarni voyaga yetkazish haqida qayg'urmagan xalqning, millatning kelajagi yo'q. Ular tanazzulga mahkum. Milliy g'oyamizning asosiy maqsadlaridan biri – har tomonlama komil insonni tarbiyalash.

Komil inson – qullik, boqimandalikdan batamom xalos bo'lgan inson. Chunki inson birovga quldek ergashsa, demak, ijtimoiy jihatdan u hech narsaga erishmagan bo'ladi. Komil inson o'z maslagi, Vatani, xalqi manfaatlariga yot zararli mafkuralarni tarqatayotgan kimsalar ortidan ko'r-ko'rona ergashib ketavermaydi, ogoh va faol bo'ladi.

Tarbiya – rivojlantirish, parvarish qilish, o'stirish, o'rgatish, ilm berish kabi ma'nolarni anglatadi. Prezident Islom Karimovning "Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz" asarida ta'kidlanganidek, "jondan aziz bolalarimizni o'zgalarning noma'qul tarbiyasi va mudhish ta'siriga tashlab qo'yish – kelajagimizga nisbatan kechirib bo'lmas xiyonatdir".

Mustaqil fikr – yaratuvchanlik va bunyodkorlikning ma'naviy yo'lidir.

Kasbkorlik – jamiyat ma'naviy xavfsizligini mustahkamlaydi. Hunarsiz, ilmsiz odam buzg'unchilikka, jinoyatga moyil bo'ladi. Jamiyat kasbkor insonlar jamiyati bo'lsagina u taraqqiy topadi va rivojlanadi. Aksinchasi o'rinli emas. Agar insonda diplom bo'lsa-yu, mutaxassislik malakasi bo'lmasa – bu ma'naviy yemrilishdir.

O'zbekistonda ilm, kasb-hunarni egallash uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"dan ko'zlangan asosiy maqsad ham jamiyatni kasbkorlar jamiyatiga aylantirishdan iboratdir.

2-topshiriq. Quyidagi gaplarda so'z tartibining buzilishi bilan bog'liq uslubiy xatolarni aniqlang, ularni o'z o'rniga qo'yib, tahrir qilib ko'chiring.

1. Astoydil fermer xo'jaligi a'zolari mehnat qilmoqdalar. 2. Biz xalq shevalarini tasvirlaymiz va o'rganamiz. 3. Texnika – chinakam dehqonning do'sti. 4. U suv ichdi va qaynatdi. 5. Muharrir bo'lib ishlayman jurnalda.

Prezidentimizning 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ham ushbu sohadagi islohotlarni amalga oshirishning muhim huquqiy asoslaridan biri bo'ldi. Mazkur qaror oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalarga mos holda, kadrlar tayyorlashning ma'no-mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Davlatimiz tomonidan oliy ta'lim tizimini rivojlantirish uchun qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

2. Institut binolari va talabalar turar joylarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

3. Siz tahsil olayotgan oliy ta'limda bilimli, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash uchun qanday maqsadli ishlar amalga oshirilmoqda?

4. Prezidentimizning 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror ijrosini ta'minlash maqsadida yurtimizda qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

Adabiy o'qish

Donishmandlar o'gitlari

Agar farzand aqlli va dono bo'lsa, ota-onaning mehr-muhabbatini ado qilishdan bosh tortmaydi. Sen ota-onaning haqiga aql va muruvvat nuqtayi nazardan rioya qil, ko'rgil, ota-ona seni jon –dili bilan parvarish qilinishidir. Agar sen ularga nisbatan xato ish qilsang, sen hech yaxshilikka sazovor emassan, chunki har kishi ota-onaning yaxshiligini bilmasa, birovning yaxshiligiga baho bera olmaydi. O'z farzanding seni hurmat qilishini istasang , sen ham ota-onangni hurmat qil, chunki sen ota-onang uchun nima ish qilsang, farzanding ham shunday ish qiladi. Odam mevaga, ota-ona daraxtga o'xshaydi. Agar daraxt yaxshi bo'lsa, mevasi yaxshi va shirin bo'ladi.

Bilib oling: Til va terminologiya

Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy hamda ilmiy-texnik tub o'zgarishlar davrida yangi yangi fanlar va tushunchalar yuzaga kelmoqda. Jumladan, o'zbek tilida ham yangi terminlar paydo bo'lmoqda, ilgaridan ishlatib kelingan qator leksemalar yangi ma'nolar kasb etmoqda. Shu boisdan leksikologiya, xususan, terminologiya oldida qator muhim masalalarni yechish vazifasi turibdi.

Bugungi kunda terminologiyaning amaliy va nazariy masalalarini yanada chuqurroq o'rganish, terminlar yaratish va

ularni qo'llashni til qonuniyatlari asosida tartibga solish davlat ahamiyatiga molik muammoga aylandi. Shuning uchun ona tilimizning turli terminologik tizimlarini yanada teranroq tadqiq etish, ularni terminologiyaning xilma-xil masalalari bo'yicha atroflicha tadqiq qilish, bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Respublikamiz mustaqil deb e'lon qilingandan keyin, bu sohadagi ahvol butunlay o'zgardi. Tashqi iqtisodiy aloqalar yanada rivojlanib ketdi. Dunyoning juda ko'p mamlakatlari bilan xilma-xil aloqalarga keng yo'l ochildi. Bu omillar o'zbek tilida yangi-yangi terminlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Bu yangi terminlar sirasida iqtisodiy terminologik tizim ham o'ziga xos o'rinni egallab kelmoqda. Shu boisdan fan va texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida iqtisodiy terminlarni ham tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

"Termin" tushunchasiga yuklangan mazmun quyidagicha belgilarga asoslanadiki, bular terminlarni umumiste'moldagi so'zdan farqlash uchun yetarli deb o'ylaymiz:

1) termin – umumadabiy tilning maxsus vazifa bajaruvchi bir turi bo'lmish ishlab chiqarish, fan va texnika tiliga mansub lisoniy birlik, bir so'z yoki birikmadir;

2) termin – konkret narsa-predmet, ashyo, mavhum tushunchalarning maxsuslashtirilgan nomidir;

3) termin uchun muayyan ta'rif (definitsiya) zaruriydirki, uning yordamida tegishli tushuncha mazmunini aniqroq ifodalash, tushunchaning birini ikkinchisidan chegaralab ajratish imkonini beruvchi, ayni mahalda ma'lum tushunchani muayyan tasnifiy qatorga joylashtirishga yo'l qo'yuvchi, farqlovchi belgilarni ravshanroq ko'rsatish mumkin.

Ta'kidlash lozimki, nafaqat iqtisodiyot balki fan-texnika, ishlab chiqarishning xilma-xil soha va terminlar majmui, ya'ni, yig'indisi terminologiya deb ataladi. Masalan, matematika terminologiyasi, tibbiyot terminologiyasi, iqtisodiyot terminologiyasi va boshqalar.

"Maqollar zanjiri" metodi. Maqollardagi nuqtalar o'rniga tushirib qoldirilgan so'zlarni qo'yib chiqing.

Maqollar Javob

1. Dilni dilga ... yaqinlashtiradi.
2. Intizomli lashkar ...mas.
3. Sarishtali uy - ... uy.
4. ... kurashga to'ymas.
5. ... topsa, bo'lib yer, ... topsa bosib yer.
6. Rejali ish – hamisha ....
7. Shoshganda ... topilmas.
8. ... yaltiroqning ... qaltiroq.
9. Qoqilsang ...dan o'pkalama.
10. ... bilan ... egizak.

Mavzu yuzasidan mashqlar

1-mashq. Quyidagi so'z va terminlarni o'qing va tarjima qiling. Ularning qaysi fanga oidligini ayting. Terminlarni guruhlab yozing.

Namuna Fizikaga oid terminlar. Tezlanish,.....

Hujayra, kelishik, qarshili, yurak, tomir, so'z turkumlari, oshqozon, gap, kuchlanish, suyak, qovurg'a, muskul, bog'langan qo'shma gap, ergashgan qo'shma gap, lirika, tuyuq, atmosfera, elektr.

Mustaqil ta'lim

"Dunyoning mashhur universitetlari" mavzusi bo'yicha loyiha yaratish.

Mavzu yuzasidan testlar

1.Prezidentimizning "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori nechanchi yilda qabul qilingan?

A.2016- yil 20 -aprel

B.2017- yil 20 -aprel

S.2019- yil 20 -aprel

D.2020- yil 4 -yanvar

2.Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni nechanchi yilda ishlab chiqildi?

A.2017- yil 7- fevral

B.2019- yil 2- yanvar

S.2018- yil 7- fevral

D.2017- yil 5- fevral

3.O‘z farzanding seni hurmat qilishni istasang.... gapni davom ettiring.

A.Farzanding ham shunday qiladi.

B.Sen ham ota-onagni hurmat qil

S.Chunki sen ota-onang uchun nima ish qilsang

D.Barcha javoblar to‘g‘ri

4.“Termin” tushunchasiga yuklangan mazmun qanday belgilarga asoslanadi:

A. Termin – umumadabiy tilning maxsus vazifa bajaruvchi bir turi bo‘lmish ishlab chiqarish, fan va texnika tiliga mansub lisoniy birlik, bir so‘z yoki birikmadir

B.Termin – konkret narsa-predmet, ashyo, mavhum tushunchalarning maxsuslashtirilgan nomidir

S. Termin uchun muayyan ta’rif (definitsiya) zaruriydirki, uning yordamida tegishli tushuncha mazmunini aniqroq ifodalash, tushunchaning birini ikkinchisidan chegaralab ajratish imkonini beruvchi, ayni mahalda ma’lum tushunchani muayyan tasnifiy qatorga joylashtirishga yo‘l qo‘yuvchi, farqlovchi belgilarni ravshanroq ko‘rsatish mumkin

D.Barcha javoblar to‘g‘ri

5. Terminologik tizimlar

A. Fan taraqqiyoti bilan birgalikda rivojlanib boradi

B. Texnika taraqqiyoti bilan birgalikda rivojlanib boradi

S. Taraqqiyotga aloqador emas

D.Barcha javoblar to‘g‘ri

O‘NINCHI DARS

KITOB MUTOLAASI



Tayanch so‘z va iboralar: buyuk shoir, umuminsoniy qadriyat, ma’naviy yuksalish.

Insonning bilimli, tarbiyali, kasb-hunarli va albatta baxtli va davlatli bo‘lishining muhim omili – bu kitobga do‘st bo‘lish, hamisha kitob o‘qish va kitob mutolaasini umr bo‘yi kanda qilmaslikdir. Ayniqsa, yoshlarning baxtu kamoli, osoyishta va farovon hayotida kitobning alohida o‘rni bor. Chunki yaxshi kitob insonda Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ularini yuksaltirib, yaxshilik hamda ezgulikka undaydi. Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy hazratlari yozganidek: “Kitob – beminnat ustoz, bilim va ma’naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbayi”.

Xalqimiz tilida kitob o‘qish orqali bilim va munosib ta’lim-tarbiya olish, ilm-fan bilan shug‘ullanish, kasb-hunar o‘rganishning ahamiyatiga doir maqollar juda ko‘p. Jumladan,

"Kitobsiz aql – qanotsiz qush", "Baxt belgisi – bilim", "Bilim – aql chirog'i", "Go'zallik – ilmu ma'rifatda", "Ilm baxt keltirar, bilim taxt keltirar", "Hunar – oqar buloq, ilm – yonar chiroq", "Oltin olma, bilim ol, bilim olsang, bilib ol". Bunday purhikmat naqllarni yana uzoq davom ettirish mumkin.

Mustaqillik yillarida matbuot, noshirlik va axborot sohasining mustahkam huquqiy asosi yaratildi. Xususan, bu borada 10 dan ortiq qonun va 30 dan ortiq qonunosti hujjati qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 12-yanvarda imzolangan "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi ana shu ezgu ishlarni yangi, yanada yuksak bosqichga ko'tarishga qaratilganligi bilan g'oyatda ahamiyatlidir.

Farmoyishda qayd etilganidek, bugungi kunda yurtimizda zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi ishlab turibdi. Istiqlol davri arxitekturasining noyob inshooti – poytaxtimizdagi muhtasham "Ma'rifat markazi"da joylashgan Milliy kutubxona fondida qariyb 8 millionta kitob va boshqa manbalar, jumladan, 450 mingtadan ortiq kitobning elektron versiyalari, elektron darslik va qo'llanmalar mavjud. Elektron kutubxonaning ma'lumotlar bazasi o'zbek, rus va ingliz tillarida yaratilgan. Shuningdek, 14 ta viloyat axborot-kutubxona markazi, tuman markazlari va shaharlardagi ta'lim muassasalarida 200 ga yaqin axborot-resurs markazi tomonidan aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko'rsatish yo'lga qo'yilgan.

Yurtimizda kitoblar nashri bilan bir qatorda, ularning savdosi va targ'ibotiga qaratilgan ta'sirchan amaliy qadamlar ham qo'yilmoqda. Xususan, hozirgi paytda "Kitob olami", "Sharq ziyokori" va "O'zdavkitobsavdo ta'minoti" majmualari tomonidan kitob savdosi xizmati ko'rsatilmoqda. Xususan, Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan "Kitob olami" majmuasiga qarashli zamonaviy kitob do'konlari nafaqat Toshkent shahrida, balki

Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlar markazlarida ham ishlab turibdi.

Mamlakatimizda "Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" shiori ostida har yili Respublika "Kitob bayrami" tadbirlarini o'tkazish yaxshi an'anaga aylangan. Aytish joizki, ushbu ma'naviy-ma'rifiy tadbir davlatimiz tomonidan adabiyotni rivojlantirishga qaratilayotgan e'tibor va erishilayotgan natijalarni keng jamoatchilikka yetkazish, xalqimiz, jumladan, yoshlarning kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, ijodkorlar va kitobxonlar o'rtasidagi muloqotni yaxshilash, kitobga bo'lgan ehtiyojini to'liq qoplashda o'z samaralarini bermoqda.

Globallashuv davrida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hayotimizga shunchalik singib ketdiki, nafaqat kundalik faoliyatimiz, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini ham ularsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Axborot texnologiyalarining bu qadar jadal taraqqiy etishi kitobxonlikka ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Bugun jahondagi ko'pgina bosma nashrlarning adadi kamayib, ularning onlayn versiyasi ko'proq o'qilmoqda. Dunyoning eng boy kutubxonalarida saqlanayotgan bosma manbalarning aksariyati elektronlashtirib bo'lindi. Bu jarayonlar mamlakatimizdagi kutubxonlarda ham izchil kechmoqda. Internet va boshqa vositalar jadal rivojlanayotganiga qaramay, insonning ong va tafakkurini charxlash, ma'naviy olamini boyitish, ezgulikni targ'ib etishda bosma kitobning o'rni bundan keyin ham saqlanib qolaveradi. Binobarin, kitob asrlar davomida axborot saqlovchi eng samarali vosita vazifasini bajargan. Qolaversa, ming yil oldin Samarqand qog'ozida bitilgan qo'lyozmalar hozir ham insoniyatga ma'rifat nurini sochmoqda. Zero, kitob — qalb chirog'i, tafakkur qanoti. Ayniqsa, bosma kitobdan taralayotgan va elektron nashrdan topib bo'lmaydigan o'ziga xos yoqimli hidni tuyib, varaqlash asnosida mo'jizaviy sahifalarning sirli shitirlashidan ko'ngil cheksiz zavqqa to'lgan holda, kitob mutolaa qilish, uning mazmuni haqida tengdoshlar bilan fikrlashishning huzur-halovati tamoman o'zgachadir.

Sohibqiron Amir Temur ta'biri bilan aytganda, «Kitob (bitig) barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning, ilmu donishning asosidir, hayotni yaratuvchi murabbiydir». Shu ma'noda, shaklidan qat'i nazar, barcha kitoblar milliy o'zligimiz hamda umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib etishga xizmat qilishi ayni muddao.

Matn yuzasidan savollar

1.Xalqimiz tilida kitob o'qish orqali bilim va munosib ta'lim-tarbiya olish, ilm-fan bilan shug'ullanish, kasb-hunar o'rganishning ahamiyatiga doir qanday maqollarni bilasiz?

2.Mustaqillik yillarida matbuot noshirlik va axborot sohasi bo'yicha qanday qonunlar qabul qilindi?

3.Respublikamizda tashkil etilgan "Ma'rifat markazlari" haqida to'xtalib o'ting.

4. Mamlakatimizda "Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" shiori ostida qanday tadbirlar o'tkazilib kelinmoqda?

Adabiy o'qish

Kitob – misoli xazina

Biz yashayotgan zamin qadim zamonlardan beri madaniyat va ziyo maskani bo'lib, xalqimiz esa dunyoni larzaga keltirgan ulug' zotlarni tarbiyalab, voyaga yetkazgan xalqdir. Bugungi kunda faxrlanib, moddiy meros borasida ham, ma'naviy meros borasida ham dunyoning sanoqli mamlakatlarigina bizning davlatimiz bilan bellasha olishi mumkin deb, baralla ayta olamiz. Asrlar osha qanday yutuq va marralarga erishgan bo'lsak, albatta, buning zamirida halqimizni kitobga bo'lgan mehr va mutolaaga bo'lgan ishtiyoqi mujassam bo'lgan.

Kitob – ilm manbayi, - deydi dono xalqimiz. Ayniqsa, yosh avlodni ma'naviy sog'lom va barkamol etib tarbiyalashda, tafakkur xazinasini boyitishda kitob mutolaasining o'rni

beqiyosdir. Shuning uchun ham, azal-azaldan ilm manbai, ma'naviyat xazinasi sanalgan kitobga munosabat inson ma'naviyatini ko'rsatadigan muhim omillardan biri hisoblangan. Agar, xalqimizning uzoq o'tmishiga nazar tashlasak, buyuk Sohibqiron Amir Temur bobomiz ham yuksak ma'naviyatli inson sifatida kitobni juda qadrlaganliklariga guvoh bo'lishimiz mumkin.

SAVODLILIK-HAYOT ZARURATI

Savodli bo'lish inson uchun suv bilan havoday zarur bo'lgan ulkan hosiyat. Savodsizlik bo'lsa nuqson va ayb hisoblanadi. O'sib kelayotgan farzandlarimiz bu nuqsondan mutlaqo holi bo'lishlari kerak.

Savodxon bo'lish faqatgina o'qish va yozishni biish degani emas. Savosli odam, avvalo xatosiz, ma'nodor va chiroyli yozadi, o'qiganda so'zlarining ma'nosiga, tuzislishiga, ostki-ustki belgilariga qarab o'qiydi. Chunki yozishda ham, o'qishda ham aniqlikka bo'ysinilmasa, harflarning o'rni va be;gilariga e'tibor berilmasa, so'zlarning ma'nosi no'zgarib ketishi, hatto teskari ma'no chiqib ketishi mumkin.

Bunday xatolarning bo'lmasligi uchun odam, eng avvalo chiroyli yozish hunarini egallashi kerak. Agar, harflari aniq va chiroyli yozilgan, belgilari ham o'z o'rniga qo'yilgan bo'lsa, uni o'qigan kishi nxatoga yo'l qo'ymaydi. Bir harfning tushib qolishi, ortiqcha yozilishi yoki bo'lmasa, o'rni almashinib ketishi og'ir vaziyatlarni keltirib chiqarishi ham mumkin. Masalan , "ch" bilan "m" harflari almashib ketsa, "chollar so'zi "mollar"ga aylanib ketadi. Agar "pari" so'zi boshidagi "p" harfi "q' harfi bilan almashib ketsa, "pari' so'zi "qari"ga o'zgarib, taskari ma'noni beradi. Bunday xatoliklarga rasmiy hujjatlarni tayyorlashda yo'l qo'yilsa, odamlarning taqdirlariga ham salbiy ta'sirini, hatto mudhish holatni sodir etishi mumkin. Masalan, "O'lim yo'q, rahm", degan buyruq gapdagi birgina vergulning joyi o'zgarsa,

"O'lim, rahm yo'q", deb mutloqo teskari ma'noni kasb etib, biro damning o'limiga ham olib kelishi mumkin.

Shu sababli yozuv yozganda shunday xatoliklarga yo'l qo'yishdan avval saqlanish kerak. Buning uchun, eng avvalo, savodli yozishni o'rganish lozim. Keyin o'qiganda uqib, har bir so'zning tub ma'nosini tushunib olish darkor. Ana o'shanda bu odamni savodli desa bo'ladi.

Odam yozuv yozganda ko'zi bilan qo'li yayrasin, o'qiganda esa ko'ngli bilan joni yashnasin. Farzandlarimizning, elimizning kelajagi yanada porloq bo'ladi degani.

A.Rustamov

Kitob haqida maqollar

Kitob – aql qayrog'i.

Kitob ko'rmagan kalla – giyoh unmagan dala.

Kitobsiz aql – qanotsiz qush.

Kitoblar – aql farzandlaridir.

Kitoblar jonsiz, ammo sodiq do'stlardir.

Avval bil, keyin qil.
Avval o'rgan, keyin o'rgat.

Baxt belgisi – bilim.
Bilim – aql chirog'i.

Bilim baxt keltirar.

Bilim – davlatdan qimmat.

Bilim – kuchda,
Kuch – bilimda.

Bilimli – olim.
Bilimsiz – zohm.

Bilimliga dunyo yorug‘,
Bilimsizga – qorong‘u.

Bilimlining bilimi yuqar,
Bilimsizning nimasi yuqar.

Bilishim,
Bilishimga tushar bir ishim.

Bilimsiz kishiga ish yo‘q,
Ilmsiz kishiga osh yo‘q.

Bilimsiz mulladan ustiga yuk ortilgan eshak yaxshi.
Bilimsiz xalfa – ekinsiz dala.

Bilmagan ayb emas,
Bilishga tirishmagan ayb.

Bilmagan ishga urinma,
Urinib tuzoqqa ilinma.

Bilmagandan bilgan yaxshi,
To‘g‘ri ishni qilgan yaxshi.

Bilmaganni so‘rab o‘rgangan olim,
Orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim.

Bilmaganning bilagi tolmas.
Bilmas tabib jon olar.

Bilmasang, bilgandan so‘ra.
Go‘zallik – ilm-u ma'rifatda.

Zehn qo'ysang bilimga,
Ilm tomar dilingga.

Ilm – aql bulog'i,
Aql – yashash chirog'i.

Ilm baxt keltirar,
Bilim taxt keltirar.

Ilm izlagan yetar,
Izlamagan – yitar.

Ilm istasang, takror qil.

Art – klaster metodidan foydalanib rasmga xos matnlar tuzing.



Matnda tanishib chiqqan bilimlaringizni so'rov texnologiyasi orqali ushbu jadvalni to'ldiring.

"So'rov" texnologiyasi

Men bildim	
Men tushundim	
Men ajablandim	
Men o'ylanib qoldim	
Men o'rgandim	

Erkin va turg'un birikmalar

Bilib oling: Nutqda fikr ifodalash uchun barqaror birikmaga ehtiyoj mavjud. Masalan, kuchli hayron bo'lib qolganlikni ta'sirchan ifodalash uchun ***hayron bo'moq*** fe'li yetarli emas. Shunda barqaror birikma qo'llanadi. **Og'zi ochilib qoldi.**

Og'zi ochilib qoldi – ibora. U ikki mustaqil so'zdan iborat bo'lib, nutqqacha tayyor holda kelgan. Nutqdan keyin ham ongimizda shu holicha turadi. Uning atash ma'nosi **hayron bo'lmoq** fe'lining atash ma'nosiga teng bo'lsa-da, qo'shimcha, ya'ni hissiy va uslubiy ma'nosi bilan farqlanadi.

O'zbek tilida barqaror birikma sifatida maqol, metal, ibora e'tirof etiladi. Tilsunoslikning barqaror birikmani o'rganuvchi bo'limi **paremiologiya** (lotincha **parema** – "barqaror", **logos** – ta'limot), uning lug'atini tuzish bilan mashg'ul bo'luvchi soha **paremiografiya** (lotincha **parema** – "barqaror", grapho – yozmoq) deyiladi.

Ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zning bir grammatik butunlik, ma'noviy yaxliylik tashkil etib, murakkab tushuncha yoki tugal fikrni ifodalaydigan so'z bog'lanishi **erkin bog'lanish** deyiladi. So'z birikmasi va gap erkin birikmaga kiradi. Chunki so'z birikmasi va gap nutq jarayonida hosil qilinadi.

Ikki va undan ortiq so'zning qotib qolib, nutqda tayyor holda ishlatiladigan bog'lanishni barqaror, turg'un boglanishni tashkil qiladi.

Barqaror birikma qo'shma so'z va so'z birikmasidan quyidagi xususiyati bilan farq qiladi:

1. Barqaror birikmada birdan ortiq so'z birikib ko'chma ma'no ifodalaydi.

2. Barqaror birikmani tashkil etgan barcha so'z shu gap tarkibida butunligicha bir bo'lak yoki bir gap vazifasida keladi.

3. Barqaror birikmaning tarkibiy qismi qay'iy bir qolipga kirgan bo'ladi.

Demak, alohida rasmiylashgan, tarkibining barqarorlgi bilan ajralib turadigan, yaxlitligicha qo'llanish xususiyatiga ega, tayyor holda mavjud, obrazli, jozibali, ma'no jihatdan shakllangan so'z bog'lanmasi barqaror birikma deyiladi.

Barqaror birikmani "buzish" – unga so'z kiritish, almshtirish, olib tashlash mumkin emas.

Grammatik mavzu bo'yicha topshiriqlar

1-topshiriq. Berilgan gaplarni erkin va barqaror birikmalarga ajrating va farqini ayting.

1. Toshkentdagi istiqlol davrida qurilgan inshootlarni ko'rib og'zim ochilib qoldi. Yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda, deydi xalqimiz. 3. Kechagi majlisda menga ham til tekizibdi. 4. Bahorning mayin shabadasi daraxt shoxlarini tebratdi. 5. Oltin o'tda bilinadi, odam mehnatda bilinadi. 6. Arslon izidan qaytmas, tigit so'zidan. 7. Tuyaning dumi yerga yetganda qarzini to'laydi. 8. Bir tariqdan bo'tqa bo'lmas. 9. Ular bir yoqadan bosh chiqarib mehnat qiladilar.

2-topshiriq. Erkin va barqaror birikmalar haqidagi nazariy bilimlarni o'zlashtirib barqaror birikmalarga misol topib daftaringizga yozing.

3-topshiriq. Venn diagrammasi asosida erkin va turg'un birikmalarni taqqoslang va tahlil qiling.

VENN DIAGRAMMASI	Erkin birikmalarning o'ziga xos xususiyatlari
X	Y
Turg'un birikmalarning o'ziga xos xususiyatlari	Erkin va turg'un birikmalarning farqli jihatlari

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari

1. Sh.M.Mirziyoyevning "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi qachon imzolangan?

A. 2017- yil 12-yanvarda
B. 2018- yil 15-anvada
S. 2017- yil 12 -fevral
D. 2017- yil 14 -fevral

2. Bilmagan ayb emas. Ushbu maqolni davom ettiring.

A. Bilimga kirishmagan ayb
B. Bilimga tirishmagan ayb
S. O'qishga intilmagan ayb
D. O'qishga kirishmagan ayb

3. Tilshunoslikining barqaror birikmani o'rganuvchi bo'limi qanday nomlanadi?

A. Paremiologiya
B. Semasiologiya
S. Leksikologiya
D. Grammatika

4.Og‘zi ochilib qoldi iborasining ma’nosi?
A. Xayron bo‘lmoq.
B. Xafsalasi pir bo‘lmoq
S. Xafa bo‘lmoq
D. Qad ko‘tarmoq

5. Ilm topmay.....
A. Kekkayma
B. Maqtanma
S. Izlanma
D. To‘g‘ri javob yo‘q

O‘N BIRINCHI DARS

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY KUTUBXONASI



Tayanch so‘z va iboralar: milliy kutubxona, nashr, san'at, matbaa, matbuot

Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi axborot va madaniy-ma’rifiy muassasa bo‘lib, kutubxonachilik, bibliografik, ilmiy tadqiqot, ilmiy-metodik va axborot faoliyatini olib boradi. Kutubxona fondi mazmunan universal milliy va xorijiy matbuotning noyob to‘plamidir. Kutubxona faoliyatining

bosh maqsadi butun insoniyat bilimini aks ettirgan, avvalo, O'zbekistonga va uning milliy manfaatlariga taalluqli hujjatlarning universal fondini yig'ish, saqlash hamda jamiyat foydalanishi uchun taqdim etishdir.

Noyob va nodir nashrlar fondi kutubxona kitob kollektsiyasining faxridir. U 250 mingdan ortiq nashrdan iborat. Ularning 15 mingdan ortig'i nodir kitoblar hamda qo'lyozmalardir. Kutubxonaning o'ta noyob to'plamida O'rta Osiyoning 1917-yilgacha bo'lgan tarixi, etnografiyasi, madaniyati va geografiyasiga oid o'ziga xos entsiklopediya bo'lgan 594 tomlik noyob "Turkiston to'plami" hamda A.P.Kun tuzgan 4 qismdan iborat 10 tomlik 1200 noyob fotosuratlarni o'z ichiga olgan Turkiston o'lkasi aholisining turmush tarzi, urf-odatlari to'g'risidagi «Turkiston albomi» alohida o'rin egallaydi.

Respublika tarixi bo'yicha XIX asrning oxiri XX asrning birinchi choragidagi o'lkashunoslik mavzusidagi adabiyotlar, birinchi Turkiston vaqtli nashrlari, qo'lyozma kitoblar kollektsiyasi, muqaddas kitob – Qur'onning turli nashrlari tadqiqotchilarda katta qiziqish uyg'otadi. Buyuk ajdodlarimiz Al-Buxoriy, At-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshbandiy, Al-Xorazmiy, Al-Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bobur asarlari kutubxona fondida ko'z qorachig'idek saqlanmoqda. Cho'lpon, Fitrat, U.Nosir, Hamza, G'.G'ulom, A.Qahhor va boshqa ijodkorlarning hayotligida chop etilgan asarlarning ilk nashrlari ham shular jumlasidandir.

Kutubxonaning San'at bo'limi o'ziga xos notali-musiqaviy asarlar to'plamini, o'zbek klassik va jahon musiqasi gramplastinka yozuvlarini, 150 mingdan ortiq tasviriy va amaliy san'at nashrlarini o'zida jamlagan.

Texnikaga doir adabiyotlar (2 mln.dan ortiq nusxada) ham mazmuniga ko'ra o'ziga xos bo'lib, me'moriy-texnik hujjatlar, sanoat kataloglari (qog'ozda) to'plami 33700 nusxadan ortiqdir.

Avtomatlashtirish yangi axborot texnologiyalari bo'limi yagona avtomatlashgan kutubxona tizimini qo'llaydi va rivojlantiradi, elektron katalog hamda elektron ma'lumotlar

bazasini yaratishda metodik yordam beradi. 1988-yildan kutubxonachilik jarayonini avtomatlashtirishga, 1999-yildan Rossiya Davlat Ilmiy texnika kutubxonasining IRBIS avtomatlashtirilgan axborot dasturidan foydalangan holda vatanimiz va chet el yangi nashrlarining elektron katalogini yaratishga kirishildi. Kutubxonaning elektron katalogi bugungi kunda 25 mingdan ortiq yangi adabiyotlarning bibliografik yozuvlari va davriy nashrlarning analitik yozuvlarini saqlaydi. Kutubxona o'z ma'lumotlar bazasini yaratmoqda va "Curret Content", "MicroMedex", "Medine", EBSCO va ma'lumot bazalari bilan ishlash imkoniyatidan unumli foydalanmoqda.

Kutubxona o'z nashriyot va bosmaxonasiga ega bo'lib, noshirlik hamda matbaa faoliyati bilan shug'ullanadi. Kutubxona 1923-yildan boshlab bosma asarlardan majburiy nusxa ola boshlagan. 1948-yilda kutubxonaga Alisher Navoiy nomi berilgan. Kutubxona 1956-yildan buyon xalqaro kitob almashuvini amalga oshirib, uning sheriklari jahonning 24 mamlakatidan 30 dan ortiq tashkilotlardir. Kutubxona yirik xalqaro kutubxonachilik tashkilotlari: IFLA, Yevro Osiyo kutubxonalar Assotsiatsiyasi, elektron kutubxonalar va yangi axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchilar hamda foydalanuvchilar xalqaro Assotsiatsiyasining a'zosi.

Kutubxona ko'plab xalqaro tashkilotlar va jamg'armalar bilan, shuningdek, O'zbekistonda akkreditatsiya qilingan chet mamlakatlarning elchixonalari bilan mustahkam ijodiy aloqalar o'rnatgan bo'lib, madaniyati, diniy qarashlari va tarixiy ildizlari turlicha bo'lgan xalqlarning yaqinlashishiga o'zining hissasini qo'shmoqda. Hozirgi kunda kutubxona fondi jahonning 75 tillarida deyarli 10 mln. nusxaga yetgan.

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi respublikamizdagi barcha kutubxonalarga kutubxonashunoslik, bibliografiyashunoslik va kitobshunoslik sohalari bo'yicha metodik rahbarlik qiladi.

Og'zaki nutq:

Mavzuga oid matnni o'qib tushunish.

Matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlash. Matnga munosabat bildirib so'zlash.

Yozma nutq:

Universitet kutubxonasi haqida matn tuzish.

Elektron kutubxona bilan ishlash bo'yicha tavsiyalar yozish.

Badiiy asarlarga bag'ishlangan internet saytlarining ro'yxatini tuzish.

Adabiy o'qish

Sharafli burch

Bir kuni mavlono Alisher Navoiy mulozimlari bilan otda uzoq tog' sayridan qaytib kelayotgan ekan. Yo'l qabriston oralab o'tar ekan. Qabristonga yuz qadam chamasi qolganda, mavlono otdan tushib, boshini quyi solib yo'lida davom etibdi. Mulozimlari ham otlaridan tushib, uning orqasidan ergashibdilar. Qabristondan ancha uzoqlashgandan keyin yana otlaridan tushib, uning orqasidan ergashibdilar. Qabristondan ancha uzoqlashgandan keyin yana otlarga minib, yo'rtib ketishibdi. Bir oz yurishgandan so'ng mulozimlar shoirning qabristonga yaqinlashganda otdan tushishi sababini so'rabdilar. Alisher navoiy ancha vaqt sukut saqlab turibdi-da, keyin mulozimlaridan norozi ohangda shunday deb javob beribdi.

-Bu yerda xalqimizning jigargo'shalari, tabarruk padari buzrukvorlari mangu uyquga ketganlar. Bular yonidan ot choptirib, changitib o'tish insonlik sha'niga isnoddir, nahotki shuni ham bilmasalaring? Buni bilmaslik – tiriklildagi o'liklikdir. Ota-bobolar haqini, xotirasini e'zozlamoq har bir kishining sharafli burchidir.

Mulozimlar otasi oldida ayb ish qilib qo'ygan boladek to Hirotning qorasi ko'ringuncha tillarini tishlab, aqlni peshlab boribdilar.

("El desa Navoiyni" asaridan)

Matn yuzasidan topshiriqlar.

1-topshiriq:

a) matnni o'qing;

b) matn yuzasidan savollar tuzing;

c) matnni qismlarga ajrating va sarlavha qo'**ying;**

d) "Alisher Navoiy va zamonamiz" mavzusida taqdimot tayyorlang.

2-topshiriq. Matndagi tayanch so'zlarni yodda tuting:

"Nima uchun?" usuli orqali talabalar Navoiy hayoti va ijodiga doir muammolarga javob yozadilar



Bilib oling: Frazeologik birliklarning turlari va uslubiy xususiyatlari

Til fanining iboralarni o'rganadigan bo'limi *frazeologiya* deyiladi. Ikki va undan ortiq mustaqil so'zlar yoki gaplar bir ko'chma ma'noni ifodalaydi. Shunday ibora va gaplar barqaror

bo'ladi. Ular obrazliligi, jozibadorligi bilan ajralib turadi. Masalan: *yuragi qon bo'ldi, ko'ngliga qil sig'maydi.*

Frazeologik ibora va gaplar so'zlarning ko'p ma'noli (polisemiya) bo'lishiga asoslanadi, shuningdek, ikki va undan ortiq mazmunni ifodalaydi: *O'zini qayerga qo'yishni bilmadi - sevinchdan hayajonlanmoq, zerikib yoki bekorchilikdan toqatsizlanmoq* va boshqalar. *Mazasi qochdi - sog'ligi yomonlashdi, ishi inqirozga uchradi.* Frazeologiyaning tarkibida idiomalar ham bo'lib, ular ma'lum tilgagina xos bo'ladi va boshqa tillarga so'zma-so'z tarjima qilib bo'lmaydi: *Ammamning buzog'i. Yuragi shuv etib ketdi. Gapning po'st kallasi. Oyoqni qo'lga olib chopmoq* va h.k. Idiomalarda shakllangan mantiqqa to'g'ri kelmaydigan fikr, voqea, hodisa ifodalanadi.

Nutqiy ta'sirchanlik frazeologizmlarni qo'llash bilan ham vujudga keladi. Oddiy so'zga nisbatan frazeologizmlar (iboralar)da ta'sirchanlik kuchli bo'ladi. Masalan: Boya qishloqdan dadasi keldi. Dadasi nimadandir asabi buzilib, *qovog'idan qor yog'ib* keldi-yu, o'g'li bilan ko'rishib bo'lmasdanoq Vohid Mirobidov qo'ng'iroq qildi (O. Yoqubov). Bu gapdagi *xafa* ma'nosini ifodalovchi *qovog'idan qor yog'ib* frazeologizmi fikrning ta'sirchanligini oshirgan.

Frazeologizmlar zaminida uzoq o'tmishda bo'lib o'tgan voqea-hodisalar, turmush haqiqati inson ongida mujassamlashgan, sayqallashgan obrazlarning tasavvurlari siqiq, sintaktik qoliplashgan bo'lib, avloddan-avlodga meros bo'lib kelgan. Fikrimizning isboti uchun misollarga murojaat etaylik: *bir yoqadan bosh chiqardi, shaytonga dars beradi, chuchvarani xom sanama, temirni qizig'ida bos, suvga olib borib sug'ormay keladi, beli og'rimaganning non eyishini qara, tegirmonga tushsa butun chiqadi, otdan tushsa ham egardan tushmaydi, to'ydan oldin nog'ora chalma, tepa sochi tika bo'ldi, ko'zi to'rt bo'ldi* va h.k.

Frazeologizmlarning maqolga aylangan qismi xalq aql-idrokining mahsuli, uning hukmi, ko'p asrlik tajribalari, turmushdagi turli voqea-hodisalarga aqliy munosabati natijasidir. Donishmandlarning ta'kidlashlaricha, "Xalq maqoli -

xalqning mulkidir. Maqol qayg'usi - xalq qayg'usi, maqol g'azabi - xalq g'azabi, maqol kulgusi - xalq kulgusi va maqol kinoyasi - xalq kinoyasi demakdir".

Hayotda insonlar goho sevinadi, quvonadi, goho qayg'u, alamli kechinmalarga duchor bo'ladi. Ana shunday turli-tuman ruhiy holatlarga, tevarak-atrofdagi voqea-hodisalarga munosabatda kishilar o'z nutqlarida tayyor holdagi qoliplashgan iboralarga murojaat etadilar. Chunonchi, *o'tirsa o'poq, tursa so'poq deydi* (biror ayb topib kamsitish), *o'l desang o'ladi, tiril desang tiriladi* (gapga kiradigan kishi haqida), *burnidan buloq bo'ldi* (zoe ketdi, tatimadi), *ona suti og'zidan ketmagan* (hali yosh, tajribasiz), *peshonasi taq etib devorga tegdi* (o'z bilganidan qolmay, oxiri holi tang bo'ldi), *o'z yog'iga o'zi qovurildi* (ruhiy azob chekdi), *baland oxurdan em egan* (dimog'dor), *arqonni uzun tashladi* (biror yomon, noo'rin ishning oqibatini kutish), *tarvuzi qo'ltig'idan tushdi* (maqsadi puchga chiqdi), *qulog'idan kun ko'rinadi* (juda ozg'in, betob odam haqida) va h.k.

Grammatik mazu bo'yicha topshiriqlar

1-topshiriq. Berilgan iboralarning ma'nolarini izohlang va gaplar tuzing.

Otni qamchilamoq, otning qashqasiday, oshig'i olchi, og'ir tabiatli, popugi pasaymoq, pushaymon yemoq, rangida qon qolmadi, yuzi yorug' bo'ldi, to'ydan oldin nog'ora chalmoq, tuyaning dumi yerga tekkanda, tuyaning ustida ham it qopadi, to'nini teskari kiyib olmoq, to'rt tarafi qibla.

2- topshiriq. Yozuvchilarning asarlaridan 20 ta iborani topib daftaringizga yozing va izohlang.

3-topshiriq. Quyida berilgan omonim, sinonim, antonim iboralarni ajratib ustun shaklida yozing.

Toqati toq bo'lmoq, yaxshi ko'rmoq, terisiga sig'madi, ko'kka ko'tarmoq, savol bermoq,yuragi keng, ko'ngli joyiga tushdi, ko'ngliga tugmoq, avzoyi buzildi, ko'ngli oq, qo'li uzun, gapida turmoq, gap tegdi, qo'ldan chiqarmoq, ichagi uzildi.

HAMKORLIKDA O'QITISH TEXNOLOGIYASINING KICHIK GURUHLARDA ISHLASH METODI UCHUN O'QUV TOPSHIRIQLARI

1. Talabalar o'zlashtirishi lozim bo'lgan materiallar yuzasidan O'QUV TOPSHIRIQLARI

№	Ma'ruza matnini diqqat bilan o'qib, quyidagi savollarga javob toping va topshiriqlarni bajaring:	Topshiriqni bajarish yuzasidan ko'rsatmalar
1.	Frazeologiya atamasiga izoh bering.	Talabalar guruhi bilan hamkorlikda ishlang.
2.	Frazeologik birliklarning turlari va uslubiy xususiyatlari	
3.	Tilning ijtimoiylik belgilarini aytib bering.	
4.	Tilning kommunikativ belgisi deyilganda nima nazarda tutiladi?	Talabalar jamoasi bilan o'tkaziladigan savol-javobda faol ishtirok eting.
5.	Chegaralangan va chegaralanmagan leksika haqida ma'lumot bering.	
6.	Adabiy til milliy tilning boshqa shakllaridan qanday xususiyatlariga ko'ra farqlanadi?	
7.	Ijtimoiy dialekt va hududiy dialekt tushunchalarini izohlang.	
8.	Nutqiy ta'sirchanlik so'zini ifodalang	
9.	Iboralarga ta'rif bering	
10.	Maqol hamda iboraning bir-biridan farqini toping.	
11.	Frazeologik ibora haqida to'xtaling.	

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari

1. A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nechanchi yildan boshlab bosma asarlardan majburiy nusxa ola boshlagan?

A.1923- yildan boshlab
B.1926 -yildan boshlab
S.1930- yildan buyon
D.1935- yildan buyon

2. Nechanchi yilda O'zbekiston Milliy kutubxonasiga A.Navoiy nomi berilgan?

A.1946- yilda
B.1948- yilda
S.1950- yilda
D.1960- yilda

3. A.Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nechanchi yildan buyon kitob almashinuvini amalga oshirgan?

A.1956- yilda
B.1958- yilda
S. 1960- yilda
D.1959- yilda

4. Til fanining iboralarni o'rganadigan bo'limi qanday nomlanadi?

A.Frazeologiya
B.Stilistika
S.Leksikografiya
D.Sintaksis

5. Mazasi qochdi iborasining ma'nosi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.

A.sog'ligi yomonlashdi
B.harakatlari susaydi
S.ishi yurishmadi
D.S va b javoblar

O'N IKKINCHI DARS

ADABIYOT – MA'NAVIYATNI YUKSALTIRUVCHI MANBA



"Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor".
Islom Karimov

Tayanch so'z va iboralar: *badiiy ijod,intellektual salohiyat, milliy adabiyot, yozuvchi, milliy o'zlik, adabiy meros, tafakkur.*

Asrlar mobaynida badiiy ijod, badiiy adabiyot – milliy ma'naviyatimiz ko'zgusi bo'lib kelgan. Buni o'zbek she'riyatining gultoji deya e'tirof etilgan Mir Alisher Navoiy davridan to bugungacha o'tkir qalam sohiblari yaratishgan badiiy ijod mahsullariga payvand milliy qadriyatlarimiz, ma'naviyatimiz rivoji misolida kuzatishimiz mumkin.

Sobiq mustabid tuzum davrida milliy qadriyatlarimizga, ma'naviyatimizga, jumladan, milliy adabiyotimizga ham beshafqat tajovuz qilingan edi.

Adabiyotimizning XX asr boshlaridagi asl darg'alaridan Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Usmon Nosir kabi o'nlab yozuvchi,

shoirlari qatag‘on qurboni bo‘lgani millat qalbidagi bitmas jarohatdir.

Ona Vatanimiz mustaqilligi butun jamiyatga qaytadan hayot baxsh etdi! Nomlari, asarlari ta’qiqlab qo‘yilgan yozuvchi va shoirlarimizning xotirasi e’zozlanib, ularning adabiy merosi qaytadan tiklandi. Katta hayot tajribasiga ega bo‘lgan yozuvchilarimiz o‘tish davrining qiyinchiliklariga qaramasdan, qalb amri bilan o‘z ijodiga sodiq qolib, milliy o‘zligimiz hamda ma’naviy qadriyatlarimizni tiklash va yuksaltirish yo‘lida faol xizmat qilib kelmoqda.

Chinakam yozuvchi odamlarning dardu g‘ami bilan yashashi, xalq ichiga kirib borishi, o‘zi uchun ilhomni, yangi mavzularni shu hayotdan, unda bo‘layotgan o‘zgarishlardan olishi kerakligi kunday ravshan. Biroq bugungi shiddat bilan o‘zgarayotgan zamonning o‘zi o‘rtaga ulkan va dolzarb muammolarni qo‘yayotganini ham aslo unutish mumkin emas. Bunday muammolarni ta’lim va tarbiya, ma’naviyat, madaniy hayotni rivojlantirish orqaligina hal etish mumkinligini chuqur anglaymiz. XXI asrning qanchalik shiddatli ekanini ko‘rib turibmiz. Bugun har qanday axborot, yangilik zumda kurrai zaminga nur kabi taralmoqda. Adabiyot bo‘stonida yaratilgan badiiy asarlar ham internet nashrlari orqali juda tezlik bilan o‘quvchilarga yetib bormoqda. Shu asnoda intellektual salohiyat, tafakkur va ma’naviyat asri o‘zining shaklu shamoyilini topmoqda.

Shunga monand adabiyot ixlosmandlarining ongu tafakkuri ham o‘zgacha shakllanmoqda. Biz ilgari ko‘rmagan, duch kelmagan ayrim muammolar ham shu asnoda paydo bo‘layotir. Bu — milliy mentalitetimizga to‘g‘ri kelmaydigan yot g‘oyalar bilan bog‘liq muammolar hisoblanadi.

Aytish o‘rinliki, mafkuraviy tahdidlar ayrim badiiy adabiyotlar orqali ham kirib kelayotganidan aslo ko‘z yumib bo‘lmaydi. Ana shunday murakkab va tahlikali zamonda yozuvchilar ertangi kunimizni o‘ylab, odamlarni ezgulikka, insof-diyonat, mehr-oqibatli bo‘lishga da’vat etadigan asarlar yaratishi

g'oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. Asrlar mobaynida badiiy ijod, badiiy adabiyot – milliy ma'naviyatimiz ko'zgusi bo'lib kelgan. Buni o'zbek she'riyatining gultoji deya e'tirof etilgan Mir Alisher Navoiy davridan to bugungacha o'tkir qalam sohiblari yaratishgan badiiy ijod mahsullariga payvand milliy qadriyatlarimiz, ma'naviyatimiz rivoji misolida kuzatishimiz mumkin.

Bugunning yoshlari o'zlarini qiziqtirgan axborot va ma'lumotlarni asosan internet orqali olyapti. Shunday ekan, ana shu ta'sirchan zamonaviy axborot vositalari yordamida ham adabiyotimizni keng targ'ib etish maqsadga muvofiqdir.

Shu o'rinda aytish mumkinki, bugungi kunda milliy internet tarmoqlarimizda qator veb-saytlar bu borada salmoqli vazifalarni amalga oshirmoqda. Demak, bundan buyon o'zbek tilidagi internet adabiyotini shakllantirish, shoir va yozuvchilarimizning o'z veb-saytlariga ega bo'lishiga erishish nafaqat adabiy jarayonga, kerak bo'lsa, butun ma'naviy-ma'rifiy hayotimizga kuchli ta'sir o'tkazishi shubhasizdir. Yoshlarning ongida manaviy bo'shliq hosil bo'lmasligini ta'minlash ham bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Dunyoning turli mintaqalarida ziddiyatlar va beqarorlik kuchaygan, ixtiloflar davom etayotgan bir sharoitda biz yoshlarimizni — o'z farzandlarimizni turli zararli tasirlardan himoya qilishimiz zarurligini yoddan chiqarmasligimiz kerakligini takidlaydi. Ijod ahli esa o'z iste'dodlari bilan odamlarning ongi va dunyoqarashi, madaniy saviyasini yuksaltirishga qodirdir. Yozuvchilar doimo hayot bilan hamnafas bo'lishi, o'z xalqining dardi bilan yashashi, haqiqat va adolatga sadoqat bilan xizmat qilishi zarur. Zero, milliy adabiyot — ma'naviyat poydevori hisoblanadi. Shunday ekan, chinakam ijod va iste'dod mahsuli bo'lgan asarlarni keng kitobxonlar ommasiga etkazish davr talabidir. Bu ezgu yo'lda ijodkorlar, nashriyotlar, bosma nashrlar tahririyatlari qo'lni qo'lga berib, barcha mavjud vositalardan unumli foydalanishlari maqsadga muvofiq.

Og'zaki nutq:

Mavzuga oid matnni o'qib tushunish.

Matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlash.

Matndagi asosiy fikrni ajratib so'zlab berish.

Yozma nutq:

Badiiy asar qahramoni o'quvchini qanday tarbiyalashi haqida fikr bildirish va unga misollar keltirish.

Mashhur adabiy qahramonlar haqida taqdimot tayyorlash.

Adabiyot haqidagi hikmatli so'zlardan namunalar yozish.

Adabiy o'qish

"Kitob - beminnat ustoz. Har daqiqa u bizni donishmandlarning bilim xazinasi bilan oshno eta oladi", deb yozadi buyuk shoir va mutafakkir Mir Alisher Navoiy.

Ma'lumki, aholining intellektual va ma'naviy-estetik ehtiyojini qondirish, xususan, yoshlarni mustaqil fikrlaydigan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar va ma'nan barkamol insonlar qilib tarbiyalashda kitobning o'rni beqiyosdir.

Bugungi axborot asrining ilg'or texnologiyalarisiz hayotimizni tasavvur qilolmamasak-da, tengdoshlarimiz orasida kitobga oshno bo'lgan yoshlarning borligi quvonarli holdir. Ko'cha ko'yda, transportlarda qo'llarida kitob tutgan insonlarni ko'rib quvonamiz.Afsuski, ba'zan yoshlar orasida qimmatli vaqtini behuda ishlarga, xususan, haddan tashqari ko'p kompyuter va qo'l telefoni o'yinlarini o'ynash, mazmunsiz filmlarni ko'rishga sarflashlari to'g'ri emas. Buning o'rniga, o'qishdan tashqari o'tadigan vaqtini samarali ishlar uchun rejalashtirishi maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, kunning ma'lum qismlarini foydali kitob mutolaasi uchun ajratish muhim ahamiyatga ega. Chunki, "yoshlikda olingan ilm toshga o'yilgan naqsh" yanglig' o'qigan kitobi yillar o'tsa-da hayotda albatta asqotadi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1-topshiriq. Jadval grafik organayzeri

Jadval grafik organayzeri metodi o'quvchi o'rganilayotgan mavzu, muhokama etilayotgan masala yoki muammoning nazariy mohiyatini jadval asosida aks ettirish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Uni qo'llashda o'quvchi mavzu mohiyatini og'zaki bayon yoki yozma matn ko'rinishida emas balki asosiy g'oya , tayanch tushuncha, muhim jihatlarini jadvalda aniq, qisqa ifodalash ko'nikmalarini o'zlashtiradi.

Mohiyati	Adabiyotning turlari				
Maqsadi					
Vazifalari					
O'ziga xos jihatlari					

2-topshiriq. Klaster grafik organazeridan foydalangan holda topshiriqni bajaring.

Nimani o'ylagan bo'lsangiz , uni qog'ozga yozing! Fikringizning sifati haqida o'ylab o'tirmay , shunchaki yozib boring.

Yozuvingizning orfografiyasi va boshqa jihatlariga e'tibor bermang

Belgilangan vaqt nihoyasiga yetmagunicha, yozishdan to'xtamang. Agar ma'lum muddat o'ylab olmasangiz, u holda qog'ozga biror narsaning rasmini chiza boshlang! Bu harakatni yangi g'oya tug'ilguniga qadar davom ettiring.

Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko'proqyangi g'oyalarni ilgari surish, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, bog'liqlikni ko'rsating.

3-topshiriq. Keltirilgan matnga o'xshash matn tuzing.

Adabiyot, san'at to'g'risida

Adabiyot-xulq-atvorning tarbiyachisi.
Adabiyot –ham achchiq, ham chuchuk.
Adabiyot –insonning ongi bilan saviyasini, ruhi bilan hamiyatini tarbiyalaydi, dunyoqarashini shakllantiradi, unga insoniylikni , odamgarchilikni va qanday yashash kerakligini o'rgatadi.
Adabiyot hayotning bir qismi sifatida uning barcha yo'llarini ko'rsata oladi. Har bir yaxshi asar yurak dardi va tug'yoni bilan tug'iladi.
Asarni kuzatish oson, tuzatish qiyin.
Badiiy asar –unsiz qo'shiq
Badiiy san'atning joni- ishontirishda
Hikmatli so'z –teran o'y va ko'rkam ko'ngildan chiqadi.
Haqiqiy inson o'z tilining sohibidir.

GRAMMATIKA

Badiiy nutq uslubi va uning xususiyatlari

Bilib oling: Voqelikni badiiy idrok etish va uni ifodalashning asosiy vositasi badiy uslub hisoblanadi. Badiiy uslub insonning fe'l-atvorini, uning ichki dunyosini, ruhiy holatlarni, tabiatdagi turli voqea-hodisalarni tugal, butun murakkabligi bilan ifodalash imkoniyatini o'zida mujassam qilganligi bilan ham diqqatga sazovordir. Badiiy nutq uslubining enh muhim xususiyati tasviriylik va emotsionallik hisoblanadi. Badiiy uslub so'z zahirasidagi so'zlar yordamida inson qalbi va tabiatining eng nozik nuqtalarigacha tasvirlash imkoniyatiga ega.

Badiiy nutq uslubi juda xilma –xil ko'rinshlarda namoyon bo'ladi. Badiiy nutq uslubi mualliflarga asarning estetik ta'sirini kuchaytirish uchun tilning barcha leksik va grammatik vositalaridan ustalik bilan foydalanish, tanlash, shuningdek, yangidan-yangi ifoda vositalari yaratish imkonini beradi. Badiiy nutq uslubida til obraz, xarakter va manzaralar yaratish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Grammatik mavzu yuzasidan mashqlar

1-mashq. Ushbu to'rtlikdan badiiy uslubga xos so'zni toping.

Yulduzlar ko'zgusi –soyga tikilib,
Xayolning izmidan chiqmay bir qadam,
Tanholik qafasi tordir-siqilib,
Turibman chorasiz –xotirga qaram
X.Nurullayev

2-mashq. Suv, tog', xat, bola, ayanch, daraxt, jozibador, xushsuxan. Keltirilgan so'zlardan badiiy uslubga xos so'zlarni toping. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

4-topshiriq. Badiiy nutq uslubi yuzasidan olgan bilimlaringizni tekshiring.

Badiiy uslub qanday uslub?

Badiiy uslub haqidagi ta'rif		**Badiiy uslubning boshqa nutq uslublaridan farqli tomonlari**
1.		

2.		
3.		

Muhokama uchun savollar:

1. Badiiy uslubda yozuvchi tilde mavjud bo'lgan qaysi vositalardan foydalanmaydi?

2. Shevaga xos so'zlar uslublarning qaysi birida ishlatilishi mumkin?

3. Nazmiy, nasriy asarlar, roman, novella qaysi uslubda yoziladi?

4. Qaysi uslub kitobxon (tinglovchi) ga ma'lumot berishdan tashqari ta'sir ko'rsatish vazifasini ham bajaradi?

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari

1. Voqelikni badiiy obrazlar vositasida aks ettirib, tinglovchi yoki o'quvchiga estetik jihatdan ta'sir qiluvchi, badiiylikka, ifodaviylikka, ta'sirchanlikka ega bo'lgan uslub qaysi?

A.Ilmiy uslub
B.Badiiy uslub
S.Rasmiy uslub
D.So'zlashuv uslubi

2. Keltirilgan to'rtlikdan badiiy uslubga xos so'zi toping.

A.qadri ulug'
B.qatra mehr
S.Atrof
D.Izlab atrofni

3. Badiiy nutq uslubining eng xarakterli xususiyati nima?
A.So‘zlovchi nutqi
B.Qahramon nutqi
S.Muallif nutqi
D.Tasviriylik va emotsionallik

4. Adabiyot so‘zi qaysi tildan olingan?
A.Arabcha
B.Lotincha
S.Forscha
D.To‘g‘ri javob yo‘q

5. O‘zbek tilida nechta nutq uslubi bor?
A. 5 ta
B. 4 ta
S. 3 ta
D. 2 ta

O‘N UCHUNCHI RARS

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI



Tayanch so‘z va iboralar: huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, iqtisodiy asos.

Mamlakatimizda istiqlolning ilk yillaridan demokratik huquqiy davlat qurish va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish yo‘lida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, axborot va so‘z erkinligini ta’minlash, ushbu sohani liberallashtirish O‘zbekistonda demokratik, huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilandi. 1991-yili O‘zbekistonda 395 ta OAV faoliyat yuritgan bo‘lsa, bugun ularning soni 1437 taga etdi. Ayni vaqtda, mavjud nodavlat bosma OAV jami bosma OAVning 62,7 foizini tashkil etmoqda. 1990-yilda 9 nashriyot bor edi, bugun ularning umumiy soni 112 ta.

Yaratilayotgan imkoniyatlar tufayli matbaa korxonalarining soni ham yil sayin ortib bormoqda: 1990-2016 - yillardagi bosmaxonalar soni 149 tadan 1719 taga yetdi.

Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari uchun turli imtiyozlar belgilashga qaratilgan qonunchilik tobora takomillashtirilmoqda. Xususan, 2011-yil 30-dekabrda qabul qilingan "Ommaviy axborot vositalarini yanada rivojlantirish uchun qo'shimcha soliq imtiyozlari va afzalliklari berish to'g'risida"gi qaror buning yorqin isbotidir. Mazkur qaror axborot sohasida fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash bo'yicha OAV imkoniyatini kengaytirib, iqtisodiy asoslarini mustahkamlamoqda. Zero, iqtisodiy erkin, baquvvat va mustaqil ommaviy axborot vositalari jamoatchilikka tahliliy, tezkor va xolis ma'lumot yetkazib berish imkoniga ega.

YUNISEF bilan hamkorlikda ona va bola salomatligini muhofaza qilish borasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy ahamiyatga molik dasturlar ommaviy axborot vositalarida har tomonlama va sifatli yoritib borilmokda. «Sog'lom bola yili» va Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning 25 yilligi munosabati bilan bola huquqlari muhofazasiga bog'liq masalalarni yoritishda ommaviy axborot vositalari salohiyatini kuchaytirish loyihasi amalga oshirildi. Mazkur loyiha doirasida o'tgan yilda 1400 dan ortiq hududiy jurnalistlar ishtirokida 70 seminar trening va davra suhbatlari tashkil etildi. Umuman, xorijiy ekspertlar ishtirokida 30 dan ziyod seminar-treninglar, davra suhbatlari va anjumanlar tashkil etilib, ularda besh yuzdan ortiq axborot xizmatlari va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

2015-yilda "O'zbekistonda Internet jurnalistikasini rivojlantirishning dolzarb masalalari" mavzusida respublika konferensiyasi o'tkazilgani ayni muddao bo'ldi. Buning natijasida fond yuqori malakali jurnalist, tahlilchi va sharhlovchilar tayyorlash, nufuzli xalqaro media kompaniyalar, xorijiy hamkasblar bilan samarali ijodiy aloqalar o'rnatish, yosh mutaxassislarning kasb mahorati va tajribasini oshirish borasida izchil ishlarni amalga oshirdi.

Ko‘z o‘ngimizda yangi axborot jamiyati shakllanmoqda. Axborot strategik va iqtisodiy resursga aylanmoqda. Axborot jamiyatining taraqqiyoti davlatlarning barqaror iqtisodiy rivojini ta’minlash, fuqarolarning turmush darajasini oshirish, mamlakatlar va mintaqaviy birlashmalar taraqqiyotining muhim va ustuvor sharti sifatida belgilanmoqda. Bugun media-makonda axborot jurnalistik faoliyatning yangi turi – onlayn jurnalistikasining rivojlanib borayotganini inkor etib bo‘lmaydi.

Uning kelajakdagi istiqboli mamlakatdagi demokratik islohotlar, bozor munosabatlari va ta’lim sohasidagi islohotlarga bevosita bog‘liq. Internet jurnalistikasi bugun o‘zining ilk taraqqiyot bosqichlarini boshidan o‘tkazmoqda. Bu jurnalistlarga taklif etilayotgan cheksiz imkoniyatlar beruvchi texnologiyalar orqali namoyon bo‘layotir.

Bugun hayotning o‘zi OAV oldiga fikrlar xilma-xilligi, mamlakatimiz va xorijda ro‘y berayotgan voqea-hodisalarni hisobga olgan holda, xalqimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning ochiq va oshkoraligini yanada to‘liq ta’minlash, O‘zbekistonda hayotga tatbiq etilayotgan tashqi hamda ichki siyosatni yanada faol yoritish vazifasini qo‘ymoqda. Buning uchun mamlakatimizda barcha shart-sharoit yaratilgan. Bunday keng imkoniyatlarga ega bo‘lgan va fuqarolik jamiyatining muhim institutlaridan biri hisoblangan O‘zbekiston ommaviy axborot vositalari bugungi kunda jamoatchilik fikrini ifoda etadigan, hayotimizning barcha jabhalarini yanada demokratlashtirish yo‘lida harakatga keltiruvchi kuch bo‘lishi, mamlakatimizning har bir fuqarosi Vatanimiz taqdiri uchun o‘z mas’ulligini his etgan holda el-yurtimizning yanada ravnaq topishiga hissasini qo‘shishga intilishiga ko‘maklashishi lozim.

Og‘zaki nutq:

Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish.
Matndagi termin va iboralarning ma’nosini izohlash.
Matnga munosabat bildirib so‘zlash.
Mavzu bo‘yicha bahs-munozarada ishtirok etish.

Yozma nutq:

Ommaviy axborot vositalarining faoliyati haqida fikr bildirish. Teleko'rsatuvlar va radioeshittirishlar, gazeta va jurnallardagi materiallar, reklama matnlarini tahlil qilish.

"XXI asrda axborotning o'rni" mavzusida esse yozish.

GRAMMATIKA
Intervyu olish va intervyu berish qoidalari

Ommaviy axborot vositalarida keng qo'llaniladigan axboriy janrlardan biri intervyu (qisqa suhbat)dir. Bu so'z inglizcha bo'lib, "so'rab olish, surishtirish" degan ma'noni bildiradi. Mazkur janrning matbuotda keng uchrashining sababi shundaki, hayotdagi har bir fakt, voqea va hodisaning qanday bo'lib o'tganligi, tafsiloti odatda, shu faktdan xabardor bolgan voqea, hodisani ko'rgan -bilgan odamlardan so'rab-surishtirib bilinadi, keyingina biror janrdagi matbuot materialiga asos bo'ladi. Shu boisdan, so'rash, surishtirish avallo, hayotni bilish vositasi bo'lsa, uning matbuotdagi aksi esa axboriy publitsistikaning eng muhim, keng tarqalgan, ommabop janri hisoblanadi. Bu janr janr ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ishlab chiqarish, madaniy-ma'rifiy hayotining barcha sohalarida qo'llaniladi. Shu bilan birgalikda u ommaviy vositalari – gazetalar, jurnallar, radio, televideniye, axborot agentliklari, internetdan doimiy joy olib keladi. Avallo, intervyu rasmiy va norasmiy xillarga bo'linadi. Rasmiy intervyular asosan hukumat rahbarlarining faoliyati bilan bog'liq bo'lgan biror muhim voqea – rasmiy uchrashuv, safar, yirik anjuman va zarur sanalarga va boshqa davlat ahamiyatiga ega bo'lgan tadbirlarga bag'ishlanib o'tkazilgan matbuot yig'inlarida beriladi. Norasmiy intervyu esa jurnalistlar tomonidan u yoki bu voqea, hodisa haqida yoziladi.

O'z tuzilishi jihatidan intervyu ikki xil intervyu-dialog, intervyu-monolog shaklida ham bo'lishi mumkin. Intervyu-dialogda muxbir va suhbatdosh o'zaro savol-javob qilishadi. Bu

savol-javob tayyorlanish jrayonida to‘g‘ridan-to‘g‘ri og‘zaki ko‘rinishda yoki yozma savol-javob tarzida olib boriladi.

Respublikamizning mashhur kishilari, fan arboblari, yozuvchilar, san’atkorlar, ishlab chiqarish ilg‘orlari, tadbirkorlardan olingan intervyular mat buotimizda, radio, televideniyeda turli ruknlar ostida tez-tez berib boriladi. Ko‘rinib turibdiki, intervyu janrining bu asosiy ko‘rinishi jamiyat hayotining barcha muhim tomonlari haqida xabar berishda keng qo‘llaniladi. Intervyu-monologda muxbir bergan birgina savolga suhbatdosh tomonidan berilgan javob o‘z aksini topadi. Bunday intervyu odatda hayotdagi birorta muhim ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy-ma’naviy masala yoki muammoni yoritish uchun qo‘llaniladi. Bunda suhbatdoshning javobi unig tilidan yoki jurnalist tomonidan sharhlanib berilishi mumkin. Bunday intervyu odatda hajm jihatdan dialog-intervyudan kichikroq bo‘ladi.

Ko‘rinib turibdiki, intervyu janri turli, rang-barang ko‘rinishlarga ega bo‘lib, ular ijtimoiy hayotni keng va chuqur yoritish, undagi muhim fakt, voqea va hodisalardan o‘quvchilarni xabardor qilish, jamoatchilik fikrini uyg‘otishga xizmat qiladi. Eng ommabop va ta’sirchan bu janr jurnalistdan juda kata mehnat, topqirlik, va mahorat talab qiladi.

Mavzu yuzasidan topshiriqlar

1-topshiriq. Intervyu haqidagi nazariy bilimlarni o‘zlashtirib intervyu-dialog, intervyu-monolog tayyorlang.

2-topshiriq. Intervyuning rasmiy va norasmiy xillariga qisqa suhbat tayyorlang.

3-topshiriq. Respublikamizda ijtimoy hayotning muhim masalalari bo ‘yicha o‘tkazilgan matbuot anjumani haqida material to‘plang va axborot tayyorlang.

4-topshiriq. Tasavvur qiling. Siz “To‘g‘ridan to‘g‘ri muloqot” rukni ostida intervyu tayyorlashingiz kerak. Qaysi mashhur insonlardan intervyu olgan bo‘lardingiz? Suhbatni yozma shaklda bayon eting.

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari

1. "Ommaviy axborot vositalarini yanada rivojlantirish uchun qo'shimcha soliq imtiyozlari va afzalliklari berish to'g'risida" gi qaror nechanchi yilda qabul qilingan?

A.2011- yil 30-dekabr
B.2009 -yil 11 -dekabr
S.2017- yil 3- dekabr
D.2018- yil 30- yanvar

2. "Nechanchi yilda O'zbekistonda Internet jurnalistikasini rivojlantirishning dolzarb masalalari"mavzusida respublika konferensiyasi o'tkazildi?

A.2014 -yil
B.2015 -yil
S.2016 -yil
D.2018 -yil

3. O'zbekistonda 1990 -2016- yillardagi bosmaxonalar soni nechtadan nechtaga yetdi?

A.149 tadan 1719 taga
B.124 tadan 1719 taga
S.154 tadan 1719 taga
D.165 tadan 1720 taga

4. Mamlakatimizda 1990 -yilda nechta nashriyot bor edi?

A.10 ta
B. 9 ta
S.12 ta
D.14 ta

5. Intervyu so'zi qaysi tildan olingan?

A.Lotincha, fikrlash, targ'ib qilish
B.Inglizcha, tasvirlash
S.Lotincha, yaratish, ijod qilish
D.Inglizcha, so'rab olish, surishtirish

O'N TO'RTINCHI DARS

INTERNET HAYOTIMIZDA

Tayanch so'z va iboralar: internet, internet tarmog'i, ijtimoiy tafakkur, ijtimoiy ong.

Internet bu axborot va hisoblash resurslarining global telekomunikatsion tarmog'i. Butunjahon internet tarmog'ining fizik asosi bo'lib xizmat qiladi. Ko'pincha World Wide Web Clobal Web yoki oddiygina Internet deb nomlanadi.

Internet tarixi 1971 yilga kelib tarmoq orqali elektron pochta xabarlarini yuborish bo'yicha birinchi dastur ishlab chiqildi. 1973-yilda buyuk Britaniya va Norvegiyadan birinchi chet el tashkilotlari translantik telefon kabeli orqali tarmoqqa ulandi, tarmoq xalqaro bo'ldi.

Internet tarixi 1970–yillarda, birinchi pochta ro'yxatlari, yangiliklar guruhlari paydo bo'lganda, elektron pochta xabarlarini yuborish uchun foydalanilgan. 1982-1983 yillarda ular standartlashtirilgan.

Internet barcha davlatlarni va kontinentlarni birlashtiruvchi hamda yer sharining ixtiyoriy nuqtasidagi axborot resurslariga murojaat qilish imkoniyatini beruvchi umumplanetar

INTERNET (ingl. Internet, lat. inter – orasida va ingl. net – tarmoq), minglab tarmoqlarni, shu jumladan, qurolli kuchlar, hukumat tashkilotlari, ta'lim muassasalari, xayriya tashkilotlari, sanoat korxonalari, barcha turdagi korporatsiyalar, shuningdek, jismoniy shaxslarga tarmoqqa kirish imkoniyatini havola etuvchi tijorat korxonalarining (xizmat ko'rsatish provayderlarining) Internetga kirish turlari orasida online va offline kirish turlari ajralib turadi. Birinchi kirish turi Tarmoqdan real vaqt rejimida foydalanish imkonini beradi. Ikkinchi turida esa Tarmoqqa doir ishlar oldindan tayyorlanib, unga ulangach, tayyor ko'rinishdagi ma'lumotlar uzatiladi yoki qabul qilib olinadi. Tarmoqqa

kirishning bunday turi aloqa kanallarining sifati va ish tezligiga nisbatan yuqori talablar qo'ymaydi, biroq faqat e-mail – elektron pochtadangina foydalanish imkonini beradi.

Internet vositasida o'zaro ulangan aksariyat kompyuter tarmoqlarida saqlanayotgan axborot nihoyatda o'lkan elektron kutubxonani vujudga keltiradi.

Kompyuter tarmoqlari orasida taqsimlangan ma'lumotlarning g'oyat katta miqdori muddaoli axborotni qidirib topish yoki hosil qilishni qiyinlashtiradi. Internetda olib boriladigan qidiruv amallarini yengillashtirish uchun tobora takomillashtirilgan vositalar ravnaq topib bormoqda.

Og'zaki nutq:

Mavzuga oid matnni o'qib tushunish.

Matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlash.

Mavzu bo'yicha bahs-munozarada ishtirok etish.

Yozma nutq:

Internet madaniyati haqida matn tuzish.

Ta'lim jarayonida eng ko'p foydalaniladigan internet saytlari ro'yxatini tuzish va tavsiya qilish.

Internetdan foydalanish to'g'risida polilog tuzish va uni instsenirovka qilish.

Grammatika: Shevaga xos so'zlar

Qayerda yashashidan qat'iy nazar o'zbek millatiga mansub barcha odamlar tomonidan ishlatiladigan til **milliy (umumxalq) o'zbek tili** deb yuritiladi. Milliy til o'z tarkibiga sheva, so'zlashuv nutqi, jargonlar, vulgarizm (so'kish, qarg'ish so'zlari), varvarizm (tilda o'rinsiz ishlatilgan chet so'zlar) kabi guruh so'zlarni qamrab oladi.

Milliy tilning ma'lum qoidalariga bo'ysundirilgan, muayyan qolipga solingan, olimlar, san'atkorlar, mutaxassislar tomonidan ishlov berilgan, doim silliqlashtirilib, mukammallashtirilib boriladigan shakli **adabiy til** deb ataladi. Adabiy til shu tilda

gaplashuvchilarning barchasi uchun tushunarli bo'lish zarurati adabiy tilning yaratilishiga sabab bo'lgan. Milliy o'zbek tilida shevalarning ko'pligi adabiy tilga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirgan. Ayrim tillarda (misol uchun, fin tilida) shevalar kam bo'lgani uchun adabiy tilga ehtiyoj yo'q.

Rasmiy hujjatlar, badiiy va ilmiy adabiyot, vaqtli matbuot adabiy tilda yaratiladi. Ommaviy axborot vositalari adabiy tilda ish ko'radi. Adabiy tilning **og'zaki** va **yozma** shakllari mavjud.

Sheva bir millatga mansub bo'lib, lekin turli hududlarda yashaydigan odamlar tomonidan ishlatiladigan milliy til ko'rinishidir. Sheva adabiy tildan fonetik (ya'ni tovush), leksik (ya'ni so'z) va grammatik (ya'ni, qo'shimchalar va gap qurilishi) jihatdan farq qiladi.

Xalq shevalarining faqat og'zaki shakli mavjud. Shevalarning bir-biriga yaqin bo'lgan guruhlari **lahja** deb ataladi (**dialekt** so'zi sheva va lahja tushunchalarini birgalikda ifodalaydi). O'zbek milliy tili tarkibida uchta lahja bor:

1. Qarluq lahjasi (janubiy-sharqiy guruh).
2. Qipchoq lahjasi (janubiy-g'arbiy guruh).
3. O'g'uz lahjasi (shimoliy-g'arbiy guruh).

Qarluq lahjasi asosan shahar shevalarini o'z ichiga oladi (Toshkent, Andijon, Farg'ona, Samarqand, Buxoro, Qarshi). Bu shevalarning muhim fonetik va morfologik belgilari quyidagilar:

- so'z oxiridagi *k* tovushi *y* tarzida aytiladi: *elak – elay, terak – teray;*
- *o* lashish yuz beradi: *aka – oka, nahor – nohor;*
- bu lahjada qaratqich kelishigining qo'shimchasi yo'q bo'lib, uning o'rniga ham tushum kelishigi qo'shimchasi *-ni* ishlatiladi: *ukamni(ng) daftari.*

Qipchoq lahjasi shevalari O'zbekistonning hamma viloyatlarida mavjud, ular asosan qishloqlarda tarqalgan (Samarqand, Jizzax, Surxondaryo, Qoraqalpog'iston, Shimoliy Xorazm viloyatlari, Turkmanistonning Toshovuz viloyati shevalari). Belgilari quyidagilar:

- *y* o'rniga *j* ishlatiladi: *yo'l – jo'l, yo'q – jo'q;*

- *g‘* o‘rniga *v* ishlatiladi: *tog‘ – tov, sog‘ – sov* va b.;
- *k, q* tushiriladi: *quri(q), sari(q).*

O‘g‘uz lahjasi Janubiy Xorazmdagi (Urganch, Xiva, Xonqa, Hazorasp, Qo‘shko‘pir, Shovot tumanlari) bir qancha shevalarni o‘z ichiga oladi. Belgilari:

- unlilar qisqa va cho‘ziq aytiladi: *at (hayvon), aad (ism);*
- *t* tovushi *d, k* esa *g* tarzida aytiladi: *tog‘ – dog‘, keldi – galdi;*
- *-ning* qo‘shimchasi *-ing* tarzida, *-ga* qo‘shimchasi esa *-a, -na* tarzida aytiladi: *yorimga – yorima.*

Hozirgi o‘zbek adabiy tili uchun qarluq lahjasiga kiradigan Farg‘ona-Toshkent shevalari asos qilib olingan. Olimlarning fikricha, Toshkent shevasi fonetik jihatdan, Farg‘ona shevasi morfologik jihatdan adabiy tilga asos bo‘lgan. Umuman olganda, adabiy til barcha shevalarga tayanadi.

Shevalarning o‘ziga xos xususiyatlari adabiy tilning ta’siri bilan asta-sekin zaiflashadi va yo‘qola boradi.

So‘zlashuv tilidagi so‘z va grammatik shakllar barcha shevalarda qo‘llanadigan, lekin adabiy tildan boshqacha tarzda shakllangan birliklardir: *kelsa – kesa, bo‘lsa – bo‘sa, olib kel – opkel.*

Vulgarizmlar tilda mavjud bo‘lgan so‘kish va qarg‘ish so‘zlardir: *haromi, qiztaloq, yer yutkur, oqpadar* va b.

Varvarizmlar tilda o‘rinsiz ishlatiladigan chet so‘zlar: *uspet qilolmadim, papasha, mamasha, nastroeniem yaxshi, znachit, tak, vau, yess* va b.

Jargonizmlar ayrim guruh kishilari tomonidan ishlatiladigan yashirin ma’noli so‘zlardir: *mullajiring, loy soqqa, qurug‘i* (barchasi pul ma’nosida).

Mavzu yuzasidan keys. Argo va jargonlar haqida

Chegaralangan leksikaga mansub bo‘lgan argo va jargonlar to‘g‘risida ilmiy va o‘quv-uslubiy adabiyotlarda turli qarashlar mavjud. Quyida ularning ayrimlarini ko‘rib chiqamiz:

Ma'lum ijtimoiy guruhga mansub kishilar qo'llaydigan argo, jargonlar, kasb-hunarga oid so'zlarning kelib chiqish manbai har xil bo'lib, ular til rivojlanishining tabiiy mahsulidir. Argo va jargonga mansub so'zlarning ishlatilishini hech kim majbur qilmaydi., balki bu so'zlarni nutqda qo'llash o'sha ijtimoiy guruhga mansub bo'lgan kishilarning yoshiga, kasb-hunariga, ijtimoiy ruhiyatiga bog'liqdir. Argo va kasb-hunarga oid so'zlar adabiy til birliklaridan faqat lug'aviy va frazeologik unsurlari, ba'zi so'z yasash modellari bilan farqlanadi, ammo bu so'z va iboralarning tovush tomoni adabiy tildagidek (yoki shunga yaqin) bo'ladi. Masalan, o'g'ri va savdogarlarning "yashirin tili"da shunday jargonlar qo'llaniladi. Xanjar (qorin) xit (och), yakan loy, soqqa (pul), manba (so'z) notinoti (yo'q), danat (xotin), otar (to'y) qiviz (non) va boshqalar.

Ijtimoiy argolar tabiatini, ularning normativ holatlarini o'rganish tilshunoslik fanidan tashqari, sotsialingvistika, psixologiya pedagogika fanlari uchun ham ma'lum qimmatgta ega (E.Begmatov, A.Mamatov. Adabiy norma nazariyasi. II.qism. - Toshkent, 1998. 86-bet).

Ishlatilish doirasi chegaralangan qatlamlar sifatida jargonizm, argotizm kabi hodisalar ham tilga olinadi.

Biror kasb-kor egalari nutqida yoki ijtimoiy tabaqa vakillari nutqida ishlatilib, umumtildagidan o'zgacha leksik ma'no anglatuvchi lug'aviy birlik jargonizm deyiladi (fr. Jargon-"lahja"). Jargon asli bir qancha leksemalarning yig'indisidan iborat bo'lib, bular shu tildagi leksemalarning o'zi bo'ladi yoki boshqa tildan olingan bo'ladi. Jargonda bunday leksema umumtildagi leksik ma'nosida emas, balki o'zgacha leksik ma'noda ishlatiladi. Masalan, ishlar besh, gapni qiyadi, gap bilan rosa oldi kabilardagi besh, qiymoq, olmoq leksemalari shu ishlatilishida jargonizmdir.

Argotizm ham asli jargonizmning bir ko'rinishi bo'lib, tarbiyasi buzuq, qo'li egri shaxslar orasida shu guruhning o'zigagina tushunarli ma'noda ishlatiladigan leksema va frazemalar yig'indisidan iborat (fr. Argot-"lahja"). Masalan, loy-("pul"ma'nosida), bedana ("nagan"ma'nosida), xit

("xavf"ma'nosida): havoga bulut chiqyapti ("O'g'irlashga arzigulik manbaa bor" ma'nosida) kabi (U.Tursunov,A. Muxtorov, Sh. Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: "O'zbekiston", 1992.150-bet).

Argo (fr.argot) ayrim professional yoki sotsial guruhning o'ziga xos tili. Argo bir necha til unsurlaridan iborat qorishiq va ko'p hollarda, boshqalarga tushunarsiz nutq turida namoyon bo'ladi. Argo nutqda kommunikatsiya predmetini sir tutish maqsadida qo'llaniladi. 1) o'g'rilar nutqida; mandarin (tilla), akula (panjarani kesish uchun moslama), kalamush (o'z yaqinlarinikiga "tushadigan"), uragan (tajribali o'g'ri); mahbuslar nutqida: maymun (oyna) shobla (qalloblar guruhi) , bashli (pul), krokodil (qaychi), lebed (geroin), ment (militsioner), xafa qilmoq (zo'rlamoq), pushka (pistolet). Argoizmlar turli koloniya turma, guruh va hududlarda farqlanadi.

Argo ham jargon kabi so'zlashuv nutqida va badiiy adabiyotda sotsial –rasmiy vazifa bajarish uchun ishlatiladi.

Argo ham jargon kabi so'zlashuv nutqida va badiiy adabiyotda sotsial –ramziy vazifa bajarish uchun ishlatiladi (Sayfullayeva R.R va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2009. 125-126 betlar).

Shuningdek, rus tilshunosi V.D.Bondaletov sotsial dialekt kategoriyasiga kiruvchi tilning barcha ko'rinishlarini quyidagi guruhlarga ajratadi:

1. Kasbning "xususiy" tili (anqrog'I, kasbning leksik tizimi, masalan, ovchilar, kulollar, duradgorlar, kunchi-kosiblar, cho'ponlar, savdogarlar, shuningdek, boshqa hunar va mashg'ulotlar).

2. Guruhlar yoki korporativ (ma'lum doiraga ega) guruhlar tili (masalan, talabalar, sportchilar, harbiylar kabi yoshga oid jamoalardagi jargonlar).

3. Hunarmandlar, savdogarlar va shunga yaqin ijtimoiy guruhlarning shakliy tillari (argo).

4. Ijtimoiy hayotdan tamoman uzilgan, sinfsizlashgan tuban kishilar jargon (argo)

Keysni ishlash uchun savollar:

1. Sizningcha, argo va jargonlar o'zaro farqlanadimi?
2. Argo va jargonlarning umumiy jihatlari nimalarda namoyon bo'ladi?
3. Argo va jargonlarning o'ziga xos xususiyliklarini izohlang.

Mavzu yuzasidan
Nostandart testlar

1. Ko'rsatilgan atamalarga mos misollarni belgilang.

1	Dialekt	A	padari buzrukvor, volida, olampanoh
2	Argo	B	bolish, umurtqa, potinjon
3	Jargon	C	step, g'isht (xunuk), it (zo'r, asl)
4	Sleg	D	soqqa, yakan, loy

Javob	1-	2-	3-	4-

Javob	1-B	2-D	3-A	4-C

2. Quyidagi atamalarga mos ta'rifni belgilang.

1	Jargon	A	Aholi turli guruhlarining ijtimoiy va lisoniy aloqalari jarayonida shakllangan dialektlararo og'zaki muloqot vositasi hisoblanib, turli hududiy dialektlar xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan qurama til.
2	Sleg	B	Biron ijtimoiy guruh vakillarining o'z nutqi bilan ko'pchilikdan ajralib turish maqsadida, o'zicha mazmun berib ishlatadigan so'z va iboralari.
3	Koyne	C	Biron ijtimoiy guruh tomonidan boshqalar uchun atayin tushunarsiz qilib qo'llaniladigan u yoki bu darajadagi yashirin, yasama til.
4	Argo	D	Muayyan kasb egalari yoki ijtimoiy

			guruhlarning og‘zaki nutqida qo‘llaniladigan, emotsional-ekspressiv bo‘yoqqa ega bo‘lgan so‘z va iboralar. Jonli, harakatdagi til shakli bo‘lib, u mamlakat va jamiyat hayotidagi har qanday o‘zgarishdan ta’sirlanadi.

Javob	1-	2-	3-	4-

Javob	1-V	2-D	3-A	4-C

3. Berilgan gaplardan lingvistik atamalarga mos chegaralangan leksik birliklarni toping.

1	Argo	A	Anavi to‘nkani nima qilamiz? – dedi Asadbek, jahlidan tushib...
2	Vulgarizm	B	Gapni aylantirmang. Yog‘li joy. Yakan katta bo‘ladi!
3	Jargon	C	Bo‘ronda qolgan ekan... qaytib kelmopti... So‘g‘in Xo‘janazar akoning duxtori bo‘rong‘a qolip o‘lipti.
4	Dialektizm	D	Vagoncha zinasiga pildirab chiqib, baqirdi: - yigitlar, kelingiz, zarplata olingiz!

Javob	1-	2-	3-	4-

Javob	1-B	2-A	3-D	4-C

4. Keltirilgan shevaga oid so‘zlarni ularning ishlatilish hududi bo‘yicha ko‘rsating. 1) buzog‘ 2) go‘sala 3) rayhon 4) yostiq 5) bolish 6) do‘ppi 7) kallapo‘sh

Hudud	To‘g‘ri javob
Toshkent shevasi	
Buxoro shevasi	

Hudud	To‘g‘ri javob
Toshkent shevasi	1, 3, 4, 6
Buxoro shevasi	2, 5, 7

5. **Argo va jargon so‘zlarni farqlang.**

1) yakan 2) xit 3) bedana 4) ko‘k 5) dodasi

Atama	To‘g‘ri javob
Argolar	
Jargonlar	

Atama	To‘g‘ri javob
Argolar	1, 2, 3
Jargonlar	4, 5

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari

1. Internet so‘zi qaysi tildan olingan?
A.Nemischa
B.Inglizcha
S.Lotincha
D.Fransuzcha

2. Internet nechanchi yilda yuzaga kelgan?
A.1969- yilda
B.1970- yilda
S.1971- yilda
D. 1972- yilda

3. Milliy til o‘z tarkibiga qanday guruh so‘zlarini qamrab oladi?
A.Sheva, so‘zlashuv nutqi
B.Jargonlar, vulgarzmlar
S.Vulgarizm, varvarizm
D.Barcha javoblar to‘g‘ri

4. O‘zbek milliy til tarkibda nechta lahja bor?
A. 3 ta
B. 4 ta
S. 5 ta
D. 6 ta

5. Tilda mavjud bo‘lgan so‘kish va qarg‘ish so‘zlari qanday nomlanadi?
A.Varvarizmlar
B.Vulgarizmlar
S.Jargonizmlar
D.Argolar

O‘N BESHINCHI DARS

O‘ZBEKISTON VA JAHON



Tayanch so‘z va iboralar: xalqaro munosabat, davlatlararo munosabat, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, jahon rivojlanishi, mustaqil davlatlar.

XX asrning oxirgi o‘n yilligida xalqaro munosabatlarining rivojlanishida g`oyat muhim voqealar sodir bo‘ldi. Sotsialistlik sistema parchalanib Yevropaning qator mamlakatlari mustabid tizim zulmidan qutilib demokratik rivojlanish yo‘liga o‘tdi. Sobiq SSSR o‘rnida mustaqil davlatlar paydo bo‘lib ular jahon hamjamiyatiga bevosita qo‘shilib xalqaro munosabatlarning alohida subyektlariga aylandilar.

1991-yilda SSSR tarqalib ketgach jahon rivojlanishida yangi murakkab bir davr yuzaga keldi.

Mustaqil O’zbekiston xalqaro aloqalarni yo’lga qo’yishi nuqtai-nazaridan va o’z tarqaiiyot istiqbollari uchun qulay geografik –strategik ahamiyatga ega. O’rta Osiyoda geografik-siyosiy jihatdan markaziy o’rin tutgan O’zbekistonning ushbu mintaqada kuchlar nisbati va muvozanatini saqlash, barqarorlikni ta’minlash, hamkorlikni mustahkamlash imkoniyatlari bor.

Mamlakatimizning jahon xalqlari tinchligi va xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosati uning jahon miqyosida mustaqil davlat sifatida tezda tan olinishini ta'minladi.

O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini dunyodagi 165 ta davlat tan oldi, ularning 120 tasi diplomatik, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalar o'rnatildi. Dunyodagi 20 dan ortiq yirik davlatlarida O'zbekistonning elchixonalari ishlab turibdi.

O'zbekiston ko'pgina mintaqaviy tashkilotlar, Yevropa Ittifoqi, NATO, EKO, Islom konferensiyasi tashkiloti bilan ham samarali hamkorlik qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida Hamdo'stlik mamlakatlari bilan ikki tomonlama hamkorlikni yo'lga qo'yish va rivojlantirish alohida ahamiyatga egadir. Hamdo'stlik doirasida ikki tomonlama tashqi, siyosiy, iqtisodiy va boshqa shartnoma kelishuvlarini rossiya, Ukraina, Belorusiya, Moldaviya, MDH ning boshqa mamlakatlari bilan imzolab, o'zaro manfaatli hamdo'stlik aloqalariga mustahkam asos yaratdi.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan puxta tashqi siyosiy yo'lni belgilash

Birinchidan, davlatlararo munosabatlar tizimidagi muvozanat buzildi. Jahonda siyosiy-iqtisodiy bo'linish ro'y berdi. Ko'chlar markazigacha asosan ikki joyda to'plangan, dunyo ikki qutbli bo'lgan bo'lsa, endi vaziyat o'zgardi, dunyo ko'p qutbli bo'lib qoldi, nazorat qilish qiyinlashdi.

Ikkinchidan, jahon mamlakatlari o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik va ziddiyatlar yanada o'sdi.

Uchinchidan jahonning ko'pgina mamlakatlarida ijtimoiy osoyishtalikka qarshi xavf-xatarlar o'sib borayapti.

Boy va kambag'allar o'rtasida mulkiy tafovutning kuchayishi, ishsizlikning, qashshoqlikning avj olishi, bir qator mintaqalarda milliy-etnik va diniy nizolarning kelib chiqishi ekstremizm va fundamentalizm kabi illatlarning kuchayishi

ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka putur yetkazuvchi omillar ijtimoiy tengsizlik, hisoblanadi.

XX asrning oxirgi o'n yilligida xalqaro munosabatlarining rivojlanishida g`oyat muhim voqealar sodir bo'ldi. Sotsialistlik sistema parchalanib, Yevropaning qator mamlakatlari mustabid tizim zulmidan qutilib,ijtimoy demokratik rivojlanish yo'liga o'tdi. Sobiq SSSR o'rnida mustaqil davlatlar paydo bo'lib ular jahon hamjamiyatiga bevosita qo'shilib xalqaro munosabatlarning alohida subyektlariga aylandilar.

Matn yuzasidan savollar

1. 1991-yilda jahon rivojlanishida qanday murakkab davr yuzaga keldi?
2. Jahon mamalakatlari o'rtasida qanday ziddiyatlar o'sdi?
3. XX asrning oxirgi o'n yilligida xalqaro munosabatlarning rivojlanishida qanday voqealar sodir bo'ldi?

Adabiy o'qish

Mirzo Ulug'bek

Samarqandda muttasil qirq yil hukmronlik qilgan Ulug'bek zamonida talaygina yangi binolar qad ko'tardi. Ammo bobosi asosan masjid, maqbaralar qurdirgan bo'lsa, Ulug'bek fan saroylarini qurdirish uchun shuhrat topdi. U harbiy shon-shavkat ketidan quvmadi. Ulug'bekni ko'proq matemetika va astronomiya qiziqtirardi. Bu fanlar sohasida u beqiyos yuksaklikka ko'tarildi., osmon sayyoralari harakatini sharhladi va astronomi jadval yaratib, butun jahonga dong taratdi. O'zi kabi fanga sodiq do'stlari bilan birgalikda osmon sayyoralarini kuzatadigan asboblar yaratdi. Kishilarda ilm-u ma'rifatga muhabbat uyg'otishga intildi. Qo'l ostidagi shaharlarda maktab va madrasalar qurdirdi.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1-topshiriq. Matnni ifodali o'qing.
2-topshiriq. Matndan notanish so'zlar lug'atini tuzing.
3-topshiriq. Matnni ta'lim tilingizga tarjima qiling.

GRAMMATIKA: USLUBIY XOSLANGAN VA USLUBIY BETARAF SO'ZLAR

Bilib oling: Uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so'zlar. Tilimizda barcha uslublarda teng qo'llanadigan so'zlar bo'lishi bilan birga, faqat ayrim nutq uslublari uchun xoslangan so'zlar ham mavjud. Shuning uchun so'zlar ana shu belgiga ko'ra ikki guruhga bodinadi: 1) uslubiy betaraf so'zlar (m., so'zlamoq, gapirmoq, uy, daftar, ovqat va boshqalar); 2) uslubiy xoslangan so'zlar (mazkur, binobarin, dudoq, erin, qaroq, nigoh, tashlamoq, bayortnoma, nota va boshqalar).

Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi ma'lum soha doirasiga, ma'lum nutqiy vaziyatga xoslangan ko'rinishi nutq uslubi hisoblanadi. So'zlar ma'lum nutq uslubiga xoslanish-xoslanmaslik belgisiga ko'ra uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so'zlarga bo'linadi. Ayrim nutq uslubidagina qo'llaniladigan so'zlar uslubiy xoslangan so'zlar, bunday xususiyatga ega bo'lmagan so'zlar esa uslubiy betaraf so'zlardir.

Olim na'matakka ilmiy izoh bersa, shoir esa unga badiiy tus beradi, metafora, o'xshatish, jonlantirish, leksik vositalar bilan shoirona kuylaydi. Uslub - so'zlovchi va yozuvchining ifodalanayotgan fikrga, voqea, hodisaga shaxsiy munosabatidir.

Shu yo'l bilan ayni bir jumlada qo'shimcha uslubiy (modal) mazmun ham ifodalanadi. Masalan: Ol, jiyan, yo'l yurib kelgansan. Bu jumlada so'zlovchi suhbatdoshga qarindoshligini bildirishi bilan birga, unga o'z mehribonligini ham ko'rsatmoqchi. Odatda, so'zning asl, tub (denotativ) ma'nosi va uning qo'shimcha, ko'chma (konnotativ) ma'nosi bo'ladi. Uslubshunoslik, uslub, sinonimiya, so'z, so'z birikmasi va gapning ana shu qo'shimcha

(modal) ma'nosini o'rganadi. Gapda uslubiy (modal) mazmun maxsus so'z va iboralar (undalma, kirish so'z, sinonimlar, frazeologik birlik va gaplar, sheva, biror kasbga oid so'zlar va h.k.) orqali ifodalanadi. Hamma so'z, ibora va sintaktik qurilmalar ham ma'lum bir nutq uslubini yaratishga xizmat qilavermaydi: qalam, kitob, daraxt va shunga o'xshash so'zlar o'z asl ma'nosida biror uslubga betaraf so'zlardir. Ular nutqning biror turini tashkil etishi uchun ko'chma ma'noda qo'llanishi kerak. Qalami o'tkir. Hasratim bir kitob bo'ladi. Daraxt bir joyda ko'karadi kabi.

Keys

Talaba o'qituvchiga shunday dedi: «Mashg'ulotlarda aytayotgan fikrlaringiz va himoya qilayotgan g'oyalaringiz menga yoqmaydi. Menga an'anaviy ta'lim usullari ko'proq ma'qul. Men interfaol metodlarda dars o'tishingiz biror natijaga olib kelishi mumkin, deb hisoblamayman. Talabalar baribir o'qimaydi».

Bu vaziyatda siz talabaga qanday javob qaytargan bo'lar edingiz?

Javob variantlari:

a) «Bu juda yomon»;

s) «Men keyingi mashg'ulotlar davomida sizning fikringiz o'zgaradi, deb ishonaman»;

d) «O'qimaydigan emas, o'qishni xohlamaydigan talabalar bo'ladi».

Grammatik mavzu yuzasidan mashqlar

1-mashq. Quyidagi matnni rus tiliga tarjima qiling

Kitob – moziy darakchisi, bugunning tarbiyachisi va muallimi, kelajakning yo'lboshchisi. Kitobni ma'naviy xazina, haqiqiy boylik, dedik. Uni chin dildan sevib qadrlagan Abu Ali ibn Sino og'ir betob bo'lgan Buxoro hukmdori Nuh ibn Mansurni davolagach, evaziga oltinu kumushlar to'la sandiqni emas, balki saroy kutubxonasidan foydalanish imkoniyatini qo'lga kiritishni afzal ko'rgan edi. Buyuk rus shoiri Aleksandr Pushkin duelda

yaralanib, vafot etar chog'ida, unga "Do'stlaringiz bilan vidolashing", deyishadi. Pushkin xonaning burchagidagi kitob javoniga termulib, "Xayr, mening do'stlarim!", deya jon bergan ekan.

2-mashq. Ushbu matnni tarjima qiling va uslubiy bearaf so'zlarni toping.

Zamonamiz analiz-sintez mushohada zamoni. U bizdan shiddat bilan kechayotgan lahzalarda oxir-oqibatda qayerga borishi va nimaga erishishini bilmagan holda tinmay shoshishni emas, balki insoniyato'tmishi, sirlari va yutuqlarini chuqur o'rganish, teran fikrlash asosida o'zlikni anglash hamda kelajak tomon mas'uliyat bilan qadam tashlashni talab qilmoqda.

3-mashq. Matnni o'qing. Uning mazmunini ta'lim tilingizga tarjima qiling.

Erta tong. Endigina ko'tarilgan oftobning iliq nurlari derazalarga tushib, uylarni yorita boshlagan edi. Ishga vaqtliroq boorish, to'g'rirog'i, oltin kuz havosidan to'yib nafas olishbishtiyoqida uydan chiqdim. Bir oz etni jo'njitadigan shabada esardi. Kechasi yomg'ir yog'ilib o'tibdi, shekilli, asfalt yo'lak nam.

O'.Umarbekov

O'N OLTINCHI DARS

O'ZBEK ADIBLARI VA SHOIRLARI

Tayanch so'z va iboralar: yozuvchi, qissa, she'riyat, iste'dod.

"Mening fikrimcha, yozuvchilik - bu oddiy kasb emas, xudo bergan iste'doddir. Bu - qismat. Peshonaga yozilgan taqdirdir. Bu kasbga hech qayerda o'qitib, o'rgatib bo'lmaydi. Yozuvchilikning maktabi ham, dorulfununi ham bitta. U ham bo'lsa, bir umr hayotning ichida bo'lish, o'z xalqi bilan hamdard -u hamnafas bo'lib yashash, haqiqat va adolatga sadoqat bilan xizmat qilishdir".

Islom Karimov

G'AFUR G'ULOM
(1903-1966)

Adib 1903-yilda Toshkent shahrida tavallud topgan. Uning ayni o'ynab-kuladigan, baxtli va betashvish kunlarni kechirishi lozim bo'lgan bolalik onlari Birinchi jahon urushi davri (1914-1918-yillar) ga to'g'ri keldi. Ota-onasidan yosh yetim qolgan G'afurjonning boshiga juda ko'p ko'rgiliklar tushadi. Garchi urush bizning yurtimizdan juda uzoqda – olis Yevropada kechayotgan bo'lsa-da, uning sovuq nafasi butun o'lkamizni qamrab olgan edi. Shahar va qishloqlar och-nahor odamlarga, tilanchi va devonalarga to'lib ketgandi. Urush tufayli turmush tobora og'irlashar, qimmatchilik va qahatchilik (oziq-ovqat va boshqa mahsulotlarning yetishmasligi) xalqning tinkasini quritar darajaga yetgandi. Bunga qo'shimcha, yurtimizni bosib olgan Rusiya mustamlakachilari urush ortidagi og'ir qora ishlarni bajartirish uchun bizning o'lkamizdan ham erkaklarni – qo'lidan ish keladigan kishilarni majburan mardikorlikka olib ketardi. Boquvchisidan ajragan xonadonlar, ayollar va bolalar nihoyatda

ayanchli ahvolda qolgan, shu sharoitda, og'ir mehnat bilan yetishtiraladigan aksariyat noz-ne'matlarni chor hukumati turli bahonalar, aldovlar bilan yurtdan tashib ketardi. Ko'chalarda daydib yurgan to'p-to'p tilanchilar va gadoylar safiga urush bo'layotgan joylardan jon saqlash uchun qochib kelgan yuz minglab och odamlar ham qo'shilgandi.

Bo'lg'usi adib mana shu musibatga to'la kunlarni o'z boshidan o'tkazar ekan, bolalik tasavvurida bu ko'rgiliklar uzoq muddatga muhrlanib qolmasligi, qalbini larzaga solmasligi mumkin emas edi, albatta. Keyinchalik – 1936-yilda yozuvchi bu o'tmish hodisalarini xayolida qayta jonlantiradi va o'zining mashhur «Shum bola» nomli qissasini yaratadi. Bu qissa uning umrining oxiriga qadar yanada sayqallanib, boyib boradi, o'tgan asrning 60-yillarida hozirgi mukammal holiga keltiriladi.

Quyida ana shu qissadan bir parchani e'tiboringizga havola qilar ekanmiz, avvalo bu parchani sinchiklab mutolaa qilishingizni, qolaversa, maktabingiz kutubxonasidan G'afur G'ulom kitobini topib, asarni to'liq holda o'qib chiqishingizni istar edik. Shuni bilingki, mazkur qissani bugungi kunda nafaqat o'zbek kitobxonlari, balki dunyoning juda ko'p joylaridagi tengdoshlaringiz ham miriqib o'qimoqdalar. G'afur G'ulomning «Shum bola» qissasi dunyodagi ko'plab xorijiy tillarga tarjima qilinib, qayta-qayta nashr etilayotgani bejiz emas, albatta.

Qissa to'g'risidagi suhbatni esa undan bir shingil bahramand bo'lganingizdan keyin boshlaymiz.

Matn yuzasidan savollar

1. O'zbek adibi G'afur G'ulom nechanchi yilda tavallud topgan?
2. G'afur G'ulomning bolalalik yillari qanday o'tgan?
3. G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasi bo'yicha nimalarni bilasiz?
4. "Shum bola" qissasida qanday jarayonlar aks etgan?

CHO'LPON

Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon 1897-yilda Andijon shahrida tug'ilgan. Dastlab madrasada (1908-12), so'ngra rus – tuzem maktabida (1912-14) tahsil olgan. She'riy asarlari "O'zbek yosh shoirlari", "Uyg'onish" (1922), "Buloqlar" (1923), "Tong sirlari" (1926) va "Soz"(1935) to'plamlarida, shuningdek turli gazeta va jurnallarda e'lon qilingan. 20-yillarda yozgan "Oydin kechalarda", "Qor qo'ynida lola", "Novvoy qiz" singari hikoyalari o'zbek adabiyotidagi lirik nasrning dastlabki mumtoz namunasidir. "Kecha va kunduz" (1936) romani hamda "Yorqinoy", "Xalil farang", "O'ldiruvchi"(1921), "Sevgi va saltanat", "Cho'pon sevgisi" 1922 kabi pyesalari ham bor. (bu asarlarning aksariyati bizgacha yetib kelmagan.). Uning tarjimasidagi U.Shekspirning "Hamlet" tragediyasi o'zbek tarjima san'atining shoh namunasi hisoblanadi. U 1938-yil 14-iyul kuni hibsga olinib, ko'p o'tmay Toshkent shahri atrofida otib tashlangan. Vafotidan so'ng Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi davlat mukofoti (1991) va Mustaqillik ordeni (1999) berilgan.

Matn yuzasidan savollar

1.Cho'lponning qanday she'riy to'plamlarini bilasiz?

2.Cho'lpon tarjimon sifatida qanday asarlarni tarjima qilgan?

Hamid Olimjon
(1909-1944)

Hamid Olimjon 1909-yil 12-dekabrda Jizzax shahrida tug'ilgan. Shoir 1923-yilda 1923-yilda o'rta maktabni tugatib, Samarqandda Pedagogika bilim yurtida tahsil oladi. U o'qishni tamomlab, Toshkentga keladi va ko'pgina ro'znomalarda, yozuvchilar uyushmasida, Til va adabiyot institutida faoliyat

yuritadi. Ikkinchi jahon urushi arafasida (1937-yilda) O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga kotib bo'ladi.

Hamid Olimjon 1944-yil 3-iyulda vafot etadi.

Adabiy merosi: "Kimdir", "Ko'klam", "Tong shabadasi" hikoyalar to'plami, "Olov sochlar" she'riy to'plami, "Poyga", "Daryo kechasi", "She'rlar", "O'lka", "Oygul bilan Baxtiyor", "Baxt", "Nima bizga Amerika!", "temir qonun", "Zaynab va Omon", "Holbuki tun", "O'zbekiston ", "Roksananing ko'z yoshlari", "Semurg', parizod yoki Bunyod", "O'rik gullaganda", "Chimyon esdaliklari", "Baxtlar vodiysi", "Baxt to'g'risida", "Qo'lingga qurol ol", "Jangchi Tursun", "Ishonch", "Xat", "Muqanna", "Ofeliyaning o'limi", "Kuygay sevgi", "Kuychining xayoli", "Jinoyat" kabi to'plamlar muallifi.

Matn yuzasidan savollar

1. H.Olimjonning adabiy merosi haqida fikr yuriting.
2. H.Olimjon qanday to'plamlar muallifi?

Zulfiya

Taniqli o'zbek shoirasi Zulfiya Isroilova 1915-yil 1-martda Toshkentda Isroil temirchi oilasida tug'iladi. U 1922-1931-yillarda maktabda, 1931-1934 yillarda Qizlar bilim yurtida, 1935-1938-yillarda Til va adabiyot instituti aspiranturasida tahsil oladi. Shoira 1938-1948-yillar mobaynida "Bolalar nahriyoti muharriri", "O'zbekiston " davlat nashriyoti bo'lim mudiri, 1953-yilgacha shu jurnalning bosh muharriri lavozimida ishlagan.

Zulfiya xalqaro "Nilufar" mukofoti va Javoharlar Neru nomidagi Davlat mukofoti sovrindori. Shoira 1996 –yil 1-avgustda vafot etgan.

Matn yuzasidan savollar

1. Zulfiya Isroilova qanday lavozimlarida faoliyat yuritgan?
2. Taniqli o'zbek shoirasi qanday davlat mukofotlariga sazovor bo'lgan?
3. Zulfiyaning qanday she'riy to'plamlari bor?

Samarqand

Samarqandga borsam men agar,
Ulug'bekni ko'rib qaytaman.
U qon yig'lab turar har safar
Men dardimni kimga aytaman.

Bag'rimda bo'y yetgan bo'z , bolam
Mergan bolam, lochinko'z bolam.
Bo'g'zimda tig' urgan o'z bolam....
Men dardimni kimga aytaman.

Sezmay qoldim o'shanda chog'i,
Yulduzlarda ekan nigohim.
Bilmadim ne edi gunohim.....
Men dardimni kimga aytaman?

Qancha g'amga botmagan edim,
Qancha og'u yutmagan edim....
O'z bolamdan kutmagan edim....
Men dardimni kimga aytaman?

Tanim muzlab, goh tosh qotaman,
Men shoh emas, axir, otaman.
Go'rimda ham o'ylab yotaman,
Men dardimni kimga aytaman.

Samarqandga borsm men agar,
Ulug'bekni ko'rmay qaytmayman.
U menga qon yig'lar har safar
Men dardimni kimga aytaman.

Muhammad Yusuf

Muhammad Yusufning "Samarqand" she'ri yuzasidan topshiriq.

1. She'rni yod oling.
2. She'rdagi notanish so'zlar lug'atini keltiring.

Abdulla Oripov

Abdulla Oripov hozirgi o'zbek she'riyatining yirik vakili, mohir tarjimoni va jamoat arbobidir. U 1941-yil 21-martda Qashqadaryo viloyatining Neko'z qishlog'ida tug'ilgan. 1958-yili o'rta maktabni bitirib, shu yili Toshkent davlat universitetining o'zbek filologiyasi fakultetiga o'qishga kiradi.

A.Oripov o'quvchilik yillaridayoq she'rlar yozishni mashq qila boshlagan. Uning ilk she'rlari dastlab tuman gazetalarida e'lon qilinadi. Talabalik yillarida esa she'rlari respublika matbuotida bosilib chiqib, adabiy jamoatchilik e'tiborini tortdi. Shoirning ilk to'plami 1965-yili "Mitti yulduz" nomi bilan nashr qilingan. Shundan so'ng, 1966-yilda "Ko'zlarim yo'lingda", 1969-yili "Onajon", "Ruhim", 70-yillarda "Buloq", "O'zbekiston", "Yurtim shamoli", "Hayrat", "Yuzma-yuz", 80-yillarda esa "Najot qal'asi", "Yillar armoni" kabi qator to'plamlari chop etildi. 1968-yil Abdulla Oripov Oybek, Uyg'un, Mirtemir tavsiyalari bilan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zoligiga qabul qilinadi. U avval "Yosh gvardiya" nashriyotida, keyinroq, G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyotida bo'lim muharriri, "Sharq yulduzi" jurnalining she'riyat bo'limi mudiri, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining adabiy maslahatchisi, Yozuvchilar uyushmasi Toshkent bo'limi mas'ul kotibi, "Gulxan" jurnali bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi raisi lavozimlarida ishladi. Abdulla Oripov O'rta asr italyan shoiri Dantening "Ilohiy komediya"sidan "Do'zax" dramasini, venger dramaturgi Xeltonning "Soqov ritsar" nomli she'riy dramasini, Pushkin, Nekrasov she'riyatini O'zbek tiliga tarjima qilgan. A.Oripov 1983-yili Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. U adabiyot sohasidagi xizmatlari uchun 1989-yili "O'zbekiston Xalq shoiri", 1999-yilda esa "O'zbekiston Qahramoni" yuksak unvonlari bilan taqdirlandi.

Abdulla Oripov 2016-yil 5-noyabrda vafot etdi.

Matn yuzasidan savollar

1. A.Oripovning qanday she'riy to'plamlarini bilasiz?
2. A.Oripov qanday yuksak unvonlarga sazovor bo'lgan?
3. Shoir qaysi lavozimlarda faoliyat yuritgan?

Grammatika: Matn va uning ko'rinishlari

Bilib oling: Ma'lum voqelik haqida tasavvur (ma'lumot) beradigan bir yoki bir necha sintaktik birliklardan tashkil topgan nutqiy butunlik matn hisoblanadi. Matn ikki xil ko'rinishda bo'ladi: dialogik va monologik. Dialogik matn ikki va undan ortiq suhbatdoshning turlicha mazmundagi fikr-axborot almashinuvidan iborat. Dialogik matn so'zlashuv uslubi va badiiy uslubga xosdir. Monologik (tavsifiy) matn so'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan bayon etilgan voqea-hodisa, narsa yoki shaxs tasviri, tavsifi yohud xabar, ma'lumot bayonidir. Maqola, insho ham tavsifiy matnning bir turi sanaladi. Monologik matn yaratishda uyushiq bo'laklar, ajratilgan gap bo'laklari, atov gaplar, qo'shma gap ko'rinishlaridan ham keng foydalaniladi. Monologik matn ilmiy, publitsistik, rasmiy-idoraviy, shuningdek, badiiy uslubga xosdir.

Grammatik mavzu yuzasidan mashqlar

1-mashq. Gaplarni o'qing. Og'zaki so'zlashuv uslubiga xos o'rinlarni topib, izohlang. Otasi yoki u tengi boshqa kishiga "paxan", "boboy", onalariga "babulya", "babushka", "kampirsho", aka-ukalarga nisbatan "brat", "bratan", "bratishka" deb murojaat qilayotgan noqobil farzandlarning bunday noxush so'zlari quloqqa og'ir eshitiladi. Ayrim hollarda esa ismlarning ruscha-hindcha shakllarda o'rinsiz qisqartirilib aytilishi ham yoqimsiz tuyuladi. Xayrishka, Masha, Borya, Gulya kabi. Ko'cha-ko'yda, avtobuslarda, o'quv dargohlarida "hey", "vey", "xov" yoki hushtak chalib chaqiradigan, yor-do'stlariga Baxti, Mamash, Alish deya murojaat qiladigan yoshlar ham uchrab turadi. Bularning

hammasi o'ta madaniyatsizlik, odob me'yorini bilmaslik sanaladi. A.Mirzaboboyev.

2-mashq. Abdulhamid Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidan olingan quyidagi parchani o'qing. Og'zaki so'zlashuv uslubiga xos o'rinlarni topib, izohlang. So'fi yana past toifa oldida muborak og'zini ochib, aziz tilini qimirlatmoqqa majbur bo'ldi: - Badbaxt fitna! Qo'yasanmi-qo'ymaysanmi, axir?! "Xubilli vatani minal imon" deganlar – vatanni sevish imondan", axir! Bilmasang, bekor-da! Vatani yo'q – dunyoda lo'li, xolos. Meni bevatan deb bildingmi? So'fi bir oz qizib ham ketdi. - Bu hovli-joy otangdan qolgani uchun o'zimniki deysanmi yo? Unday desang, boshpurt olib, o'risvoyning religa tushib, "hayt" deb... makkatulloga jo'nab qolaman.

3-mashq. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'yib gaplarni ko'chiring. 1. Alisher Navoiy bolalik davrida ... birga tarbiyalangan. 2. Uning otasi ma'rifatparvar kishi bo'lib, ... qiziqar edi. 3. Navoiylar uyida shoirlar tez-tez to'planib ... 4. U 1472-yil ... . Bu ... . 5. U 10-12 yoshlarida ... . 6. U va bu tilda ... ... kirishdi. 7. U o'zining "Xamsa" asarida ... masalalarni yoritdi. 7. Bu asar besh dostondan iborat ..., ..., ..., . 8. Uning asarlari asosida ..., ..., kabi sahna asarlari yaratildi. 9. Navoiy haqida ko'plab ilmiy va nasriy asarlar yozildi. Oybekning ... romani, Uyg'un va I.Sultonning ... dramasi ... . 10. Ko'pgina ..., ... Alisher Navoiy nomi bilan atalgan.

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari

1.A.Oripov nechanchi yilda Hamza nomidagi Respublika davlat mukofotiga sazovor bo'lgan?

A.1983- yili

B.1985- yili

S.1990- yili

D.1991- yili

2.Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon nechanchi yilda hibsga olingan?

A.1937- yil 10- iyul

B.1938- yil 14- iyul

S. 1939- yil 15- iyul

D. 1938- yil 14- iyun

3.Hamid Olimjon nechanchi yilda qayerda tug'ilgan?

A.1909- yil 12-dekabrda Jizzax shahrida

B.1910- yil 12-dekabr

S.1911- yil 12-dekabr

D.1912- yil 13-dekabr

4.Taniqli o'zbek shoirasi Zulfiya nechanchi yillarda Qizlar bilim yurtida tahsil oladi?

A.1931-1934- yillarda

B.1932-1935- yillarda

S.1933-1936- yillarda

D.1935-1937- yillarda

O'N YETTINCHI DARS

DAVRIMIZNING GLOBAL MUAMMOLARI

Tayanch so'z va iboralar: Ozon tuynugi, cho'llashish, energiya, o'rmonlar.

Insonning mehnat faoliyati natijasida atrof-muhitga turli chiqindilar chiqariladi. Chiqindilar (qattiq, gazsimon va suyuq)ning bir qismi atmosferaga, boshqasi suvga, yerga, o'simlik va hayvonot dunyosiga ta'sir etib, vaqt mobaynida to'planib boradi. Ularning yillar davomida asta-sekin to'planib borishi turli muammolarni, ba'zan inson hayoti uchun o'ta xavfli muammolarni keltirib chiqarishi endilikda to'liq tasdiqlanmoqda. Insonning xo'jalik faoliyati natijasida dunyoda yirik ekologik muammolar kelib chiqmoqda. Ular quyidagilar: "issiqxona samarasi", ozon "tuynugi', cho'llashish.

"Issiqxona samarasi". Dunyo bo'yicha XX asrning 50-yillaridan boshlab, energiya ishlab chiqarishning keskin ortishi munosabati bilan atmosferaga katta miqdorda chiqindilar chiqarila boshlandi. Atmosferaga chiqariladigan chiqindilar miqdori yiliga 5 mlrd. tonnani tashkil qildi. Bu miqdor yil sayin orta boshladi. Bu esa Yerdagi o'rtacha harorat 1890-yildagi 14,5°C dan 1980-yilda 15,2°C ga, ya'ni 0,7 darajaga ortishiga olib keldi. Mazkur ko'rsatkich yil sayin ortib borish xususiyatiga ega. Bu esa «issiqxona samarasi»ning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Olimlarning fikricha, "issiqxona samarasi"ni vujudga keltiruvchi gazlarning hozirgi ortish sur'ati saqlanib qolsa, har 10 yilda harorat 0,2-0,5 darajaga ortib boradi. Bu esa turli ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Dunyo bo'yicha havo haroratining 1-2 darajaga ko'tarilishi natijasida Yevrosiyoda tundra, O'rmon-tundra, tayga, aralash va keng bargli o'rmonlar, O'rmon-dasht va dasht tabiat zonalarining shimolga siljishi kutilmoqda. Bundan tashqari, Yevropa va Afrikada daryolarning suv oqimi ortadi.

Dunyo bo'yicha havo haroratining ortishi muzliklarning erishi va okean suvlarining issiqlik ta'sirida kengayishiga olib keladi. XX asr davomida olimlarning hisobi bo'yicha okean sathi 17,5 sm ga ko'tarilgan. Amerika olimlarining bashoratiga ko'ra 2100-yilga kelib Dunyo okeani sathi 1,4-2,2 m ga ko'tarilishi mumkin. Bu okean sohillarida joylashgan ko'pchilik davlatlarning suv ostida qolib ketishiga sabab bo'ladi.

• **Ozon tuynugi.** XX asrning 50-yillaridan boshlab, havoda freon gazlarining (xlor, ftor, uglerod) miqdori ko'payganligi kuzatila boshlandi. Bu gazlar 25 km balandlikda joylashgan ozon qatlamini yemira boshladi. Ma'lumki, ozon qatlami Quyoshdan kelayotgan zararli ultrabinafsha nurlarini tutib qoladi. Ozon qatlamining yemirilishi natijasida "ozon tuynugi" hosil bo'ldi. Mazkur tuynukdan Yer yuzasiga ultrabinafsha nurlarining kirib kelishi donli ekinlar hosilini keskin kamaytirib yuborishi, odamlarning teri raki kasaliga chalinishlariga sabab bo'lishi aniqlangan.

• 1989-yil 81 mamlakat olimlari, mutaxassislari hamda davlat arboblari qabul qilgan «Ozon qatlamini muhofaza qilish Xelsinki Deklaratsiyasi»da 2000-yilga qadar freon gazlaridan ishlab chiqariladigan mahsulotlarni kamaytirib borish tadbirlari belgilab berildi. Natijada so'nggi yillarda ozon «tuynugi»ning maydoni qisqarib bormoqda.

• **Cho'llashish.** Hozirgi paytda cho'llashish jarayoni, ya'ni hosildor yerlarning, yaylovlarning cho'lga aylanishi tabiiy va sun'iy omillar ta'sirida sodir bo'lmoqda. Tabiiy omillarga asosan qurg'oqchilik kiradi. Masalan, 1968-1974-yillarda Sahroyi Kabirning sohil mintaqasida falokatli qurg'oqchilik oqibatida Chad ko'li maydonining 60 foizdan ortig'i, Neger, Senegal daryolari qurib qoldi, namlik yetishmasligi natijasida yaylovlarning mahsuldorligi keskin kamaydi, cho'l 100-150 km ga savannaga bostirib kirdi.

Matn yuzasidan savollar

1. Davrimizning global muammolari haqida fikr yuriting.

2. Dunyo bo'yicha havo haroratining ortishi qanday oqibatlarga olib keladi?

3. Ekologik muammolar haqida fikr yuriting.

Adabiy o'qish.

Abdulla Qahhor. Bemor (Hikoya)

Sotiboldining xotini og'rib qoldi. Sotiboldi kasalni o'qitdi-bo'lmadi, tabibga ko'rsatdi.Tabib qon oldi. Betobning ko'zi tinib, boshi aylanadigan bo'lib qoldi. Baxshi o'qidi. Allaqanday bir xotin kelib tolning xipchini bilan savaladi, tovuq so'yib qonladi. ...Bularning hammasi, albatta, pul bilan bo'ladi. Bunday vaqtlarda yo'g'on cho'ziladi, ingichka uziladi.

Shaharda bitta doktorxona bor. Bu doktorxona to'g'risida Sotiboldining bilgani shu : salqin, tinch parkda, daraxtlar ichiga ko'milgan baland va chiroyli oq imorat; shisha qabzali kul rang eshigida qo'ng'iroq tugmasi bor. Chigit po'choq va kunjara bilan savdo qiladigan xo'jayini Abdug'aniboy omborda qulab ketgan qoplar ostida qolib o'ladigan bo'lganida bu doxtorxonaga bormay Simga ketgan edi. Doxtorxona deganda Sotiboldininig ko'z oldiga izvosh va oq podshoning surati solingan 25 so'mlik pul kelar edi.

Bemor og'irlashdi. Sotiboldi xo'jayinining oldiga arzga bordi, ammo bu borishdan muddaosi nima ekanini aniq bilmas edi. Abdug'aniboy uning so'zini eshitib ko'p afsuslandi, qo'lidan kelsa hozir uning xotinini oyoqqa bostirib berishga tayyor ekanini bildirdi, keyin so'radi:

-Devonai Bahovaddinga hech narsa ko'tardingmi? **G'avsul – A'zamga-chi?**

Sotiboldi ketdi. Bemorning oldidan jilmaslik va shu bilan birga tirikchilik uchun xonaki bir kasb qilishga majbur bo'ldi-har xil savatchalar to'qishni o'rgandi. U ertadan-kechgacha oftobshuvoqda gavronlar ichiga ko'milib savat to'qiydi.

To'rt yashar qizchasi qo'liga ro'molcha olib, onasining yuzini karaxt, nimjon xira pashshalardan qo'riydi; ba'zan qo'lida

ro'molcha, mukka tushib uxlab qoladi. Hammayoq jim. Faqat pashsha g'ing'illaydi, bemor inqillaydi; har zamon yaqin-yiroqdan gadoy tovushi eshitiladi: "Hey do'st, shaydullo banomi ollo, sadaqa raddi balo, baqavli rasuli xudo... "Bir kechasi bemor juda azob tortdi. U har ingraganda Sotiboldi chakkasiga burov solingan kishiday talvasaga tushar edi. Qo'shnisi bir kampirni chaqirdi. Kampir bemorning to'zigan sochlarini tuzatdi, u yoq-buyog'ini siladi, so'ngra ....o'tirib yig'ladi.

-Begunoh go'dakning saharda qilgan duosi ijobat bo'ladi, uyg'oting qizingizni!-dedi. Bola anchagacha uyqu g'ashligi bilan yig'ladi., keyin otasining g'azabidan, onasining ahvolidan qo'rqib, kampir o'rgatgancha duo qildi:

-Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin....

Bemor kundan-kun battar, oxiri o'sal bo'ldi. "Ko'ngilga armon bo'lmasin" deb "chilyosin" ham qildirishga to'g'ri keldi. Sotiboldi to'qigan savatchalarini ulgurji oladigan baqqoldan yigirma tanga qarz ko'tardi. "Chilyosin" dan bemor tetik chiqqanday bo'ldi; hu kechasi atto ko'zini ochib, qizchasini yoniga tortdi va pichirladi:

-Xudo qizimning saharlari qilgan duosini dargohiga qabul qildi. Dadasi, endi tuzukman, qizimni saharlari uyg'otmang.

Yana ko'zini yumdi, shu yumgancha qaytib ochmadi-saharga borib uzildi. Sotiboldi qizchasini o'lik yonidan olib, boshqa yoqqa yotqizayotganda qizcha uyg'ondi va ko'zini ochmasdan odatdagicha duo qildi:

-Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin....

Grammatika: Dialogik matnning ma'no munosabatiga ko'ra turlari

Ko'p kishilik dialoglarda suhbat mavzusi savol-javobdan iborat bo'lmay, o'rtaga tashlangan savol, taklif, da'vat, biror xabar, dalillar bilan xulosalanadi.

Dialogik matn tarkibida so'roq olmoshlari, muomala odobiga oid so'z va iboralar, yuklamalar, undovlar, kirish so'zlar keng qo'llanadi. Bunday matndagi gaplar asosan, sodda

gaplardan tashkil topadi. Sodda gaplarning bir tarkibli turlari, to'liqsiz gaplar, so'z-gaplar faol ishlatiladi. Dialogik matn so'zlashuv uslubi va badiiy uslubga xosdir.

Grammatik mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1- topshiriq.

Yuqorida bayon etilgan ma'lumotlar asosida matnni tahlil eting. Tahlilda quyidagilarga e'tibor bering:

— ushbu dialogik matn necha a'zoli;

— matnda ifodalangan fikr;

— matnni shakllantirgan leksik vositalar;

— matnda gaplarining tuzilishi.

— Shu, deyman, Toshpo'lat, sen menga mundoq xushomad qilsang-u Xolidaga uylansang nima bo'larkan?— deb hazillashdi Samad. — U mening jiyanim, sen mening do'stim, begonaga uzatgandan ko'ra...

— Senga xudo bas kelsin, oshna, — dedi G'aybarov.— Esing joyidami yo meni uyingga kelmaydigan qilmoqchimisan?

— Nega, qarindosh bo'lsak yomonmi?

— Xolida hali yosh-ku?.. — Ma'suma bu gap og'zidan qanday chiqib ketganini payqamay qoldi. Labini tishladi. G'aybarovga zimdan razm soldi: yo'q, og'rinmadi, tusi o'sha-o'sha...

— Hazil, — deb kuldi Samad. — Darvoqe, Toshpo'lat, ko'pdan beri so'ramoqchi bo'lib yuraman, haliyam Galatepaga ko'milishim shart, deb o'ylaysanmi? — Harholda, tug'ilgan joying...

Murod Muhammad Do'st

1-mashq. Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonidagi Xisrav bilan Farhod munozarasini shakllantirgan leksik vositalar va ohang turlarini aniqlab, ajratib ko'rsating. Dialoglarning mazmunidagi farqlarni izohlang.

Dedi: nedur senga olamda pesha?

Dedi: ishq ichra majnunluq hamesha.

Dedikim: ishqig'a ko'nglung o'rundur?
Dedi: ko'nglumda jondek yoshurundur.
Dedi: ko'nglung fido qilsa jafosi?
Dedi: jonimni ham aylay fidosi.
Dedi: u ishqdin inkor qilg'il!
Dedi: bu so'zdin istig'for qilg'il!..
Dedi: joningni olsa la'li yodi?
Dedikim: ushbudir jonim murodi.
Dedi: ko'ksungni gar chok etsa bebok?
Dedi: ko'nglum tutay ham ayla deb chok!
Dedikim: shohg'a bo'lma shirkat andesh!
Dedi: ishq ichra tengdur shoh-u darvesh!..

1-topshiriq.

Do'stingiz bilan bugungi rejalari to'g'risida suhbatlashing va shu asosida dialogik matn yarating. Buning yozma yoki badiiy nutqqa xos matnda farqini tushuntirib bering.

3-mashq. Berilgan matnni o'qing, uning dialogik matndan qanday farqlanishini izohlang. Ajratib ko'rsatilgan tayanch so'zlarining ma'nolarini lug'atdan aniqlab, ko'chirib yozing.

Otalikning farzi ayni — farzandga munosib ism qo'ymoq, deydilar. U hamisha baqadri imkon bunga intildi; ikkinchi o'g'li tug'ilganda unga umrlik baxt tilab, Komron nomini berdi; uchinchi o'g'il dunyoga kelganida unga askarlik shijoatini tiladi — Mirzo Askariy deb bag'riga bosdi; Hindni olganida haq taolo to'rtinchi o'g'ilni ato etdi — shavkatli kunlarimdan yodgor deb Hindol ism qo'ydi; tangri bir onadan uch qizni unga karomat qildi — gul bargi monand nozik zebolarga chaman gullarining xush ismlarini ravo ko'rdi — Gulrangbegim, Gulchehrabegim, Gulbadanbegim, deb suydi. Mana, endi yaratgan unga nabira quvonchini baxsh etibdi...

U barqut bolishga horg'in suyangan ko'yi asta o'yga toldi. Bu go'dakning manglayiga kotibi qudrat nelarni yozdi ekan? Saltanat dag'dag'asinimi, sarkardalik shavkatinimi, allomalik rutbasinimi, shoirlik qismatinimi?

Tangri tanglayini qandoq fazl-u karamlar bilan ko'tardi ekan? Istiqboli orug'mikan, qorong'i? Zero, shohlar inon-ixtiyori o'zida deguvchilar adashur. Bu olamda shoh-u shahzodalar mudom o'zgalarga — o'zlaridan qudratliroq hukmdorga, ularning qosh-qovog'iga qaram. Shu vajhdankim, taxt tegrasida bobolar-u otalar, otalar-u bolalar aksar qirpichoq...

X. Sultonov

O'N SAKKIZINCHI DARS

TABIAT VA INSON



Tayanch so'z va iboralar: tabiat, yer yuzi, ekologiya, iste'mol, atrof-muhit, ma'naviy boylik, moddiy boylik, ekalogik madaniyat.

Tabiat yer yuzidagi jamiki tirik mavjudot uchun muqaddas sanaladi.Tabiat ularni to'ydiradi, kiydiradi, issiq va sovuqdan asraydi. O'z navbatida tirik mavjudot ham tabiatga mehr qo'yadi. Bu mehr tabiatni asrash, uning boyliklarini ko'paytirish tuyg'usi bilan uyg'unlasha olsagina haqiqiy sanaladi. Yangi asrning barkamol kishisi o'zida ekologik madaniyat unsurlarini ham namoyon eta olishi zamon talabidir. Ekologik madaniyat-bu atrof-muhit to'g'risida chuqur bilimga, tabiatni asrash tuyg'usiga ega bo'lish, o'simliklar hamda hayvonlarga nisbatan g'amxo'rlik

ko'rsatishga, tabiat zahiralaridan oqilona foydalanish, ularni ko'paytirish borasida qayg'urishga qaratilgan amaliy faoliyatning yuksak ko'rsatkichidir.

Ana shu xislatlarni o'zida aks ettira olgan insonni ekologik madaniyat egasi deb atash mumkin.

Iste'moldan ortqicha suv jo'mraklardan oqishiga yo'l qo'ymaslik, suv havzalarini ifloslantirmaslik, axlatni duch kelgan joyga to'kmaslik, turar joylarni ozoda saqlash, ko'chat va gullarni sindirmaslik hamda ularni ekish, hayvonlarga g'amxo'rlik qilish, qushlarni parvarishlash, xonadon va xiyobonlarni gulzorga aylantirish kabi harakatlarni amalga oshirish ekologik madaniyatsizlikning eng oddiy ko'rinishlari sanaladi.

Hozirgi davrda inson va tabiat, fan-texnika taraqqiyoti va atrof muhit, jamiyat va ekologiya o'rtasida nomutanosiblik vujudga kelayapti. Bularning barchasi ekologik madaniyatni yanada yuksaltirish masalasini ko'ndalang qo'ymoqda. Ma'lumki, tabiatda hamma narsa bir-biriga uyg'undir. Fan-texnika yutuqlaridan unumli foydalanayotgan inson esa ana shu uyg'unlikni buzmoqda, unga nisbatan shafqatsizlarcha munosabatda bo'lmoqda. Tabiiy boyliklardan: suvdan, yerdan o'rinsiz foydalanish ekologiyani o'zgartirib yubordi. Qishloq xo'jaligi ekinlarini noto'g'ri rejalashtirish, kimyoviy o'gitlarni haddan ziyod ko'p ishlatish yer unumdorligi va inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatyapti. Korxonalardan oqib chiqayotgan zaharli oqavalar, suv havzalarini ifloslantirishi birinchi navbatda hayvonot olami va o'simliklar dunyosiga ofat keltirmoqda. Transport vositalaridan chiqayotgan tutungaz havoning tozaligini buzyapti. Bularning barchasi insondan ekologik madaniyatni talab etmoqda.

Biz kelajak avlodlarga yaratgan ma'naviy va moddiy boyliklarimizni, bizgacha mavjud bo'lgan tabiatni va unga munosabatimizni, ya'ni, ekologik madaniyatimizni ham meros qoldiramiz. Ekologik madaniyat bu-faqat tabiatga zarar keltirmaslik emas, balki uning tiklanishi, yanada go'zallashuvi,

gullab-yashnashiga hissa qo'shish, atrof-muhitni buzuvchilarga qarshi beayov kurash olib borish degani hamdir.

Matn yuzasidan savollar

1.Nechanchi yilda O'zbekiston Republikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi?

2.Ekologik madaniyat nima?

3.Ekologik madaniyatga rioya qilish uchun nima qilish kerak?

4.Zahiriddin Muhammad Boburning qaysi asarida borgan joylarining tabiati, boyligi, hayvonoti, o'simliklari va odamlari, xalqlarining urf-odatlari tasvirlangan?

1-topshiriq:

a) matnni o'qing, unga bir necha savollardan iborat reja tuzing;

b) O'zingiz yoqtirgan tabiat hodisalari va ularga munosabat haqida so'zlab bering;

c) tabiatga munosabat haqida bahs-munozaraga kirishing;

d) bo'sh vaqtingizni qanday o'tkazishingiz haqida hikoya tuzing.

1-mashq. O'qing. Maqollarni daftaringizga ko'chirib yozing va eslab qoling.

1. Suv – oltindan aziz. 2. Suv – zar, suvchi – zargar. 3. Suv keldi – nur keldi. 4. Suvning qatrasi – oftobning zarrasi. 5. Elning hayoti yer bilan, yer hayoti suv bilan. 6. Ariqdan suv uzilmasa, savatdan non arimas. 7. Suv yil oqar, olamga gul taqar. 8. Suv taralar tuproqqa, oro berar yaproqqa. 9. Tomchi suvda tol ko'karar. 9. Suvsiz yerda tol bo'lmas, qovoqarida bol bo'lmas. 10. Suvsiz yer – mozor, suvli yer – gulzor. 11. Suvsiz yer – jonsiz jasad. 12. Suvsiz yerga qush qo'nmas, o'tsiz yerga yurt qo'nmas. 13. Suvni qum tagidan qidir. 14. Qum bor joyda suv bor, suv bor joyda jon bor.

2-mashq. Quyidagi qiziqarli ma'lumotlarni tarjima qiling.

Yer ostida juda ko'p suv zahiralari bor. Jumladan, 800 metr yer qatlamida to'rt million kub kilometr suv bo'ladi. Bu - butun dunyodagi daryolarning suvidan uch ming marta yoki ko'l va dengizlarning suvidan 20 marta ko'p demakdir.

3-mashq. Muloqotni tarjima qiling.

– Salom, Vali! Yaxshi dam oldingmi?

– Salom Zafar! O'zingning ishlaring qalay?

– Rahmat! Menga xo'jaligingni ko'rsatmoqchi eding. Bugun yordam berish uchun ataylab keldim.

– Zo'r ish bo'ldi-da! Yur, xo'jaligimiz bilan tanishtiray. Biznikida qancha vaqt bo'lasan?

– Kechgacha. Kechqurun o'zbek tilidan "Uy hayvonlari" mavzusida uy ishi yozishim kerak.

– Zafar, xo'jaligimiz uncha katta emas. Bu og'ilda sigir va buzog'imiz bor. Bu tomonda ikki qo'y, ikkita qo'zichoq va bir echkimiz bor. — Vali, bu hayvonlarni nima bilan boqasan?

– O't, xashak, ro'zg'ordan chiqadigan sabzavotlarning po'choqlari bilan.Yem ham beramiz. — Sigiring sut beradimi?

– Ha, sigirimiz sut beradi. Sutdan onam yog', pishloq, qatiq tayyorlaydi. — Echki va qo'ylaring ham sut beradimi?

– Ha, echki va qo'ylarimiz ham sut beradi. Ularning sutlari kamroq bo'lsa ham to'yimli va dorivordir.

– Uy hayvonlarini kim parvarish qiladi?

– Ular bilan, asosan, otam shug'ullanadi. Bo'sh paytlarimda men ham ularga qarayman. Yemish beraman, sug'oraman.

– Bu qanaqa uycha?

– Ehtiyot bo'l. Bu uychada itimiz Olapar yashaydi. Oppoq rangli mushugimiz ham bor. U doim tomma-tom sakrab yuradi.

– Vali, parrandalaringiz ham bormi?

– Bo'lmasa-chi? Axir parrandalar yetti xazinaning biri-ku! Ularning katagi hovlining chetida qurilgan.

– Qanday uy parrandalarini boqasizlar?

– Tovuq, g'oz, o'rdak va kurka. Ularning jo'jalarini alohida boqamiz. G'oz va o'rdaklar, ularning bolalari uchun hovuzcha qaziganmiz. Ular shu hovuzchada suzadi. – Parrandalardan qanday mahsulotlar olinadi?

– Tovuqlar, asosan, tuxum uchun boqiladi. G'oz va o'rdaklar ham tuxum beradi. Ammo biz g'oz, o'rdak va kurkalarni go'sht uchun boqamiz. Bu parrandalar tez semiradi. Kel, ularga don beraylik. Endi, yur, uyga kiramiz. Quymoq pishirib beraman. Qaymoqxo'rlik qilamiz.

Adabiy o'qish

Tabiat mo'jizasi nima? Tabiat - butun borliq, olamdagi hamma narsalar, barcha mavjudot. Mo'jiza-kishini hayron qoldiradigan hodisa, umuman odatdan tashqari barcha narsalar. Demak, tabiat mo'jizalari deganda, butun borliqdagi kishini hayron qoldiradigan, odatdan tashqari barcha hodisalami tushunishimiz kerak.

Aslida, tabiatdagi eng kichik hujayradan Yer yuzidagi eng baland cho'qqi — Jomolungma (Everest)gacha bo'lgan hamma-hamma narsalar mo'jiza. Biroq, insoniyat tabiatni, tabiat hodisalarini o'rgana bordi va har biri to'g'risida ilmiy xulosalar chiqardi.

Natijada, odamlar nazarida "mo'jiza" bo'lib tuyulgan ko'pgina tabiat hodisalarining mohiyati ravshanlashdi, endilikda ular kishilarni ajablantirmay qo'ydi. Lekin, bu bilan barcha "mo'jizalar" ayon bo'ldi, ular endi tabiatda uchramaydi desak, xato o'ylagan bo'lamiz. Chunki, hozirgacha fanga ma'lum bo'lmagan oddiy tabiiy hodisa va narsalar, masalan, qabristonlarda tunda ko'rinadigan shu'lalar; yer qa'ridan chiqayotgan issiq buloqlar, shuningdek, turli manzaralar — "teshik tosh", "tosh o'rmonlari", "kuylovchi g'or", "olovli g'orlar", "g'orlardagi daryo va ko'llar", 'ko'zyosh" oqizuvchi qoyalar, xohlaganda suv beruvchi buloqlar, tosh qo'ziqorinlari,

sangijumbon (qimirlovchi tosh) va boshqalar hanuzgacha kishilarni hayratga soladi.

Ma'lumki, tabiatdagi mavjud narsalaming hammasi - odam va hayvonlar, suv va o'simliklar, tog'-u toshlar, quruqlik va okeanlar, barcha-barchasi tinmay harakatda, o'zgarishda bo'lib, ular bir tomondan paydo bo'lsa, ikkinchi tomondan yemiriladi, yoki bir shakldan ikkinchi shaklga o'tib turadi.

Kundalik hayotingizda kuzatib borsangiz, o'zingiz ham tabiatda yuz berayotgan o'zgarishlarni ilg'ashingiz mumkin.

Yer qobig'ida sodir bo'lib turadigan zilzilalar, vulkan harakatlari, yonbag'irlarning qulashi va surilmalar, orollarning suv ostiga cho'kib ketishi va yangilarining paydo bo'lishi — buning yaqqol dalilidir. Ulaming hammasi yerning ichki kuchlariga bog'liqdir. Lekin, yer yuzasida ham ma'lum kuchlar bor-ki, ular vositasida tekisliklar jarliklarga, tog'lar pasttekisliklarga, qattiq granit toshlar qum va gil jinslariga aylanib turadi. Mana shu yer sathini o'zgartirib turuvchi kuchlar, awalo, oqar suv, shamol, quyosh nuri, o'simliklar dunyosi, yer osti suvlari, qor, yomg'ir va muzliklaming, shuningdek, insonlaming bunyodkorlik hamda buzuvchilik ishlaridan iborat.

Agarda qumli cho'llardagi barxanlar ko'chishiga, daryolarning jo'shqin to'lqinlariga, okean-dengizlar dovullariga, baland tog'lardagi qor bo'ronlariga va u yerdagi bahaybat muzliklar ko'chishiga nazar tashlasak, ulaming naqadar katta kuchga ega ekanligini anglaymiz. Chunonchi, qor bilan shamol, Quyosh bilan qor birlashib "harakat qilsa" bormi — eng qattiq tog' jinslari ham nurab, maydalanib ketadi.

Tabiat yaratgan yodgorliklarning ma'lum qismi Yer geologik tarixining dastlabki davrlaridan boshlab paydo bo'lgan va tashqi-ichki ta'sirlar tufayli yaxshi saqlanmagan. Ulaming kelib chiqishi, yer yuzasida namoyon bo'lishi va saqlanishida asosiy omillardan biri – Yer tarixining neogen – to'rtlamchi davrlarida, ya'ni taxminan 23-25 mln. yillar ichida sodir bo'layotgan yangi tektonik harakatlardir. Yangi tektonik harakatlar natijasida biz hozir ko'rib turgan bahaybat tog'lar orasidagi ajoyib manzaraga

ega bo'lgan oraliq va tog'oldi botiqlari vujudga kelgan. Demak, Yer qiyofasi, shu jumladan, tabiat yodgorliklarining bunyod bo'lishida yangi tektonik harakatlaming ahamiyati beqiyosdir. Yangi tektonik harakatlar natijasida kelib chiqqan relyef shakllariga yer yuzasida sodir bo'layotgan nurash, eroziya, eol, glatsial va boshqa jarayonlar ta'sir qilgan. Biroq hosil bo'lgan ko'plab tabiat yodgorliklari bu jarayonlar ta'sirida yo'qolib ham ketgan. Yer tarixida nafaqat tabiat yodgorliklari, balki ulkan tog'lar ham butunlay yemirilib ketgan, ulaming o'mini tekisliklar egallagan. Shu sababdan yer yuzida "qari" va "yosh" tog'lar mavjud. "Qari" tog'larga Tyanshan, Ural; "yosh" tog'larga Pomir, Hindukush va boshqalar misol bo'ladi. "Qari" tog'laming ba'zilari yangi tektonik harakatlar ta'sirida qayta ko'tarilgan.

Yer kurrasining ichki va tashqi kuchlarini hamda ular vositasida paydo bo'ladigan foydali qazilmalarni, tekislik va tog'laming kelib chiqishini o'rganuvchi fan geologiya (yunoncha "geo" — yer, "logos" — fan) deb ataladi. Yer haqidagi bu fanlar ko'p tarmoqqa bo'linadi. Yer sathiga muayyan manzara beruvchi, uning qiyofasini o'zgartiruvchi kuchlar tavsiflni geologiya fanining bir tarmog'i bo'lgan dinamik geologiya o'rganadi.

Grammatika: Dalolatnoma matni

Bilib oling:muassasa yoki ayrim shaxslar faoliyati bilan bog'liq biron-bir bo'lib o'tgan (sodir bo'lgan) voqea, hodisa, ish-harakatni yoki mavjud holatni tasdiqlash, unga guvohlik berish maqsadida bir necha kishi tomonidan tuzilgan hujjat. Dalolatnoma tuzishda xilma-xil maqsadlar ko'zlanadi, lekin uni tuzishdan asosiy maqsad sodir bo'lgan voqea –hodisalarni yoki maavjud holatni qoniniy huquqiy jihatdan isbotlash yoki tasdiqlashdir. Bir qancha hollarda dalolatnoma tuzish maxsus huquqiy me'yorlar bilan qat'iy belgilangan. Masalan, korxonalarning hisob-kitob bo'limlari faoliyatida Dalolatnomalar avvaldan belgilangan mazmun va davriylikka asosan tuziladi va huquqiy jihatdan muhim o'rin tutadi.

Dalolatnomaning zaruriy qismlari:

1.Idora, muassasa va tarkibiy bo'linma nomi.
2.Tuzilgan sanasi va joyi.
3.Tartib raqami va tasdiq belgisi (zarur hollarda)
4.Matn sarlavhasi.
5.Hujjat turi nomi (Dalolatnoma).
6.Hujjatni tuzish uchun asos (muassasa rahbarining buyrug'i, idoraning qarori yoki ko'rsatmasi kabilar).
7.Komissiya tarkibi (raisi va a'zolar).
8.Ishtirok etuvchilar (guvohlar).
9.Dalolatnoma matni.
10. Ilovalar (har bir ilovaning nechi betligi ko'rsatiladi).
11. tuzgan va ishtirok etganlarning imzolari.
12.Ijro haqidagi belgi.

Har bir dalolatnomaning ushbu zaruriy tarkibiy qismlari qatoriga ayrim hollarda boshqa ma'lumotlarni ham qo'shish mumkin. Chunonchi, ishni qabul qilish-topshirish chog'ida tuziladigan dalolatnomalarda xosimlar tomonidan topshirilayotgan qimmatdor buyumlar, hujjatlar sanab o'tiladi (ilovalar tarzida), topshirish vaqtidag ish ahvoliga baho beriladi, bajarilmagan ishlar qayd etiladi va hokazo.

Dalolatnoma shakli

Vazirlik, yuqori idora, TASDIQLAYMAN
muassasa nomi TASDIQLANGAN

MATN SARLAVHASI ("……HAQIDA")
DALOLATNOMA

Sana
tuzilgan joyi

Asos: (muassasa rahbarining (sanadagi)-raqamli buyrug'I yoki yuqori idoraning –raqamli qarori)

Raisi (shaxs lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari, familiyasi)

A'zolari: 1. (lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari, familiyasi)
2.(lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari, familiyasi)
3.(lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari, familiyasi)dan iborat komissiyan tomonidan (shaxs yoki shaxslar lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari, familiyasi) ishtirokida tuzildi.

MATN

Ilovalar
Komissiya raisi (imzo) Ismi va ota ismining bosh harflari, familiya
Komissiya a'zolari (imzolar) Ismi va ota islarining bosh harflari, familiyalar
Ishtirok etganlar (imzolar) Ismi va ota ismlarining bosh harflari, familiyalar

2-topshiriq. Keltirib o'tilgan dalolatnoma shakli orqali dalolatnoma matni tuzing.

3-topshiriq. Dalolatnoma haqidagi ma'lumotdan foydalanib, pul kamomadi haqida dalolatnoma tuzing.

O'zbekcha-ruscha so'zlar lug'ati

T/r	O'zbekcha	Ruscha	Inglizcha
1	**Tamoyil**	**Тенденция**	**tendency**
2	Ilm-fan	Наука	Science
3	Davlat ramzlari	Государственные символы	State symbols
4	Qiyos	Сравнение	Compare
5	Tanho	Единственная	One only
6	Ojiz	Не в силах	Lose one's strength
7	Kechmish	Прошлое	Past
8	Sharq adabiyoti	Восточная литература	Oriental literature
9	Jozibador, betakror	Очеровательный, чарующий	Magnetic
10	Go'zal til	Красивый язык	Beauty language
11	Imlo qoidalari	Орфография	Orthography
12	Ravnaq	Рассцвет, подъём	Develope
13	Imkoniyatlar	Возможность	Facilities
14	E'tibor	Внимание	Attention
15	E'zozlamoq	Лелеять, ценить	Sherish
16	Notiq	Оратор	Orator
17	Bulbul	Соловей	Nightingale
18	Va'z	Проповедь	Preaching
19	Bulbul kalomi	Соловьиная речь	The speech of nightingale
20	Taqlid	Подражание	Imitation
21	O'zgalarga taqlid	Подражание другим	Imitation of others

22	Yaxlit	Целый	Whole
23	Navro'z	Навруз	Navruz
24	ommaviy o'yinlar	Массовые игры	Mass games
25	Sayllar	Гулянья	Promenades
26	Maydonlar	Площади	Squares
27	Hasher	Хашар	Hashar
28	Konsert zali	Концертный зал	Concert hall
29	Iqtisodiy	Экономический	Economic
30	Ijtimoiy	Социальный	Social
31	o'zgarishlar	Изменения	Changes
32	Ramz	Символ	Symbol
33	Farovonlik	Благосостояние	Welfare
34	Maqom	Статус	Status
35	unvon	Звание	Rank
36	Elchixona	Посольство	Embassy
37	Taraqqiyot	Развитие	Development
38	Yilnoma	Летопись	Chronicle
39	Istiqlol	Независимость	Independance
40	Mag'rur	Гордый	Proud
41	Ovoz	Голос	Voice
42	Nurafshon	Сияющий	Refulgent
43	So'z ustasi		
44	Faylasuf	Философ	Philosopher
45	Mahorat	Талант	Talent
46	Fojeali o'limi	Трагическая смерть	Tragic death
47	Mehnatkash oila	Трудолюбивая семья	Hard-working family
48	Totuvlik	Дружелюбие	Peace
49	Beg'ubor	Простодушный	Naive
50	Poytaxt	Столица	Capital
51	Obod	Благоустроенный	Well-furnished
52	Oq oltin	Белое золото	White gold

53	Mehnat kuchi	Трудовая сила	Labour force
54	Azaliy	Древний	Ancient
55	Sardor	Предводитель	Leader
56	Tarovatli	Прелестный	Adorable
57	Bunyodkor	Созидатель	Creator
58	Anjuman	Конференция	Conference
59	Sharofatli	Благородный	Honorable
60	Bosh reja	Главный план	The main plan
61	Yo'nalish	Направление	Direction
62	Ortiqroq	Излишне	Overmuch
63	Ta'minlovchi	Снабженец	Supplier
64	Masofa	Расстояние	Distance
65	Zilzila	Землятресение	Earthquake
66	Kutubxona	Библиотека	Library
67	Jamg'arma	Фонд	Fund
68	Tashkilot	Организация	Organization
69	Nashriyot	Издательство	Publishing house
70	Ijodkor	Творец	Creator

MUNDARIJA

SO'ZBOSHI 3
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT RAMZLARI 5
BIRINCHI DARS 8
IKKINCHI DARS 16
UCHINCHI DARS 28
TO'RTINCHI DARS 37
BESHINCHI DARS 46
OLTINCHI DARS 60
YETTINCHI DARS 70
SAKKIZINCHI DARS 84
TO'QQIZINCHI DARS 96
O'NINCHI DARS 105
O'N BIRINCHI DARS 117
O'N IKKINCHI DARS 126
O'N UCHINCHI DARS 135
O'N TO'RTINCHI DARS 141
O'N BESHINCHI DARS 151
O'N OLTINCHI DARS 157
O'N YETTINCHI DARS 166
O'N SAKKIZINCHI DARS 173

Husan Berdiyev, Zulxumor Ashurova

O‘ZBEK TILI

O‘quv qo‘llanma

Muharrir: G.Rahimova
Musahhih: Sh.Abduraximov
Tex.muharrir: H.Amirdinov

24.10.2020 yilda bosishga ruxsat etildi:
Ofset bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60×84 1/16.
"Cambria" garniturasi. Ofset bosma usuli.
Hisob-nashriyot t. 11,6. Shartli b.t. 9,7.
Adadi 100 nusxa. Buyurtma №300.

SamDCHTI nashr-matbaa markazida chop etildi.
Manzil: Samarqand sh, Bo‘stonsaroy ko‘chasi, 93.